

S. AHMEDOV, R. QO‘CHQOROV, SH. RIZAYEV

# ADABIYOT

UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARINING 6-SINFI  
UCHUN DARSLIK-MAJMUA

*II qism*

QAYTA ISHLANGAN 4-NASHRI

**O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi  
tasdiqlagan**

TOSHKENT «MA‘NAVIYAT» 2017

UO‘K 821.512.133(075.3)

KBK 83.3(50‘)ya72

A 98

Ahmedov, Sunnat.

A 98 Adabiyot [Matn] Q. 2. / S. Ahmedov, R. Qo‘chqorov,  
Sh. Rizayev. – Toshkent: «Ma‘naviyat», 2017. – 160 b.

ISBN 978-9943-04-326-8

*Aziz o‘quvchi!*

Siz 5-sinfda o‘zbek va jahon adabiyotining ajoyib namunalari bilan tanishgan, buyuk siymolarning, iste‘dodli ijodkorlarning tarjimai hol-laridan xabardor bo‘lgan edingiz. Shubha yo‘qki, Siz egallagan bu bilim-lar dunyoqarashingizni yanada boyitdi, ezgulikka, go‘zallikka bo‘lgan mehringizni oshirdi.

Bu yil 6-sinfda yanada ko‘proq ijodkorlar bilan tanishasiz, rang-barang asarlarni chuqurroq o‘rganasiz. Endi Sizning ko‘ngil uyingizga o‘zbek mumtoz adabiyoti-yu jahon adabiyotidan ham, hozirgi zamon adabiyotidan ham ko‘proq adib-u shoirlar kirib kelishadi. Ularga qalbingizdan keng o‘rin bering, asarlarini qunt bilan sinchiklab o‘rganing. Darslikda badiiy asarlarning turlari va janrlari haqida nazariy ma‘lumotlar ham keltirilgan. Bu esa Sizning adabiyot ilmi haqidagi bilimlaringizning yanada boyi-shiga, badiiy asar mohiyatini kengroq anglashingizga yordam beradi. Sizga yana bir narsani tavsiya qilamiz: ushbu darslikda ko‘pgina asarlar to‘liq holida emas, balki qisqartirib keltirilgan. Siz ana shu asarlarning to‘liq nusxasini topib o‘qisangiz, adabiyot fanini yanada chuqurroq o‘z-lashtirgan, ayni paytda juda katta estetik zavq, ma‘naviy oziq olgan bo‘lasiz.

Bu ishda Sizga muvaffaqiyatlar tilaymiz!

UO‘K 821.512.133(075.3)

KBK 83.3(50‘)ya72

**Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari  
hisobidan ijara uchun chop etildi.**

ISBN 978-9943-04-326-8

© «Ma‘naviyat», 2017



## *Said AHMAD*

*(1920–2007)*



Muhtaram o‘quvchi, yozuvchi Said Ahmad nomi Sizga tanishmi? Bir o‘ylab ko‘ring-a, Siz uni, albatta, taniysiz. «Kelinlar qo‘zg‘oloni» nomli spektaklni yoki kinofilmni har yili kamida ikki marotaba respublikamiz televideniyesi namoyish etadi. Siz uni ko‘rmagan bo‘lishingiz mumkin emas. Ko‘rgan bo‘lsangiz, demak, Said Ahmad nomi ham Sizga ma‘lum. O‘zbekiston xalq yozuvchisi, «O‘zbekiston Qahramoni» Said Ahmad Husanxo‘jayev 1920-yilning 10-iyunida Toshkent shahrining «Samarqand darboza» mahallasida tug‘ilgan. Avval o‘rta maktabda, so‘ng Navoiy nomli pedagogika institutida o‘qigan. Bo‘lajak yozuvchining ilk mashqi – «Ishqiboz» nomli hajviy hikoyasi o‘n olti yoshlarida «Mushtum» jurnalida chop etilgani uchun uning dastlabki ish faoliyati ham shu jurnal bilan bog‘liq.

Ikkinchi jahon urushi yillari Said Ahmad «Qizil O‘zbekiston» (hozirgi «O‘zbekiston ovozi») gazetasi tahririyatida, keyinroq «Sharq yulduzi» jurnalida ishladi.

O‘tgan asrning 50-yillari boshlarida yozuvchi ko‘plab ziyolilar qatorida qatag‘onga uchrab, «xalq dushmani» degan tuhmatlar bilan qamaladi. Bu siyosat qoralangandan so‘ng Said Ahmad ham nohaq jazodan ozod etilib o‘z oilasiga qaytadi. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasida adabiy maslahatchi bo‘lib ishlaydi. Said Ahmadning birinchi kitobi «Tortiq» nomli hikoyalar to‘pla-

mi bo‘lib, 1940-yilda nashr etilgan. Shundan so‘ng uning «Er yurak» (1942-yil), «Farg‘ona hikoyalari» (1948-yil), «Muhabbat» (1949-yil) to‘plami, «Qadrdon dalalar» (1949-yil), «Hukm» (1958-yil) qissalari e‘lon qilindi.



**Uning ijodida «Ufq» romani alohida o‘rin tutadi. 60-yillarda bu asarning dastlabki ikki kitobi chop etilgan. Keyinroq uchinchi kitobi ham e‘lon qilinib, trilogiya sifatida adabiyotimiz xazinasini boyitdi.**

Bu asar xalqimizning Ikkinchi jahon urushi arafasida, urush yillari va undan keyingi ilk davrlardagi hayoti, fidokorona mehnati, kurashlari, orzu-armonlarini badiiy aks ettiradi. 1988-yili adibning «Jimjitlik» romani nashrdan chiqadi. Said Ahmad 70–80-yillarda o‘z hikoyalari asosida «Kelinlar qo‘zg‘oloni», «Kuyov» nomli pyesalar yozadi. Milliy teatrimizda ilk bor sahnalashtirilgan bu spektakllar xalqimiz o‘rtasida juda katta shuhrat topib, hozirgacha teatrlar sahnasidan tushmay keladi. Bundan tashqari, yozuvchining o‘nlab hajviy hikoyalari televizion miniatyuralar teatri orqali, «Xandon pista» (1994-yil) va boshqa kitoblar shaklida xalqimizning ma‘naviy mulkiga aylangan.

Said Ahmad keyingi yillarda yana bir qator yangi hikoyalar va xotiralar to‘plamlarini e‘lon qildi. Ayniqsa, Oybek, G‘afur G‘ulom, Abdulla Qahhor, Mirtemir, Shuhrat, Saida Zunnunova, O‘lmas Umarbekov kabi adabiyotimizning zabardast vakillari haqidagi xotiralari keng e‘tirof topdi. Adibning ko‘pgina asarlari xorijiy tillarga ham tarjima qilingan.

Said Ahmad 2007-yil 5-dekabrda vafot etdi.

## QOPLON

*(hikoya)*

Yangi hovli Tillayevga yoqdi. Yuklarni mashinadan tushirayotganda, Qurbonboy bir gap aytib qoldi:

– Sizga endi it lozim, o‘rtoq Tillayev. It uyning savlati bo‘ladi. Albatta, it boqing. O‘zim g‘alatisini topib beraman.

Tillayevning itga unchalik xushi yo‘q edi, indamay qo‘ya qoldi. Qurbonboy xotirlarning hayhaylashiga qaramay polni ham o‘zi yuvdi, gilamni ham o‘zi olib chiqib qoqib keldi.

– Iya, iya, biz turganda siz nega pol yuvarkansiz, opa? O‘zimiz qotirib tashlaymiz. Men gilam qoqayin-u, siz tomosha qiling. Ammo-lekin itning g‘alatisini boqish kerak. Ko‘chadan kirgan odam kiroyi direktor bo‘lsang, shunaqa it boq deb havas qiladigan bo‘lsin.

Qurbonboy uyni saranjom qilib bo‘lgandan keyin ham darrov keta qolmadi. Hovlida ancha aylanib yurdi. It bog‘laydigan joyni o‘zi belgiladi.

– Yo‘q, o‘rtoq Tillayev, it masalasini bizga qo‘yib beravering. Mana, itning joyi shu. Kichkinagina, ixchamgina uycha qurib berilsa, itning ham joni kirib qoladi. Xo‘p, biz ketdik.

Qurbonboy ketdi.

– Bu kishi kim bo‘ladilar? – dedi Tillayevning xotini orqasidan eshikni ilgaklab qaytarkan.

– Judayam anig‘ini bilmayman, garajimizda ishlasa kerak. Ko‘chishga mashina so‘raganimda zavgar qarashib yuboradi, deb qo‘shib bergan edi, – dedi Tillayev.

– Durust odamga o‘xshaydi. Chaqqongina ekan.

Ertasi Tillayev ishdan qaytib yuvinayotganda, Qurbonboy kattakon it yetaklab keldi. U itni ayvonning ustuniga boylab, iljaydi:

– Oti Qoplun, Tillayev aka. Odamning yaxshisini darrov taniydi. Sizga tez o‘rganib ketadi. Ertaga yaxshilab uycha yasab berib ketaman.

U qo‘lini yuvib kelib, yarim soatcha itning ta‘rifini qilib o‘tirdi.

– It hamma gapni tushunadi, faqat jonivorning tili yo‘q.

Qurbonboy bir so‘zli kishi ekan, aytganini qildi. Tillayev ishga ketganida zambilg‘altakda g‘isht olib kelib itga uycha yasab beribdi. Tillayev idoradan chiqib, endi mashinaga o‘tiraman deb turganda, yugurib kelib qog‘ozga o‘rog‘liq narsa uzatdi:

– Xo‘jayin, Qoplonga nasiba. Kabobchi oshnamga tayinlab qo‘ygan edim suyakni begona qilma deb.

– Qurbonboyingiz yaxshi odam ekan, – dedi xotini Tillayev uyga kelganda, – bechora jonini fido qivoraman deydi-ya. Bola-chaqali, kamxarj odamga o‘xshaydi. Imoratini yetti yildan beri bitkazolmasmish. Uncha-munchasiga qarashib yuboring.

Tillayev xotining gaplariga parvo qilmay choy ichardi.

Tillayev bilan Qurbonboy o‘rtasida yaqinlik paydo bo‘ldi. Bir kuni gap orasida u ro‘zg‘ordan orttirib uchastkasining tomini yopolmayotganini aytib qoldi:

– Ayb o‘zimda, yoshligimdan shunaqaman, o‘zimga qaramayman, oshna-og‘aynilarning ishi bitsin, deyman. Ha, odam bolasidan shu qolar ekan. Bo‘lmasa, promkombinatda ham, ray-poda ham oshnam bor, yuztagina shifer so‘rasam, yo‘q demaydi. So‘ramayman. Aslo so‘ramayman.

– Nechta shifer yetmayapti? – dedi Tillayev beparvo.

– Yo‘q, xo‘jayin so‘ramang. Siz bilan shu maqsadda oshno bo‘lmaganman. Bunaqa gapni aytsangiz, uyingizga ikkinchi qadam bosmay ketaman.

Shu-shu bo‘ldi-yu, Tillayevning unga ixlosi oshib ketdi. Shundoq odam garajda mashina yuvib o‘tirmasin, deb uni garaj mudiriga muovin qilib qo‘ydi. Uyiga bir yuz saksonta shifer, o‘ttizta tunuka tushurib berdi. Qurbonboy ham har kuni tushlikka kelib, Qoplonni o‘ynatib ketishni tark qilmadi. Bu orada Tillayevning eski bod kasali tutib yotib qoldi. Avvaliga Qurbonboy kelib uning holidan xabar olib turdi. Doktorlar endi bo‘lmadi, pensiyaga chiqing, deb maslahat berishgandan keyin Tillayev ministrlikka ariza yozib, ishdan bo‘shatishlarini so‘radi. Ministrlik uning talabini qondirib o‘rniga boshqa direktor tayinladi. Qurbonboy o‘sha kuni kelib, Qoplonni aylantirgani olib chiqib ketdi-yu, qaytib kelmadi. Tillayev Qoplonga ancha o‘rganib qolgan ekan, to yarim kechagacha ikki ko‘zi to‘rt bo‘lib itni poyladi. Yo‘q, Qoplon bedarak ketdi. Qurbonboy ham qorasini ko‘rsatmay qo‘ydi.

Oradan anchagina vaqt o‘tdi. Tillayev hassaga tayanib ko‘cha aylangani chiqdi. Bir mahal qarasa, ko‘chaning narigi betida

Qurbonboy Qoplonni yetaklab yuribdi. Chaqirsa it qaradi-yu, Qurbonboy qaramadi. O'sha kuni yangi direktor o'g'lining tug'ilgan kuniga o'tirish qilib berayotgan ekan. Tillayevga mashina yuboribdi. Er-xotin borishdi. Darvozadan kirishlari bilan yo'lakda yotgan Qoplon ularni ko'rib, dumini likillatib erkalandi.

– Bizning it qalay? – dedi yangi direktor.

– Bu itni taniyman, – dedi Tillayev va nariroqda yangi direktorning charm to'nini tuflab artayotgan Qurbonboyga bir qarab, uyga kirib ketdi.



### *Savol va topshiriqlar*

1. Sizningcha, «Qoplon» hikoyasini yozishga yozuvchini nimalar undagan?
2. Hikoya qahramoni Qurbonboy yashash va tirikchilik o'tkazishning qanday yo'lini o'zi uchun kasb qilib olgan?
3. Qurbonboyning Qoplon haqidagi «Odamning yaxshisini darrov taniydi. Sizga tez o'rganib ketadi» degan ta'rifini uning o'ziga nisbatan qanday shaklda ishlatgan bo'lardingiz?
4. Qurbonboy Tillayevning xotinida o'zi to'g'risida ijobiy taassurot qoldirish uchun qanday yo'l tutgan bo'lishi mumkin deb o'ylaysiz?
5. Hikoyadagi «Bir mahal qarasa, ko'channing narigi betida Qurbonboy Qoplonni yetaklab yuribdi. Chaqirsa it qaradi-yu, Qurbonboy qaramadi» degan tasvir orqali hikoya qahramoni va itning qanday xususiyatlari ifoda etilgan?
6. Korxonaga yangi tayinlangan rahbarning qanday odamligi haqida taassurot beruvchi o'rinlarni hikoyadan topib o'qing va uni izohlashga harakat qiling.
7. « – Bizning it qalay? – dedi yangi direktor.  
– Bu itni taniyman, – dedi Tillayev...»  
Mazkur suhbat zamirida yotgan ma'nolarni sharhlab bering-chi.
8. Hayotingizda Qurbonboyga o'xshagan kishilarga duch kelganmisiz? Agar Siz Qurbonboy o'rnida bo'lganingizda o'zingizga shu holatni ravo ko'rarmidingiz? Javobingizni izohlang.

9. Nima deb o‘ylaysiz: hikoya qahramoni Qurbonboyga aynan shunday ism tanlangani tasodifmi yoki yozuvchining bundan ko‘zlagan boshqa maqsadi bormi?
10. Qurbonboyga o‘xshagan qahramonlar tasvirlangan yana qanday asarlarni eslay olasiz?

## SOBIQ

Xoh ishonning, xoh ishonmang, birinchi kuniyoq to‘qqiz tonna paxta teribman. Avvaliga o‘zim ham hayron bo‘lib qoldim. Tavba, shuncha paxtani o‘zim terdimmi yo birov qo‘shib qo‘ydimi? Ertasiga bir qaytadan o‘n g‘ayrat bilan paxta terish mana bunaqa bo‘ladi, deb ishga tushib ketdim. To‘qqiz yarim bo‘pti. O‘sha kuni oblastdan, Toshkentdan muxbirlar bosib ketdi. Ovovimni lentaga yozib, radiodan eshittirishdi. Televizorda ikki marta ko‘rsatishdi. Hamma yoqni xat bosib ketdi. Bunaqa obro‘kimning tushiga kiribdi, deysiz. Ruhim tetik, bir gapirib, o‘n kulaman. Yo‘talsam ham «labbay» deb turishadi. Raisimiz u yoqqa borsam, u yoqqa, bu yoqqa borsam, bu yoqqa ergashadi. Bechora, meni yer-ko‘kka ishonmaydi. Ikki gapining birida:

– O‘zingni tut, katta-kichikning oldida sharmanda qilma. Sen bizning mash‘alimizsan. Ha, shundoq, soqolingni kunda olib tur. Dazmol bosilmagan shim kiyma, – deb nasihat qilib turadi.

Ikki kundan keyin gazetaning birinchi betida chakkamda paxta qistirib kulib turgan suratim chiqdi. O‘sha kuni rais Berdiali aka yap-yangi «Volga»sini ishlab turgan joyimga yuboribdi. Tez yetib kelsin, deb tayinlabdi. Obbo, bir gap bo‘lganga o‘xshaydi, deb ishni tashlab idoraga qarab ketdim. Borsam, rais oyog‘i kuygan tovuqday bezovtalanib, kutib turgan ekan.

– Keldingmi, uka, tez bo‘l. Kengashga ketasan. Poyezd bileting tayyor, uyingga borib kiyinib olgin-u, yo‘lga chiq.

Ketdim. Kengash ertasi kuni ochilar ekan, uch kun oblastda qolib ketdim. Kelgan kunimoq to‘ppa-to‘g‘ri dalaga chiqib, endi mashinaga yetay deb qolgan edim, yana o‘sha «Volga» olib ketdi. Idora oldida usti yopiqlik yuk mashinasi turibdi. Idoraga



kirishim bilan yetti-sakkiz odam atrofimni o‘rab olishsa bo‘ladimi? Kinochilar ekan. Paxta terishimni kinoga olamiz deb atayin Toshkentdan kelishibdi. Raisning gapini qarang. Ummatalining mashinasida kinoga tushasan, o‘sha tomonda paxta yaxshi ochilgan, kinoda chiroyli chiqadi deb turib oldi. Ummatalining yeriga qarab ketdik. Kinochilar o‘larcha ezma, shoshmagan odam bo‘lishar ekan, ikki kun ovora qilishsa bo‘ladimi, mana, chiqib qolsa ko‘rasizlar, qandoq qilib mashina haydashimdan tortib peshanamdagi terni qanaqa qilib qaysi qo‘l bilan sidirib olishimgacha apparatga olishdi.

Kinochilardan qutulib uyga holdan toyib keldim-u, kiyimboshim bilan uxlab qolibman. Ertalab raisning o‘zi uyg‘otdi.

– Tez bo‘l, kutib qolishdi.

– Tag‘in kinomi? Kecha tamom qilishgan edi-ku!

– Yo‘q, boshqa gap. Rayonda yangi qurilgan madaniyat uyining ochilish marosimi bo‘ladi. Ilg‘or mexanizatorlardan bir kishi tabrik nutqi so‘zlashi kerak. Sen gapirasan. Qani ketdik.

Gapni ham ammo-lekin bopladim. Kuniga nutq so‘zlab turgandan keyin usta bo‘lib ketarkansan. Rosa chapak bo‘ldi. Ichkariga mehmonlar uchun joy qildirib qo‘yishgan ekan. Artistlar bilan birga o‘sha yoqqa kirdim. Rosa pivoxo‘rlik bo‘ldi. Uyga kelib yotgan edim, eshik taqillab qoldi. Chiqsam, soch qo‘ygan, ingichka mo‘ylovli bir yigit turibdi. Yelkasida bir metrli faner sumka.

– Xizmat, uka, ishlari bormidi?

– Atayin o‘zlarini yo‘qlab keldim. Suratingizni ishlashim kerak. Vistavkaga qo‘yiladi.

Undoq desam, bundoq dedi, bundoq desam, undoq dedi. Sira gapimga ko‘nmadi. Janjallashib raisning oldiga bordik. Rais koyib berdilar.

– Esing joyidami? Bu vistavkaga qo‘yiladigan suratlarning ro‘yxatini oblastdan tasdiqlashgan. Qani, darrov bo‘l.

O‘zingiz bilasiz, raisimizning gapini ikki qilib bo‘lmaydi. Ishga tushib ketdim. Rassom tushmagur hali yosh, tajribasi kamroq

ekan. Rosa to‘qqiz kunda o‘zimga o‘xshatdi. Bu orada uyim xatga to‘lib ketdi. Pionerlar bilan uchrashuv, meditsina xodimlari bilan uchrashuv, mebel fabrikasi ilg‘or ishchilari bilan uchra-shuv... Albatta, bularga rais o‘zi bilib muomala qildi-yu, ammo rayon o‘t o‘chirish komandasining pensiyaga chiqayotgan keksa xodimini tabriklashni menga yuklab qo‘ysa bo‘ladimi. Bordim. Bularning tantanasi g‘alati bo‘larkan. Yolg‘ondakam o‘t ketdi qilib, birdan gupur-gupur qilishdi. Biri suv sepyapti, biri bolta bilan eski yashiklarni parchalab tashlayapti. Rosa odam yig‘ildi. Men uchinchi bo‘lib so‘zga chiqdim...

O‘sha kuni shamollab qolgan ekanman. To‘rt kun yotib oldim. Darmonim qurib ishga ketayotsam, rais qovoq-dimog‘ini osiltirib samovarning so‘risida o‘tiribdi. Indamay o‘tib ketish uyat. Odobdan emas. Qo‘rqa-pisa salomlashdim. U meni ko‘rdi-yu ko‘zlari yashnab ketdi.

– E, bormisan? Juda uzoq yotib olding-ku. Bu yoqda shuncha ish, shuncha joydan taklif. Sen bo‘lsang, arzimagan kasalni bahona qilib yotibsan. Allaqayoqdan polvon kelayotgan emish, vokzalga chiqib kutib oluvchilar ro‘yxatining boshida sen turibsan. Shu bugun kech soat yettida poyezd keladi. Kechikmay yetib bor. Mashinani tayinlab qo‘yganman.

Bir nima dey desam, raisning fe‘lidan qo‘rqaman. Chidadim. Oxiri yorildim:

– Axir, rais buva, bu yoqda shuncha...

Aytdim-ku, rais og‘iz ochgani qo‘ymaydi deb, urishib berdi.

– Uncha-muncha odam qadam bosolmaydigan joylarga boryapsan. Noz qilma. Yigit kishining boshiga baxt bir qo‘nadi. Qani tur, tayyorgarligingni ko‘r. Fizkultura komitetidan telefon qilib, miyamni qoqib qo‘limga berishdi. Uyaltirma-da, uka.

Xuddi soat yettida stansiyaga chiqdim. Poyezdning oltinchi vagoni. Eshigidan bo‘yi salkam bir terak keladigan odam tushib kelyapti. Tikilib qarasam, bir yili domotdixga borganimda tarvuzni butun yutib o‘yin ko‘rsatgan polvon. Rayonimizga tosh o‘ynashni ko‘rsatgani kelgan ekan. To‘rt kishi-to‘rt kishi bo‘lib

yigirmata toshni sudrab tushirib qo‘ydik. Stansiya bufetida jindek hozirlik ko‘rib qo‘yishgan ekan, o‘tirishdik. Polvonnini tabrikladik. Yaxshi kutib olganimizdan sevingan polvon oxirida so‘zga chiqib, olti kishilikni bir qilib, kosaga quyib qadah ko‘tardi. Hammamiz kayf qilib qolib, toshlar stansiyada qolib ketaveribdi. Qolsa qolavermaydimi, uni ko‘taradigan mard qayoqda.

Mana, oktabr oyi ham oxirlab qoldi. Mashina terimi tugay deb turibdi. Harna bo‘lsa ozroq terib olay, deb dalaga chiqsam, mashinam joyida turibdi. Bechorani biram chang bosibdiki, kimdir bo‘r bilan yoniga «Kolxozimizning sobiq mexanizatori falonchi mavsumda bir hafta dalaga chiqib shu mashinada paxta tergan» deb yozib ketibdi. Juda alam qildi.

Bunaqa beodob gap yozgan odamni topib, rosa ta‘zirini berardim-u, ishim tig‘izroq edi-da. Axir bugun yosh drujinachilar<sup>1</sup> bilan rayon markazidagi somsapazlikni tekshirishimiz, kaloriyasini<sup>2</sup> aniqlashimiz kerak.

## SAID AHMADNING HAJVIY HIKOYALARI HAQIDA

Adibning «Qoplon» hikoyasi satirik asarning yaxshi namunasi bo‘lib, kishilardagi xushomadgo‘ylik, laganbardorlik, o‘z manfaati yo‘lida andisha-mulohazaga bormay surbetlarcha ish tutishi, odamlarning amal kursisiga qarab munosabat ko‘rsatishi kabi yaramas illatlar tanqidiga bag‘ishlangan. Hikoyadagi Qurbonboy obrazi misolida yozuvchi o‘zini hali tanimagan rahbarlar pinjiga kirishning nozik yo‘llarini topib olgan, hech bir istiholasiz laganbardorligini oshkora ko‘rsatib, xo‘jayinining polini yuvib, gilamini ham qoqib berishdan orlanmaydigan, vaqti kelganda, shartta yangi boshliqqa xizmat qilib ketaveradigan oriyatsiz, ablah bir shaxs qiyofasini ko‘rsatib beradi. Tillayev ham,

---

<sup>1</sup> **Drujinachilar** – tartib saqlash ishiga ko‘ngilli bo‘lib qo‘shilgan yosh bolalar.

<sup>2</sup> **Kaloriya** – lotincha, «issiqlik» ma‘nosini beradi. Bu o‘rinda somsaning quvvati ma‘nosida kelgan.

uning xotini ham Qurbonboyning kimligini anglamay, ularga qilib yurgan xizmatini o‘zlaricha yaxshilikka yo‘yib yuradilar. Bu ish vaqtinchalik vazifa uchun qilinayotgan makkorlik ekanini tushunmaydilar. Shu bois Qurbonboyga ixlosi oshib, Tillayev uni mashina yuvuvchidan garaj mudiri muovini vazifasiga ko‘taradi, uyi tomini yopib olishi uchun anchagina shifer, tunuka tushurib beradi. Qurbonboy esa ishi bitguncha girdikapalak bo‘lib, har qanday mayda-chuyda oilaviy yumushlarni orlanmay bajarib, yangi boshliq tayinlanishi bilan Tillayev xonadonidan batamom yuz buradi. Xushomadining asosiy vositasi bo‘lgan it – Qoplanni olib ketib, yangi rahbarga ham xuddi avvalgiday alfozda taqdim qiladi. Uning surbetligi shu qadar kuchliki, Qurbonboy Tillayevni yangi boshliqnikida ko‘rib qolganida, nomiga bo‘lsa-da, uyalmaydi ham. Hatto, it eski xo‘jayinini tanib, dumini likillatib erkalangani holda Qurbonboy yangi rahbarning charm to‘nini artib turaveradi. Hikoya so‘ngida Tillayev Qoplanni ko‘rib: «Bu itni taniyman», – desa-da, achchiq istehzo bilan aytilgan bu so‘zlarni asli Qurbonboyga qarab qo‘yib aytadi. Demak, «it» deb Qurbonboyni nazarda tutadi. Yozuvchi bu bilan Qurbonboylar kabi buqalamun kimsalar, ablah odamlarning jamiyatda, insonlar orasida o‘rni bo‘lishi kerak emas, degan g‘oyani ilgari suradi.

Said Ahmadning «Sobiq» nomli ikkinchi hikoyasi achchiq, alamli kulgidan yiroq, hajviy, sof yumoristik yo‘nalishda. Yozuvchi voqeani asar qahramonining tilidan hikoya qilarkan, jamiyatimizda, halol kishilarning xatti-harakatlarida paydo bo‘layotgan dabdababozlik, nozarur yumushlarga chalg‘ib, kulgili vaziyatlarga tushib qolishi kabi nuqsonlar ustidan yengil kuladi.



**Katta maqsadlar yo‘lida intilayotgan yaxshi bir mehnatkash insonni asrab-avaylash, uning kuchidan oqilona foydalanish, har bir odam o‘z o‘rnida bo‘lib, o‘z vazifasini sidqidildan bajarishi lozimligi kabi masalalar hajviy yo‘sinda tasvirlangan vaziyatlar orqali anglashiladi.**

Sho'rolar davrining turg'unlik zamonlarida har narsani mafkuraga bog'lash odat tusiga kirgan edi. Hikoya qahramoni ham paxta terishda jonbozlik ko'rsatib, hech kutilmaganda dabdababozlikning nishoniga aylanadi. Eng ilg'or paxtakor deb, asosiy ishini yig'ishtirib, turli kerak-nokerak majlis, kengash, yig'ilishlarga borishga majbur bo'ladi. Endi dalaga chiqaman deganida, bir kinochilar, bir rassomlar kelib g'animat vaqtini behuda o'tkazadi. Yozuvchi bu xatti-harakatlarning bema'nilashib ketganini ta'kidlash uchun kulgining mubolag'a, lof kabi badiiy tasvir vositalarini qo'llaydi. Ya'ni, paxtakor qahramon rayon o't o'chirish komandasining pensiyaga chiqayotgan kekxa xodimini tabriklashga yuboriladi. Tarvuzni butun yutib o'yin ko'rsatadigan polvonni qutlashga chiqadi. Oxiri yosh drujinachilar bilan rayon markazidagi somsapazlarni tekshirgani o'tlanadi. Xullas, yozuvchi kulgili vaziyatni mubolag'a usuli orqali yanada kuchaytirib, o'quvchida shodon qahqaha paydo qiladi va bu bilan jamiyat rivojiga xalaqit berayotgan mayda nuqson, kamchiliklarga e'tiborni qaratadi.

Har ikki hikoyada ham yozuvchi badiiy tilning xalqona, nozik qochirimli, shirali, ko'p ma'noli xususiyatlaridan keng foydalanadi.



### *Savol va topshiriqlar*

1. Said Ahmadning hayoti va ijod yo'li haqida so'zlab bering.
2. «Kelinlar qo'zg'oloni» spektakli va kinofilmini ko'rganmisiz? Ko'rgan bo'lsangiz, taassurotlaringizni so'zlab bering.
3. «Sobiq» hikoyasi qahramoni qanday odam?
4. Rais obraziga ta'rif bering.
5. Yozuvchi kulgili vaziyatni kuchaytirish uchun qanday tasviriy vositalardan foydalanadi?



## *Musa JALIL*

*(1906–1944)*

Dunyo adabiyotida shunday siymolar borki, ular nafaqat ijodiy faoliyati, balki insoniy matonati bilan ham kelgusi avlodlarga ibrat namunasi bo‘lib qolgan. Yurtimizni mo‘g‘ul bosqinchilaridan himoya qilish janglarida mardlarcha halok bo‘lgan buyuk mutafakkir Najmiddin Kubro, bir qo‘lda yarog‘, bir qo‘lda qalam bilan temuriylar saltanatini qayta birlashtirmoq uchun cheksiz jabr-u jafolar chekkan Bobur Mirzo, insoniyatni fashizm atalmish vabodan qutqarish yo‘lida qurbon bo‘lgan chex shoiri Yulius Fuchik shular jumlasidandir.

Yuqori sinf tarix darslarida Siz 1939–1945-yillari bo‘lib o‘tgan Ikkinchi jahon urushi, uni boshlagan fashist yetakchilarining kirdikorlari haqida batafsil ma‘lumotga ega bo‘lasiz, albatta. Biz bugungi mavzuni yoritmoq uchun bu urush to‘g‘ri-sida qisqacha ma‘lumotni Sizga eslatib o‘tmog‘imiz lozim.



**XX asrning 30-yillari boshida Germaniya davlati boshqaruvini Adolf Gitler rahbarligidagi bir guruh harbiylar qo‘lga oladi. Ular dunyo mamlakatlarini o‘ziga bo‘ysundirish, boshqa xalqlarni qullikka muhtalo qilishdek yovuz niyatni ko‘zlashar edi.**

Shu maqsadda yirik armiya tuzishdi, uni eng zamonaviy qurol-aslaha bilan ta'minlashdi. Butun mamlakat aholisi o'rtasida «faqat nemis millatigina «oliy irq»ga tegishli, boshqa xalqlar o'z mehnati va boyliklari bilan unga xizmat qilishi lozim» degan vayronkor g'oya keng targ'ib qilindi. Shu tarzda «fashizm» deb atalgan shafqatsiz mafkura dunyoga keldi.

1939-yilning 1-sentabrda Gitler boshchiligidagi fashistlarning Polshaga hujum qilishi, 3-sentabrda esa Angliya va Fransiyaning Germaniyaga urush e'lon qilishi bilan Yevropa qit'asida Ikkinchi jahon urushi alangasi yoqildi. Olti yil davom etgan bu dahshatli urush olovi Yevropaning deyarli barcha mamlakatlarini, Ukraina, Belorussiya, Rossiya, AQSh, Yaponiya singari davlatlarni o'z komiga tortdi. Urush natijasida jami 60 dan ortiq mamlakatdan 60 million nafardan ko'proq odam hayotdan bevaqt ko'z yumdi. Minglab shahar va qishloqlar, yuz minglab korxonalar kuyib kul bo'ldi. Bir so'z bilan aytganda, mazkur urush tarixdagi eng katta va eng halokatli urush sifatida insoniyat boshiga cheksiz qayg'u-alamlar olib keldi.

Ikkinchi jahon urushining asosiy janglari Germaniya va sobiq Sho'rolar davlati (SSSR) o'rtasida bo'lib o'tgandi. U 1941-yilning 22-iyun kuni saharda Germaniyaning hujumi bilan boshlanib, 1945-yilning 9-may kuni Berlin shahrining olinishi bilan yakuniga yetgan.

Nemis qo'shini Moskva ostonasiga qadar bostirib kelar ekan, ko'plab harbiylar va tinch aholi vakillarini asir olar, ularni turli joylarda qurilgan konsentratsion lagerlarga – qamoqxonalarga jo'natar edi. Mazkur qamoqxonalarda odam bolalari hayvondanda battarroq sharoitda, ochlik va xo'rlikda saqlanar, eng qora va og'ir ishlarga majbur qilinlar, kichkina bahona bilan o'ldirib yuborilar edi.



**Ana shunday lagerlardan biri Germaniya poytaxti Berlindagi Moabit turmasi sanalgan. Shu qamoqxonaga 1942-yilning iyun oyidagi janglarda yaralanib, fashistlar qo'liga asirlikka tushgan iste'dodli tatar shoiri Musa Jalil ham keltiriladi...**

Musa Mustafo o‘g‘li Jalilov – Musa Jalil 1906-yilning 15-fevralida Rossiyaning Orenburg gubernasida dehqon oilasida dunyoga keladi. U, dastlab, ovuldagi boshlang‘ich maktabda savod chiqaradi. Oilasi shaharga ko‘chib kelgach, Orenburgdagi mashhur «Husayniya» madrasasida tahsilini davom ettiradi. Musa talaba tengdoshlari orasida o‘zining izlanuvchanligi, ko‘p narsaga qobiliyatli ekani bilan ajralib turar edi. Uning ilk she‘ri Turkiston fronti nashri hisoblangan «Qizil yulduz» gazetasida 1919-yilda bosilib chiqadi. Shundan so‘ng birin-ketin ommalashib borayotgan turli gazeta va jurnallarda shoirning qator she‘rlari va dostonlari e‘lon qilinadi.

Musa Jalil 1925-yilgacha yozgan asarlarini jamlab, «Biz boramiz!» nomi ostida she‘rlar va dostonlardan iborat dastlabki to‘plamini o‘quvchilarga hadya etadi. 1929-yilda «O‘rtoqqa», 1934-yilda esa «Ordenli millionerlar» nomli kitoblari chop etiladi. O‘z bilimi va tajribalarini oshirish maqsadida Moskva davlat universitetining adabiyot fakultetiga o‘qishga kirgan Musa Jalil 1931-yilda uni muvaffaqiyatli bitiradi.

Shoir 1940-yilda yaratilgan «Xat tashuvchi» nomli poemasida xat tashuvchi yigit Temirbulat bilan dehqon qiz Fayro‘zaning sof muhabbatini, samimiy insoniy kechinmalarini yorqin she‘riy bo‘yoqlarda aks ettirgandi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, Musa Jalil serqirra iste’dod egasi edi. U Moskva davlat konservatoriyasi huzurida tashkil qilingan tatar opera studiyasi repertuarining badiiy mukammal asarlar bilan ta’minlanishida alohida faollik ko‘rsatadi.



**Dastlabki tatar milliy operalarining yaratilishiga shoirning o‘zi munosib hissa qo‘shadi. Uning bastakor Jiganov bilan hamkorlikda yaratgan «Oltin soch» operasi butun mamlakatda katta dovruq qozongani, davlat mukofoti bilan taqdirlangani buning yorqin dalilidir.**

Keyinchalik Musa Jalil Tatariston yozuvchilari uyushmasiga rahbarlik qilar ekan, ona yurtida ijod qilayotgan shoir va yozuv-



chilar boshini qovushtirish, ularning badiiy mahoratini oshirish borasida samarali ish olib bordi.

Afsuski, Yevropa sarhadlarida boshlangan urush bu ijodkorning ham barcha rejalarini ostin-ustun qilib yubordi.

O‘z o‘rnini urush maydonlarida deb bilgan Musa Jalil jangchilar o‘rtasida ma‘rifiy targ‘ibot ishlarini olib borar, front gazetalarida harbiy muxbir sifatida turli xabar, maqola va badiiy asarlari bilan faol ishtirok etardi. Shoirning shu yillari nashr etilgan «Okopdan xatlar» nomli kitobiga jamlangan she‘rlarida bo‘layotgan urushning butun dahshati ro‘yirost tasvirlangandi.

1942-yilning yozida Volxov daryosi bo‘yida kechayotgan shiddatli janglar paytida Musa Jalil og‘ir yaralanadi va dushman qurshoviga tushib qoladi. U fashistlar qo‘liga tirik taslim bo‘lishni sira istamasdi. Biroq:

Taqdir kuldi, o‘lim tegmasdan  
O‘tib ketdi, qilmadi jur‘at.  
Netay, axir so‘nggi minutda  
Pistoletim qildi xiyonat...

Netay, axir do‘st pistoletim  
So‘nggi so‘zdan to‘sat bosh tortdi.  
Kishan soldi dushman qo‘limga  
Va erksizlik qa‘riga otdi.

(«Kechir, yurtim!» she‘ridan)

Shu kundan e‘tiboran shoirning tutqunlikdagi mashaqqatga to‘la hayoti boshlandi. U fashistlarning turli qamoqxonalarda chidash mumkin bo‘lmagan qiynoqlarga solindi, xo‘rlik va haqoratlarni boshdan kechirdi.



**Ruhan matonatli ijodkor turfa millat vakillaridan iborat mahbuslar orasida o‘zining dushmanga nafrat, kelgusi ozod va yorug‘ kunlarga ishonch bilan yo‘g‘rilgan da‘vatlari, she‘rlari bilan tanildi.**

Uning bu faoliyatidan xabar topgan fashistlar, nihoyat, shoirni Berlinga olib kelishib, Moabit turmasining zax va qorong‘i bir kishilik xonasiga tashlashadi...

Urushdan keyin Moabit turmasidan qutulib chiqqan belgiyalik partizan Andre Timmermans ismli kishi Brussel (Belgiya)dagi konsulxonaga she‘rlar bilan to‘lgan bir yon daftarni olib keladi. U mazkur daftar qamoqxonadagi yaqin do‘sti, tatar shoiri Musa Jalilga tegishli ekanini aytib, ijodkorning o‘zi fashistlar tomonidan vahshiylarcha o‘ldirilganini so‘zlab beradi. Daftarda Musa Jalilning o‘limi oldidan yozib qoldirgan quyidagi vasiyati ham bor edi:

«Tatarcha yozuvni taniydigan va bu daftarni o‘quvchi do‘stga.



**Bularni tatarlarning taniqli shoiri Musa Jalil yozib qoldirdi. Uning tarixi bunday... 1942-yilda urushga ketib ham ... asirlikda ko‘p azoblar tortib qirq o‘limdan qolib, oxirida Berlinga keltirildi. Berlinda yashirin siyosiy uyushmada qatnashuvda ayblanib qo‘lga tushdi va turmaga qamaldi. Balki uni o‘lim jazosiga hukm etarlar. U o‘lar. Ammo uning asirlikda va tutqunlikda yozgan 115 she‘ri bor. U shular uchun qayg‘uradi. Shuning uchun 115 she‘rning 60 tasini bo‘lsa hamki, ko‘chirib qoldirishga tirishdi. Ammo bu kitob qo‘lingga tushsa, she‘rlarni yaxshilab diqqat bilan oqqa ko‘chirib saqla, ham urushdan so‘ng Qozonga xabar qilib, tatar xalqining marhum shoirining she‘rlari deb nashr ettir. Mening vasiyatim shu! Musa Jalil, 1943-yil dekabr».**

Bu vasiyatnoma yozilganidan keyin oradan bir oy o‘tib – 1944-yilning yanvarida tatar xalqining asl farzandi shoir Musa Jalil fashistlar tomonidan qatl etildi.

## ISHONMA

Senga mendan xabar bersalar,  
«U yiqildi charchab», – desalar,  
Yo‘q, ishonma, jonim!  
Bu so‘zni –  
Do‘stlar aytmas yaqin ko‘rsalar.

Bayrog‘imga qon bilan yozgan  
Ontim undar olg‘a borishga!  
Haqqim bormi hech qoqilishga,  
Haqqim bormi charchab-horishga?

Senga mendan xabar bersalar,  
«U Vatanni sotdi» desalar,  
Yo‘q, ishonma, jonim!  
Bu so‘zni –  
Do‘stlar aytmas meni sevsalar.

Yurtdan ketdim yurtni, seni deb,  
Men kurashdim qonli har damda.  
Yurtni, seni qo‘limdan bersam,  
Nima qolar menga olamda?

Senga mendan xabar bersalar:  
«Musa o‘ldi endi», – desalar,  
Yo‘q, ishonma, jonim!  
Bu so‘zni –  
Do‘stlar aytmas meni sevsalar.

Tuproq ko‘mar tanni, ko‘molmas  
O‘tli qo‘shiq to‘lgan ko‘nglimni.  
«O‘lim» deyish mumkinmi, axir,  
Yengib o‘lgan bunday o‘limni?

Musa Jalilning «Moabit daftari»ga kirgan bu she‘ri 1943-yilning 20-noyabrida, o‘limidan ikki oygina oldin yozilgan. Guvohi bo‘lganimizdek, uning har bir bandi shoirning so‘nggi yillardagi taqdirini o‘zida mujassam etadi. Birinchi va ikkinchi band og‘ir

jangda qattiq yaralanmasin, dushman qurshovini yorib chiqishga urinayotgan, tanasidan mador ketib borayotganiga qaramay, ruhi taslim bo‘lishni istamayotgan jangchi kechinmalarini aks ettiradi. Bilasizki, har bir askar harbiy xizmatga kirar ekan, ont – qasamyod qabul qiladi. Unda qanday sharoitga tushmasin, qanday qiyinchiliklarga duchor bo‘lmasin, o‘z vazifasini ado etishga, yurtiga va xalqiga sadoqatli bo‘lishga qasam ichiladi. She‘r qahramonining esa bu qasamga qanchalar sodiqligini ontga berilgan ta‘rif orqali bilib olamiz: «Bayrog‘imga qon bilan yozgan ontim...»

Demak, bu jangchi qasamyodni shunchaki yodlab takrorlagan emas. U o‘z ontiga shu qadar sodiqki, bundan avvalgi janglar davomida bayrog‘iga tomgan qoni bilan ham buni isbotlagan.

Avval aytganimizdek, 1942-yilning iyun oyida Musa Jalil dushman qo‘liga asir tushgach, undan oilasiga, yor-do‘stlariga xat-xabar kelishi birdan to‘xtab qoladi. Bunday paytda askarning yaqinlariga telegramma orqali «bedarak yo‘qoldi» degan xabar yuborish rasm bo‘lgan edi. Ayrim og‘ziga kuchi yetmaganlar shunday taqdirga duchor bo‘lgan askarlar haqida «harqalay, dushmanga sotilib ketgan bo‘lsa kerak» qabilidagi badgumon gaplarni tarqatishdan ham toyishmasdi. Ayni holatni ko‘ngli sezgan shoir she‘rning uchinchi-to‘rtinchi bandida bunga o‘zining qalb javobini beradi. Bu javob o‘zining qat‘iyati, mantig‘i bilan kishini to‘la ishontiradi. Darhaqiqat, yurtdan shu yurtni, yurtdoshlarni deb qonli jangga ketgan chinakam fidoyi inson ona Vatanini yog‘iyga sotishi mumkinmi?!



**Shoir qalbidagi bu vatanparvarlik, yurtga muhabbat hissi shunday badiiy ifodasini topganki, u o‘zgalar yuragida ham ayni hislarning kuchayishiga sabab bo‘ladi:**

**Yurtni, seni qo‘limdan bersam,  
Nima qolar menga olamda?**

Asarning eng yuqori pardasi, uning so‘nggi bandlari hisoblanadi. Musa Jalil – hayot hodisalarini chuqur idrok etuvchi ijod-

kor, o‘zining fashistlar qo‘lidan osonlikcha qutula olmasligini, aziz umri mana shu tutqunlikda xazon bo‘lishi ehtimolini o‘ylamasligi mumkin emas edi. Qolaversa, dushman ham o‘z changalida oddiy odam emas, balki fashizm kirdikorlarining tub mohiyatini teran anglaydigan, agar qamoqxonadan tirik chiqib ketsa, bu yerda ko‘rgan-kechirganlarini dunyo afkor ommasiga oshkor qilishi mumkin bo‘lgan qalami o‘tkir ijodkor turganini yaxshi bilardi. Shu tufayli ham fashistlar shoirni xufiyona o‘ldirishni maqsad qilgan edilar. Ularning bu niyatini ichdan his qilgan Musa Jalil o‘limni mardonavor qarshi oladi, uning qoshida tiz cho‘kmaydi. Garchi o‘zining jonsiz vujudi tuproqqa qorishib ketsa-da, misralar aro uning o‘lmas ruhini o‘zida mujassam etgan she‘r-u dostonlari mudom tirik bo‘lishini bashorat qiladi.



**She‘rning so‘nggi misralari esa Musa Jalilning butun hayoti va ijodiga qo‘yilgan go‘zal badiiy obida bo‘lib qoldi:**

**«O‘lim» deyish mumkinmi, axir,  
Yengib o‘lgan bunday o‘limni?**

Darhaqiqat, shoirning «Moabit daftari»da kuylangan erkin hayotga chanqoqlik, insoniyatning baxtli kelajagiga ishonch hissi Musa Jalilning har qanday o‘limni dog‘da qoldirganidan yorqin dalolatdir. Shu daftardan o‘rin olgan «Qushcha» nomli she‘rida qamoqxonaning tikanli simiga kelib qo‘ngan erkin qushchaga murojaat qilib, shoir:

Uch, qushcha, hur  
Qo‘shig‘im bo‘lib! –  
Shudir sendan so‘nggi tilagim.  
Tanim qolsin bunda (Tan nima?)  
Ona yurtga borsin yuragim, –

deya kuylagan edi. Uning o‘lim oldidan qilgan orzusi ro‘yobga chiqdi. Shoir she‘rlarida ifoda etilgan o‘tli tuyg‘ular, go‘zal

insoniy hislar nafaqat yurti va o‘z yurtdoshlari, balki jahonning ko‘plab xalqlari yuragiga yetib bordi, millionlab qalblarda aks sado berdi. Jumladan, o‘zbek kitobxonlari Musa Jalilning «Moabit daftari» to‘plamini (tarjimon – Mamarasul Boboyev) va boshqa asarlarini o‘z ona tilida o‘qib, ko‘ngliga jo qildi.



### Savol va topshiriqlar

1. Musa Jalilning hayoti va ijodi qanday davrda kechdi?
2. Shoirning serqirra faoliyati o‘z ichiga nimalarni qamrab oladi?
3. «Moabit daftari»ning yaratilish tarixini so‘zlab bering.
4. Bu qo‘lyozmaning taqdiri qanday kechgan ekan?
5. «Ishonma» she‘rida shoirning qanday kechinmalari badiiy ifodasini topgan?
6. Nima sababdan shoir  
«Bu so‘zni –  
Do‘stlar aytmas meni sevsalar» deya ishonch bilan ta’kidlaydi?
7. Musa Jalil taqdiriga o‘xshash taqdirli ijodkorlardan yana kimlarni bilasiz?
8. Shoirning «Ishonma» she‘rini yod oling.

## SO‘ZDA HIKMAT BOR

### XALQ QO‘SHIQLARI

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» asarida san’atning barcha turlari qatori milliy qo‘shiqchiligimiz tarixi, uning bugungi kundagi rivojlanishi masalalariga ham alohida diqqat qaratilgan. Birinchi Prezident ta’kidlaganidek, «... kuy-qo‘shiqqa, san’atga muhabbat, musiqa madaniyati xalqimizda bolalikdan boshlab oila sharoitida shakllanadi. Uyida dutor, doira yoki boshqa cholg‘u asbobi bo‘lmagan, musiqaning hayotbaxsh ta’sirini o‘z hayotida sezmasdan yashaydigan odamni bizning yurtimizda topish qiyin desak, mubolag‘a bo‘lmaydi».<sup>1</sup>

Bu jihatdan xalq qo‘shiqlarining o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Qo‘shiqlar xalq poetik ijodining eng qadimiy va ommaviy shakllaridan biridir. Siz har kuni radio, televizor orqali qo‘shiqlar tinglaysiz. Biroq ularni farqlay bilish kerak.

Qo‘shiqlar yaratilish manbayi, tinglovchilarning qaysi qatlamiga bag‘ishlangani, mavzulariga ko‘ra har xil.



**Tariximizda xalq qo‘shiqlarining ko‘plab turlari mavjud bo‘lgan: ov qo‘shiqlari, mavsum qo‘shiqlari, to‘y qo‘shiqlari («Yor-yor»), aza qo‘shiqlari (marsiya) kabi. Bundan tashqari, bolalarga mo‘ljallangan alla, ovunchoq qo‘shiqlar, o‘yin qo‘shiqlari («Boychechak», «Oq terakmi, ko‘k terak») ham keng tarqalgan.**

<sup>1</sup> **Islom Karimov.** Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: «Ma’naviyat», 2008. 141-b.

Siz bilan biz tanishmoqchi bo'lgan *xalq qo'shiqlari* kundalik hayotimizni bezovchi ko'ngil mulki hisoblanadi. Xalqimiz o'z quvonchini, shodligini yoki g'am-hasratini qo'shiqlarda yorqin aks ettirgan. Xalq og'zaki bisotidan lirik qo'shiqlar va termalar yillar davomida sayqallanib bizgacha yetib kelgan va hozir ham sevilib ijro etilyapti.

Xalq qo'shiqlarida milliy urf-odatlarimiz nafislik va nazokat bilan aks ettiriladi. Kundalik hayotda onalarimiz allani kanda qilmay kuylayotganlari yoki to'ylarimizning «yor-yor»siz o'tmayotgani buning isbotidir.

Qo'shiq – jon ozig'i. Uni tinglaganingizda ruhingiz yengil tortadi, jon orom oladi. Buning asosiy sababi mazkur qo'shiqlar xalqning jonli tilini o'zida mujassam etgani, rang-barang xalqona iboralar bilan bezalib, ularning hikmat darajasiga ko'tarilgani bilan izohlanadi. Tabiat va uning farzandi bo'lmish inson ruhiyatidagi mushtarak jihatlar, ona tabiatdagi har bir o'zgarishning odamlar kayfiyatiga ta'sir qilishi, kishilar o'z hayotini tevarakatrof hodisalari bilan chambarchas bog'liq holda tasavvur qilishi bu qo'shiqlarda yaqqol aks etadi.



**Agar e'tibor bersangiz, xalqimiz insonning tug'ilishidan tortib to bu dunyoni tark etish marosimigacha o'z tuyg'ularini mana shu qo'shiqlar orqali ifoda etadi.**

Bugungi kunda respublikamizning turli viloyatlarida faoliyat ko'rsatayotgan folklor ansambllari tomonidan o'zlari mansub bo'lgan hududga xos qadimiy qo'shiqlarni qayta tiklash, ularga yangi-yangi jilvalar berib boyitish borasida samarali ishlar olib borilmoqda. Hatto, iste'dodli estrada xonandalari repertuaridan ham bu qo'shiqlar munosib o'rin egallayapti. Yurtimizda har yili keng nishonlanadigan Navro'z bayrami tantanalarida esa xalq qo'shiqlarining eng sara namunalari kishilar qalbiga bahoriy kayfiyat, ertangi kunga komil ishonch tuyg'ularini singdirmoqda.



Quyida e'tiboringizga havola etilayotgan xalq qo'shiqlari biz ta'riflagan buyuk ummondan tomchilar, xolos. Ularni o'qing, kuylang, toki ko'nglingiz zavq-u shavqqa to'lsin.

### **BOYCHECHAK**

Boychechagim boylandi,  
Qozon to'la ayroni.  
Ayroningdan bermasang,  
Qozonlaring vayronidir.

Qattiq yerdan qatalab chiqqan boychechak,  
Yumshoq yerdan yumalab chiqqan boychechak.

Boychechakni tutdilar,  
Tut yog'ochga osdilar.  
Qilich bilan chopdilar,  
Baxmal bilan yopdilar.

Qattiq yerdan qatalab chiqqan boychechak,  
Yumshoq yerdan yumalab chiqqan boychechak.

### **CHITTIGUL**

Chittigul-e, chittigul,  
Etagingga gul bosay.  
Hay-yu, chittigul,  
Hay-yu, chittigul.

Qo'ling qo'lbog'da bo'lsin,  
Beling belbog'da bo'lsin.  
Hay-yu, chittigul,  
Hay-yu, chittigul.

Tapir-tupur ot keldi,  
Chiqib qarang – kim keldi?

Hay-yu, chittigul,  
Hay-yu, chittigul.

Aravada un keldi,  
Childirmada gul keldi.  
Hay-yu, chittigul,  
Hay-yu, chittigul.

Gul yaxshi-yu gul yaxshi,  
Gulning popugi yaxshi.  
Hay-yu, chittigul,  
Hay-yu, chittigul.

O‘rtada o‘ynagan qizning  
Haydar kokili yaxshi.  
Hay-yu, chittigul,  
Hay-yu, chittigul.

## **BOSHGINAM OG‘RIYDI**

– Onajon, onajon!  
Boshginam og‘riydi-ya.  
– Boshginangdan onang aylansin,  
Nimalarga og‘riydi-ya?

– Bozorlarda bo‘lar ekan,  
Zargarlarda turar ekan,  
Uning oti tillaqosh,  
O‘shanga og‘riydi-ya!

– Onajon, onajon!  
Bo‘yniginam og‘riydi-ya.  
– Bo‘yniginangdan onang aylansin,  
Nimalarga og‘riydi-ya?

– Bozorlarda bo‘lar ekan,  
Zargarlarda turar ekan,  
Uning oti bo‘yintumor,  
O‘shanga og‘riydi-ya!

– Onajon, onajon!  
Quloqqinam og‘riydi-ya.  
– Quloqqinangdan onang aylansin,  
Nimalarga og‘riydi-ya?

– Bozorlarda bo‘lar ekan,  
Zargarlarda turar ekan,  
Uning oti oltin isirg‘a,  
O‘shanga og‘riydi-ya!

### *Nazariy ma‘lumot*

#### *XALQ QO‘SHIQLARI HAQIDA TUSHUNCHA*

*Qo‘shiq* – qadimiy lirik janr hisoblanib, kuyga solib aytishga mo‘ljallab yoziladi. Qo‘shiq, odatda, ikki xil bo‘ladi: xalq qo‘shiq-lari va yozma adabiyot namunasi bo‘lgan qo‘shiq-lar.

Xalq qo‘shiq-lari juda qadimiy tarixga ega. Ular dastlab mehnat jarayonida paydo bo‘lgan. Qo‘shiq-larda xalqning orzu-umidlari, zavq-shavqi, quvonch va iztiroblari mujassamlashgan.

Qo‘shiq yozma adabiyot janri sifatida ham mashhur. Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Feruz, Ogahiy, Muqimiy, Furqat va boshqa mumtoz shoirlarimizning she‘rlari xalqimizning sevimli qo‘shiq-lariga aylanib ketgan. Hamza, Hamid Olimjon, Turob To‘la, Po‘lat Mo‘min, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Omon Matchon, Usmon Azimov, Muhammad Yusuf kabi ijodkorlar asarlarining qo‘shiq qilib kuylanishi yozma adabiyot bilan qo‘shiq janrining bir-biriga naqadar aloqadorligini isbotlaydi.

Xalq qo‘shiq-larida ko‘pchilikning his-tuyg‘ulari umumlash-tirilgan holda yakka shaxs kechinmalari orqali aks ettiriladi.



**Xalq qo‘shilari har bir joyning jug‘rofiy tuzilishi, iqlimiga, urf-odatlariga, o‘tkaziladigan marosimlariga monand tarzda o‘sha yurtning turli yoshdagi vakillari tomonidan yaratiladi va ijro etiladi.**

Bu borada bolalar og‘zaki ijodi ham salmoqli o‘rinni egalaydi. Dastlab, kattalar tomonidan bolalar uchun qo‘shiqlar ijod qilingan bo‘lsa, keyinchalik bolalarning o‘zlari kuylagan qo‘shiqlari, termalar vujudga kelgan.

Masalan, bahor elchisi boychechakka bag‘ishlangan qo‘shiqlarni, qizaloqlar aytadigan «Chittigul» kabi qo‘shiqlarni bolalar maroq bilan kuylaganlar. Bolalar qo‘shiqlari shakl jihatdan nihoyatda oddiy, o‘ziga xos ohangdorlikka egadir. Bolalar tilidan aytilgan qo‘shiqlar o‘z ma‘no-mohiyati bilan aytuvchilarning ruhiy olamida yuz berayotgan tovlanishlarni, qo‘shiq mazmunida ifodalangan sodda, samimiy, beg‘ubor tuyg‘ularni tarannum etadi. Shuning uchun ham ular o‘z soddaligi bilan dilga yaqin, ta‘sirchan.

Marosim qo‘shiqlarida to‘y, aza va boshqa marosimlar bilan bog‘liq holatlar tasvirlanadi («Yor-yor», «Kelinsalom», «Kuyov-salom» kabi). Mehnat qo‘shiqlari esa turli mehnat jarayonlari bilan bog‘liq. Masalan, xirmon yanchishda «Xo‘p hayda», «Maydagul», sigir, qo‘y, echkilarni sog‘ishda, buzoq, qo‘zi, uloqlarni emizishda «Xo‘sh-xo‘sh», «Turey-turey», «Churey-churey» kabi xalq qo‘shiqlari dehqon va chorvadorlar ish faoliyatini o‘zida aks ettiradi.

«Boychechak» qo‘shig‘i, odatda, bahor faslida ijro etilgan. Boychechak gulining qo‘shiqqa solib aytilishi tasodifiy emas. Chunki bu gul – bahor darakchisi. Qishloq bolalari ushbu gulni ko‘tarib uyma-uy qo‘shiq bilan suyunchi so‘rab borishgan, xonadon sohiblari bolalarga hadyalar berishgan. Boychechakni ko‘rgan keksalar uni ko‘zlariga surtishgan. Negaki boychechak bahorga yetib kelganlik, shukronalik belgisi sifatida qabul qilingan.

«Boychechak» qo‘shig‘ining to‘rt, olti, sakkiz qatorli ko‘rinishlari mavjud. Qo‘shiq bolalarga xos sodda, samimiy, hazilmutoyiba tarzidagi misralar bilan boshlanadi:

Boychechagim boylandi,  
Qozon to‘la ayron di.  
Ayroningdan bermasang,  
Qozonlaring vayron dir.

Boychechak – ijobiy obraz, u yoshlik, jo‘shqinlik ramzi. U bolalarning bahor faslidagi birinchi qo‘shig‘i hisoblanadi. Bu qo‘shiq baland ovoz bilan aytiladi. Naqorat tarzida takrorlanadigan qismi jamoa bo‘lib kuylanadi:

Qattiq yerdan qatalab chiqqan boychechak,  
Yumshoq yerdan yumalab chiqqan boychechak.

Qo‘shiq matnidagi «boychechakni tutdilar, tut yog‘ochga osdilar» deyilishining ma‘nosiga e‘tibor beraylik.

Ma‘lumki, xalqimizda tut daraxti muqaddas hisoblanadi. Xalq tut daraxti mevasini sevib iste‘mol qiladi. Uning tanasidan taroq, bola uchun beshik yasashadi. Boychechak xalq orasida ramziy ahamiyatga ega bo‘lib, unda chuqur ma‘no bor. Uni «tutadilar», «tut yog‘ochga osadilar», «qilich bilan chopadilar», «baxmal bilan yopadilar». Xalqda o‘z kuchi bilan qiynalib maqsadga erishsa: «Axir, u qattiq yerdan qatalab chiqqan boychechakning o‘zida», – deyishadi. Bu ifodalarning barchasida boychechak mehnatkash inson ramzi ekaniga ishora qilinadi.

Siz o‘rganishingiz kerak bo‘lgan «Chittigul» qo‘shig‘i ham bolalar ijodiga xos bo‘lib, kichik yoshdagi qizaloqlar ijro etishadi. Bu qo‘shiq bahorni eslatgani uchun ham mavsum qo‘shig‘i hisoblanadi. Qizlar bu qo‘shiqni ijro etganda uning ohangiga mos harakatli o‘yin o‘ylab topadilar. Qizlar juft-juft bo‘lishib, kaftlarini bir vaqtda bir-biriga urib, aylanishib, yana urishtirib

qo‘shiq aytadilar. «Chittigul-o chittigul» deyilganda qizlar yuzma-yuz turadilar. Qo‘llari ma‘lum tartib bilan bir-birlariga qarsillab tegib, chiroyli ohang kasb etadi. «Hay-yu, chittigul» deyilganda, qizlar bir xil maqom bilan turgan joylarida gir aylanadilar. Qo‘shiq matni juft-juft matn va naqoratdan iborat bo‘ladi.

Xullas, bolalarning mavsumiy qo‘shiqlari aytilishi, ijro uslubi bilan ko‘plab o‘ziga xosliklarga ega, ya‘ni ma‘lum faslda o‘tkaziladigan marosimlar, harakatli o‘yinlar bilan bog‘liqdir. Muhimi, bu xildagi qo‘shiqlar o‘tmishimizni, uzoq ajdodlarimizning turmush tarzi, dunyoqarashi va orzu-istaklarini o‘rganishda katta ahamiyatga ega.



### Savol va topshiriqlar

1. «Qo‘shiq – jon ozig‘i», «Qo‘shiq – ko‘ngil mulki» deganda nimani tushunasiz?
2. Qo‘shiqlar yaratilish manbayi, mavzulari, kimlarga mo‘ljallanganiga qarab har xil dedik. Buni tushuntirib bering.
3. Xalq qo‘shiqlari qanday xususiyatlarga ega?
4. Qaysi qo‘shiqlarni o‘yin qo‘shiqlari deya olamiz?
5. Mavsum qo‘shiqlari sirasiga qaysi qo‘shiqlar kiradi?
6. «Boychechak» qo‘shig‘i nima haqida? Sharhlang.
7. Kitobingizdagi qaysi qo‘shiqni savol-javob qo‘shig‘i deya olamiz?
8. Biror-bir xalq qo‘shig‘ini yod oling va uni kuylashga harakat qiling.



## *Alisher NAVOIY*

*(1441–1501)*



Siz buyuk bobokalonimiz hazrat Alisher Navoiy haqida ko‘p eshitgansiz, kitoblar o‘qigansiz va balki atoqli yozuvchi Oybekning «Navoiy» romani asosida suratga olingan ko‘p qismli videofilmni ham tomosha qilgansiz. Qolaversa, o‘tgan yilgi adabiyot darslarida hazratning hayoti va ijodiy faoliyatiga oid ma‘lumotlarni qunt bilan o‘rgangansiz. Har yili 9-fevralda – shoirning tavallud ayyomida Toshkent shahridagi Milliy bog‘ hamda yurtimizning turli go‘shalarida o‘rnatilgan haykallari poyiga gullar qo‘yib, ul zot xotirasini yod etish an‘anaga aylanganini ham bilasiz. Nima uchun shoir bobomizga shunday ehtirom va e‘zoz bildiramiz? Nega asarlarini qayta-qayta nashr etib keng targ‘ib qilamiz? Chunki



**«Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimizning g‘ururi, sha‘n-u sharafini dunyoga tarannum qilgan o‘lmas so‘z san‘atkoridir. Ta‘bir joiz bo‘lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so‘zlovchi biron-bir inson yo‘qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e‘tiqod bilan qaramasa».<sup>1</sup>**

<sup>1</sup> **Islom Karimov.** Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – T.: «Ma‘naviyat», 2008. 47-b.

Darhaqiqat, bobomizning mustaqillik yillarida nashr etilgan yigirma jildlik mukammal asarlari to‘plamiga kirgan she‘r-u dostonlari, ilmiy va tarixiy asarlari, xotira va yozishmalari ruhiy dunyomizni nihoyatda boyitadigan, aql-tafakkurimizni charxlaydigan, yurtimiz tarixi va uning buyuk siymolari haqida juda qimmatli ma‘lumotlar beradigan asarlardir. Mazkur asarlarning orasida besh ulug‘vor dostonni o‘z ichiga olgan «Xamsa», ayniqsa, alohida e‘tiborga sazovor. Siz avvalgi sinflarda bobomizning ijodiy faoliyatlari bilan tanishganingizda, «Xamsa» yaratish juda mushkul, ammo sharafli hodisa hisoblanganini, jahon adabiyotida xamsanavislar ko‘p bo‘lgan-u, ammo mukammal «Xamsa» yaratish faqat ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy, hind adibi Xisrav Dehlaviy va fors-tojik adabiyoti namoyandasi Abdurahmon Jomiya, o‘zbek hamda boshqa turkiy adabiyot vakillari orasida esa faqat Alisher Navoiyga nasib etganini bilib olgansiz.



### *Savol va topshiriqlar*

1. Alisher Navoiy hazratlarining xalqimiz ma‘naviy hayotida tutgan o‘rni haqida so‘zlab bering.
2. Nima uchun biz har yili 9-fevral kunini bayram sifatida nishonlaymiz?
3. Alisher Navoiy siymosi aks etgan qanday badiiy kitob va boshqa san‘at asarlarini bilasiz?
4. «Xamsa» so‘zi qanday ma‘noni anglatadi va «Xamsa» yaratgan qaysi ijodkorlarni bilasiz?
5. Yurtimizda Alisher Navoiy nomini abadiylashtirish borasida qanday ishlar amalga oshirilgan?

### **«MAHBUB UL-QULUB»dan**

T a n b i h (11)

### **Saxovat va himmat bobida**

Saxovat insoniyat bog‘ining borvar shajaridur, balki ul shajarning mufid samaridur. Odamiylik kishvarining bahri mavjvari, balki ul mavj bahrining samin gavhari. Saxovatsiz kishi – yog‘insiz abri bahor va royihasis mushki totor. Mevasiz yig‘och



hamon-u o'tun hamon va yog'insiz bulut hamon-u tutun hamon. Saxosiz kishi birla gavharsiz sadafning bir hukmi bor. Dursiz sadaf bila o'lub qurug'on kashafg'a ne e'tibor.

Saxiy bulutdur – ishi xirmon, balki maxzan bermak. Baxil mo'rdur – da'bi xo'sha balki dona termak. Himmat ahlig'adur saxovat ixtisosi va bu ikki sharif sifat valoyat xosi. Saxovat odamig'a badandur va himmat anga ruh va himmat ahlidin olamda yuz ming futih. Himmatsiz kishi er sonida emas, ruhsiz badanni kishi tirik demas. Oliy himmat shohbozedur baland parvoz va behimmat sichqon sayyode yurutachi toz. Shunqor maskani shohning bilagi, yurutachi maqomi o'laksaning sassig' badani va so'ngagi.

Arslon ishi sayd urub sibo'ni to'yg'ormoq va sichqon varzishi diram o'g'urlab, tugunni axtarmoq. Sohibi himmat muflisliq bila past bo'lmas, himmatsiz ganj topsa, biyiklarga hamdast bo'lmas. Chinor ilgi xolilig'idin biyikligiga ne nuqson va tufroqqa nihon ganjlari bila ne ulvi shon. Himmat ahlig'a agarchi biyik kavkabdur, ammo saxovatg'a necha martabadur.

Isrof saxo emas va itlofni ma'no ahli saxo demas. Haq molin kuydurganni devona derlar va yorug' kunda sham'i kofuriy yoqqonni aqldin begona derlar. Mubohot uchun bermak xudnamoliq va aning bila o'zin saxiy demak behayoliq. Ulki el ko'rmaguncha bermas – laimdur, saxiy emas. Tilab berganni ham saxodin yiroq bil; ibrom bila bergandin bermaganni yaxshiroq bil. Birta o'tmakni ikki bo'lub, yarmin bir ochg'a berganni saxiy de; o'zi yemay barin muhtojga berganni axiy de.

## T a n b i h (12)

Hunarlarni topmoq yedurmakdur va ayblarni yopmoq kiydurmaqdur. Mahallida bergan eski chortora to'n – saxovat va bemahal bergan zarboft chorqab – shaqovat. Desangki, taoming zoye' bo'lmag'ay – yedur va tilasangki, libosing eskirmagay – kiydur. Saxo tariyqin mazkur bo'lg'on so'z-la angla, ammo karam oyini va futuvvat rusumi o'zga angla.

T a n b i h (18)

### Hilm zikrida

Hilm inson vujudining favoqihlig‘ bog‘idur, odamiylik‘ olamining javohirlig‘ tog‘i. Hilmni havodis daryosida kishilik kemasining langari desa bo‘lur va insoniyat mezoni toshig‘a nisbat qilsa bo‘lur. Axloq shaxsning og‘ir baholig‘ libosidur va ul libos jinsining sangin debosi. Muxolif nafslar sarsari uchurmoqdin asrag‘uvchi va munofiq, bulhavaslar harzasi tundbodi sovrarmoqdin saqlag‘uvchi. Xaloyiqdin kishiga mujibi ta‘zim va e‘zoz va akobirdin asog‘irg‘a boisi iltifot va imtiyoz. Necha ulug‘ kishi tamasxur va tiybat qilsa, aning qoshida beshukuh va viqor. Nechakim, musin kishi hazl va xiffat ko‘rguzsa, aning qoshida beshafqat va bee‘tibor. Ammo davron bog‘ining xas va xoshakoyinlari va yeldek besabot va tamkinlari ko‘ziga hilm ahli og‘irliqqa mansub va garon jonliq bila ma‘yubdurlar. Quyundek tufrog‘ni havog‘a sovrururlar va sabuksorliq bila boshlarin ko‘kka yetkururlar. Tog‘ paykorin ayog‘ ostig‘a olmoq oyinlari va dasht ajzosin havog‘a sovrarmoq tamkinlari. Yeldek har eshikdin kirarga orlari yo‘q, o‘tdek otashdonlig‘idin o‘zga shiorlari yo‘q. Yel agarchi lola tojin uchurg‘ay, ammo qiyo kamarig‘a neta olg‘ay. O‘t agarchi tog‘ etagin kuydurgay, ammo quyosh axgarig‘a nechuk yeta olg‘ay?..

Ammo yel agar ko‘kka yetsun, sabukbordur va bemiqdor va tog‘ agar tufroqqa botsunki, sohibviqordur, hilm-shior. Aning zimnida o‘tqa yoqqudek xas-u xoshok, munung javfida shoh tojig‘a tikilgudek la‘li otashnok.

Bayt:

Og‘irliq vaznidindur seldin g‘amsiz Hiriy tog‘i,  
Yengillik fartidin barbod erur qomg‘oq yafrog‘i.

T a n b i h (22)

Mazlung‘a baxshoyish ko‘rguzki, zolimdin osoyish ko‘rgaysan. Zerdastlarga naf‘ yetkur, agar tilasangki, zabardastlardin

zarar ko‘rmagaysan. Xiradmand muxolafatdin qochar va muvo-  
faqatg‘a muloyamat eshigin ochar. Zanbur g‘avg‘osidin nish  
mutasavvardur va asal savdosidin no‘sh muyassar.

### T a n b i h (30)

Har kimki, birov bila yordur yoki yorlig‘ da‘viysi bordur,  
kerakkim, o‘ziga ravo tutmog‘onni yorig‘a ravo tutmasa, ko‘p  
nimakim o‘ziga ham ravo tutsa, anga tutmasa. Bas mashaq-  
qatkim, andin ruhg‘a alam yetar, kishi ani o‘z jism-u jonig‘a  
tajviz etar. Ammo ani yorig‘a taxayyul qila olmas, agar taxayyul  
qilsa, vahshatidin hayoti qolmas.

Qit‘a:

Yor uldurki, har nechakim o‘ziga  
Istamas, yorig‘a ham istamagay.  
O‘zi istarki, yor uchun o‘lgay,  
Ani munda sherik aylamagay.

### T a n b i h (48)

Tilga ixtiyorsiz – elga e‘tiborsiz. Harzago‘ykim, ko‘p ta-  
kallum surgay, itdekdurkim, kecha tong otquncha hurgay. Yamon  
tillik andoqkim, el ko‘ngliga jarohat yetkurur, o‘z boshig‘a ham  
ofat yetkurur. Nodonning muvahhish harzag‘a bo‘g‘zin qirmog‘i  
– eshakning jihatsiz qichqirmog‘i. Xo‘shgo‘ykim, so‘zni rifq va  
musovo bila aytg‘ay, ko‘ngulga yuz g‘am keladurg‘on bo‘lsa,  
aning so‘zidin qaytg‘ay. So‘z dadur har yaxshiliqni imkoni bor,  
munda debdurlarki, nafasning joni bor. Masihokim, nafas bila  
o‘lukka jon berdi, go‘yo bu jihatdin erdi.

Makruheki, harzasi tavil va ovozi karihdur, o‘zi savti bila  
qurbaqag‘a shabihdur. Ahli saodatlar ruhbaxsh zulolig‘a manba’  
ham til, ahli shaqovatlar nahs qavqabig‘a matla’ ham til. Tiliga  
iqtidorlig‘ – hakimi xiradmand; so‘ziga ixtiyorsiz – laimi najand.  
Tilki fasih va dilpazir bo‘lg‘ay – xo‘broq bo‘lg‘ay, agar ko‘ngul  
bila bir bo‘lg‘ay.

Til va ko‘ngul xo‘broq a‘zodurlar insonda; savsan va g‘uncha marg‘ubroq; rayohindurlar bo‘stonda. Odame til bila soyir hayvondin mumtoz bo‘lur va ham aning bila soyir insonga sarafroz bo‘lur. Til muncha sharaf bila nutqning olatidur va ham nutqdurki, agar nopisand zohir bo‘lsa, tilning ofatidur.

T a n b i h (49)

Tildin azubat dilpisanddur va liynat sudmand. Chuchuk tilki, achchig‘liqqa evruldi, zarari om bo‘ldi, qandniki, muskir boda qildilar, harom bo‘ldi. Chuchuk so‘z sof ko‘ngullarg‘a qo‘shdur, barcha atfol tab‘ig‘a muloyim halvofurushdur.

Bayt:

Xush so‘zga kim o‘lsa mast-u behush,  
Sharbat aro zahrni qilur no‘sh.

T a n b i h (50)

Har kimki, so‘zi yolg‘on, yolg‘oni zohir bo‘lg‘och uyolg‘on. Yolg‘onni chindek aytquvchi suxanvar – kumushni oltun ro‘kash qiluvchi zargar. Yolg‘on afsonalarda uyqu kelturguvchi, yolg‘onchi uyquda takallum surguvchi. Yolg‘on aytguvchi g‘af-latdadur. So‘zning asnofi bag‘oyat cho‘qdur, yolg‘ondin yamonroq sinfi yo‘qdur.

### «MAHBUB UL-QULUB» ASARIDAN OLINGAN NAMUNALARNING NASRIY BAYONI

Hurmatli o‘quvchilar, guvohi bo‘lganingizdek, Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub» asaridan keltirilgan ayrim namunalarning o‘ziyoq buyuk mutafakkirning ham she‘riy, ham nasriy uslubda birdek yuksak asarlar yarata olish iqtidoriga ega bo‘lganini ko‘rsatadi. Hikoya tarzining ravonligi, badiiy san‘atlar bilan bezalgani, fikr va qarashlarning aniq ifoda etilishi matnning shavq bilan o‘qilishiga zamin yaratadi. Lekin Sizning bilim va tajribalaringiz mazkur asardagi barcha so‘zlarni to‘liq anglash uchun hozircha yetarli emas. Shundan kelib chiqib, asardan

olingan parchaning atoqli navoiyshunos olim Porso Shamsiyev tomonidan tayyorlangan bugungi adabiy tilimizdagi matnini e'tiboringizga havola etish foydali bo'ladi deb o'ylaymiz.

T a n b i h (11)

### **Saxovat va himmat to'g'risida**

Saxovat insoniyat bog'ining hosildor daraxti, balki u daraxtning foydali mevasidir. Saxovat odamiylik mulkining mavj urib turgan dengizidir, balki u to'lqinli dengizning bebaho gavharidir. Saxovatsiz odam yog'insiz bahor bulutiga va hidi yo'q mushk-anbarga o'xshaydi. Mevasiz daraxt ham bir-u, o'tin ham bir; yog'insiz bulut ham bir-u, tutun ham bir. Saxovatsiz odamdan ichida gavhari bo'lmagan sadafning farqi yo'q; dursiz sadaf bilan qurib qolgan toshbaqa chanog'ining farqi yo'q... Saxiy bulutdir, xirmon-xirmon don hosili, balki xazina beradi; baxil chumolidir, don-dun, mashoq teradi. Himmat ahlining ixtisosi saxovatdir; bu ulug' sifat pokiza kishilarga xosdir. Odam bir badan bo'lsa, himmat uning jonidir; himmatlilardan olam ahli uchun yuz ming sharaf va shukuh yetishadi. Himmat-siz kishi er sonida emas; jonsiz badanni hech kim tirik demas. Oliyhimmat odam balandparvoz lochindir; behimmat – sichqon ovlovchi kalxatdir. Shunqorning maskani shohning bilagidir; kalxatning joyi o'limtikning sassiq badani va so'ngagidir.

Arslonning maqsadi – ov qilib, och yirtqichlarni to'yg'azmoq; sichqonning harakati – don o'g'irlab, tugun axtarmoq. Himmat egasi qashshoq bo'lsa ham tubanlik qilmas; himmatsiz odam xazina topsa ham buyuklarga teng bo'lmas. Chinor daraxti bo'sh qo'lli bo'lsa-da, uning yuksakligiga nuqson yetmaydi; yer tagida yashirib yotgan xazinaning tuproqqa foydasi tegmaydi. Himmatli kishilarning darajasi yuksakdir; ammo saxiylikning darajasi bir necha barobar yuksakdir.

Isrof qilish saxiylik emas; o'rinsiz sovrishni aqlli odamlar saxiylik demas. Halol molni kuydirganni devona deydilar; yorug' joyda sham yoqqanni aqldan begona deydilar. Maqtanish uchun

mol bermoq – o‘zini ko‘z-ko‘z qilmoq va shunday qilib o‘zini «saxiy» demaq – behayolik bilan nom chiqarmoq. Kimki xalqqa ko‘rsatib ehson bersa, u pastkash, saxiy emas. Tilagandan so‘ng berishlik ham saxovatdan yiroqdir, qistash natijasida bergandan bermagan yaxshiroqdir. Bitta kulchani ikki bo‘lib, yarmini och odamga berganni – saxiy deb, o‘zi yemay hammasini muhtoj odamga berganni – axiy do‘st deb bil.

T a n b i h (12)

Yaxshiliklarni topmoq yedirmoqdir; ayblarni yashirmoq kiydirmoqdir. Zarur vaqtida berilgan eski chopon va bo‘z to‘n saxovat; bemahal hadya qilingan zarbof chopon yaramaslikdir. Ovqatim uvol bo‘lmasin desang – yedir; libosim eskirmasin desang – kiydir.

Saxovat qilish yo‘lini shu aytilgan gaplardan angla; ammo oliyjanoblik va mardlik rasmlari bundan boshqachadir.

T a n b i h (18)

### **Hilm to‘g‘risida**

Hilm (muloyim tabiatlik) inson vujudining xushmanzara mevalik bog‘idir va odamiylik olamining javohirga boy tog‘idir. Yumshoq ko‘ngillilik – hodisalar to‘la dengizdagi kishilik kemasining langari desa bo‘ladi va insoniyat qadrini o‘lchaydigan tarozining toshiga tenglashtirsa ham bo‘ladi.

Hilm – axloqli odamning qimmatbaho libosi va u kiyim turlarining eng chidamli matosidir. U – yomon nafsni daydi shamol uchirishidan asraguvchi va ikkiyuzlama munofiqlarning behuda harakatidan himoya qiluvchi.

Hilm natijasida odam xaloyiqning izzat-hurmatiga sazovor bo‘ladi; hilm tufayli kattalardan kichiklarga iltifot va marhamat yetishadi.

Katta kishilar yoshlarni masxara va kulgi qilsa, ular qoshida o‘zi shuncha obro‘siz va bachkana tuyuladi; yoshlar ham kattalarga nisbatan hazil va yengiltaklik qilsa, uning qoshida uyatsiz va e‘tiborsiz bo‘ladi.

Bu davr bog‘ining xas-xashak singari odamlari, shamoldek betayin, yengiltak kishilari oldida hilm ahli go‘yo og‘ir tabiatli va yomon fe‘lli deb kamsitiladilar. Ularning o‘zlari esa, quyundek tuproqni havoga to‘zitadilar va yengiltabiatlari bilan boshlarini go‘yo ko‘kka yetkazadilar. Tog‘ jussasini oyoqosti qilmoq – odatlari; dala-dashtlardagi zarralarni havoga sovurmoq – bularning salobatlari. Bunday odamlar yeldek har eshikdan kirishga or qilmaydi; o‘tdek otashdonni qizdirishdan o‘zga ishni bilmaydi. Yel, garchi lolaning tojini uchiradi, ammo tog‘ qoyalari kamariga qanday ta’sir qila oladi? O‘t tog‘ etagidagi xas-xashaklarni kuydirishi mumkin, lekin quyosh uchquniga qanday tenglasha oladi?..

Yel, agar ko‘kka yetsa ham, baribir, yengil va qadrsiz; tog‘, agar tuproqqa botsa ham salobatlidir. Yelning orasida o‘tga yoqiladigan xas-xashaklar bor; hilm mazmunida esa, shoh tojiga qadalgudek cho‘g‘ kabi qizil la‘l bor.

Bayt:

Hiri tog‘i og‘ir bo‘lgani uchun uni sel bossa ham tashvishi yo‘q,  
To‘zg‘oq o‘simligining yaprog‘i yengil bo‘lgani uchun shamolda  
barbod bo‘ladi.

T a n b i h (22)

Mazlumga yaxshilik qilsang, zolimdan omonda bo‘lasan. Agar kuchlilardan zarar ko‘rmayin desang, kuchsizlarga foyda yetkaz. Aqli bor odam janjallashishdan qochadi; do‘stlashish uchun kelishuvchilik eshigini ochadi. Arining g‘uvullashida nayza sanchishi xavfi bor; asalarining g‘ovurida bolga muyassar bo‘lish imkoni bor.

T a n b i h (30)

Har kim birov bilan do‘st-yor bo‘lsa yoki do‘st-yorlik da’vosini qilsa, o‘ziga ravo ko‘rmaganni unga ham ravo ko‘rmasligi kerak; ba’zi narsalarni o‘ziga ravo ko‘rsa hamki, yoriga ravo ko‘rmasligi lozim. Ko‘p mashaqqatlardan kishi ruhiga

alam yetadi, jism-u joni bunga toqat qiladi. Ammo bunday mashaqqat do‘sti boshiga tushishini xayoliga ham keltira olmaydi. Mabodo xayoliga keltirgudek bo‘lsa, dahshatdan hayoti so‘nadi.

Qit‘a:

Yor uldirki, o‘ziga ravo ko‘rmagan narsani  
Yoriga ham ravo ko‘rmagay.  
O‘zi yori uchun o‘lmoqqa tayyor esa-da,  
Lekin yorini bu ishda sherik qilmagay.

T a n b i h (48)

Tilga ixtiyorsiz – elga e‘tiborsiz. Ko‘p, bemaza so‘zlaydigan ezma kechalari tong otguncha tinmay huradigan itga o‘xshaydi. Tili yomon odam xalq ko‘nglini jarohatlaydi, o‘z boshiga ham ofat yetkazadi. Nodonning vahshiylarcha baqirmog‘i – eshakning bemahal hangramog‘i. Xushsuxan odam yumshoqlik bilan do‘stona so‘z aytadi; ko‘ngilga tushishi mumkin bo‘lgan yuz g‘am uning so‘zi bilan daf bo‘ladi. So‘zda har qanday yaxshilikning imkoni bor, shuning uchun ham aytadilarki, «nafasning joni bor...»

O‘zi xunuk, gapi bema‘ni, ovozi yoqimsiz odam qurbaqaga o‘xshaydi. Baxt bag‘ishlovchi toza ruh manbayi ham til; yomonliklar keltiruvchi nahs yulduzining chiqar joyi ham til. Tilini tiyolgan odam – donishmand oqil; so‘zga erk bergan odam – beandisha va pastkash. Til shirin va yoqimli bo‘lsa yaxshi; til bilan dil bir bo‘lsa yana yaxshi. Til bilan dil insondagi eng yaxshi a‘zoldir. Bo‘stonda gulsafsar, gulg‘uncha va rayhonlar eng yoqimli gullardir.

Odam tili bilan boshqa hayvonlardan imtiyozlidir. Uning tili orqali boshqa odamlardan afzalligi bilinadi. Til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir. Agar nutq noma‘qul bo‘lib chiqsa, tilning ofatidir.



### T a n b i h (49)

Til shirinligi ko'ngilga yoqimlidir; muloyimligi esa – foydali. Chuchuk til achchiqqa aylansa, ko'pchilikka zarari tegadi; qandandan may tayyorlansa harom bo'ladi. Shirin so'z sof ko'ngillar uchun asal kabi totlidir; bolalar uchun muloyim tabiatli odam halvofurush kabi sevimlidir.

Bayt:

Yaxshi so'zga kim mast-u behush bo'lsa,  
Sharbat ichida zaharni totli qiladi.

### T a n b i h (50)

Har kimningki so'zi – yolg'on, yolg'onligi bilingach, uyatga qolg'on; yolg'onni chindek gapiruvchi so'z ustamoni – kumushga oltin qoplab sotuvchi zargar. Yolg'on-afsonalar bilan uyqu keltiruvchi yolg'onchi – uyquda alahlovchi. Yolg'on gapiruvchi g'aflatdadir; so'zning bir-biridan farqi ko'pdir, ammo yolg'onroq turi yo'qdir.

### T a n b i h (108)

#### **Safarning foydalari to'g'risida**

Turg'un yer qayda-yu, aylanuvchi osmon qayda? Bir joyda turgan tuproq qayda-yu, sayr etib yuruvchi yulduz qayda? Biri qimirlamay turgani uchun kishilar oyog'i ostida poyandoz bo'ldi; ikkinchisi esa, harakatda bo'lgani tufayli yuksaklarning yuksagi bo'ldi.

Azob va mashaqqat tavoze va adabning negizidir. Safar esa ranj-mashaqqatga sababdir. Safar – erituvchi va kuydiruvchi ko'radir. U erish-kuyish esa er kishining vujud oltinini toblab xom gil(loy)dan tozalovchidir.

Safar – ayriliqqa uchraganlarni maqsadiga yetkazuvchi va mahruamlarni murod uyiga olib kiruvchidir. Safar – xom odamlarni pishiruvchi va taomlarni singdiruvchidir. Safar kishilarni

olam ajoyibotlaridan bahramand qiladi, g‘aroyibotlar dunyosidan xabardor qiladi.

Aziz kishilarning mozorlarini ziyorat qilish fayziga mu-sharraf va mukarram bo‘lmoq ham safardan; fayzli, ulug‘ zotlar xizmatida izzat va hurmat topmoq ham safardan. Yo‘lovchining yurishiga quvvat beruvchi ham safar va ko‘ngliga har tomonga borish zavqini soluvchi ham safar. Musofirni turli joy va man-zillar bilan tanishtiruvchi ham u; dunyoni kezish yo‘liga soluv-chi ham u. Issiq-sovuqda jonga orom beruvchi ham u; achchiq-chuchukdan ko‘ngilni ogohlantiruvchi ham u.

Safar vodiysida musofirning oyog‘iga ko‘p dard-u balo tikanlari sanchiladi, lekin har qadalgan tikandan bir maqsad guli ochiladi. Yo‘l mashaqqati zarbidan kishining a‘zoyi badani qaqshaydi; vujudi yo‘lovchilar oyog‘i bilan toptaladi va har a‘zosi u oyoqlar ostida ushaladi. Ammo ko‘nglining vayronligi tuzaladi va ruhi ko‘zgusi ravshan tortib, jilo topadi.

Har o‘lkaning go‘zalligi, har manzilning osoyishtaligini safar-da yuruvchilardan so‘ra va musofirlardan eshit. Safar qilmagan orom olish farog‘atini qaydan bilsin? Musofirlik azobini chekma-gan vatandagi hayotning qadrini qaydan anglasin? Oqmaydigan dengiz suvini ichsa bo‘ladimi? Oqar daryoning zilol suvlaridan ichishni tark etsa bo‘ladimi?

Odam uchun doim harakatda bo‘lish hayotlikdan asardir; jonsiz mavjudotlar tiriklik nishonasidan bexabardir...

T a n b i h (110)

Yaxshi odamdan yomonlar ham yomonlik kutmas; yaxshi odam yomonlardan ham yaxshilikni ayamas.

Yaxshilik qila olmasang, yomonlik ham qilma. Yaxshilikni yomonlikdan yaxshiroq deb bilmasang, yomonroq deb ham bilma. Yaxshilik qilishni bilmasang, yaxshilarga qo‘shil; yax-shilik atrofida aylana olmasang, yaxshilar atrofida aylan.

## ALISHER NAVOIYNING HIKMATLI SO‘ZLARI VA «MAHBUB UL-QULUB» ASARI HAQIDA

Siz hazrat Alisher Navoiy ijodini qancha ko‘p o‘rgansangiz, shunchalik ko‘p ibrat, hayotiy saboq olasiz. Bular, o‘z navbatida, hayotingiz davomida juda asqatadigan, Sizni to‘g‘ri yo‘ldan borib, yaxshi inson bo‘lib yetishishingiz, obro‘-e‘tibor qozonishingizga ko‘maklashadigan saboqlardir.



**Ulug‘ mutafakkir bobomizning qay bir asarini olmaylik, unda insonning ma‘naviy tarbiyasi bilan bog‘liq biron fikr, hikmat uchramasdan qolmaydi. Hikmatli so‘z, pand-u o‘git Sharq adabiyotining qon-qoniga singib ketgan.**

Asli adabiyot so‘zidagi «adab» o‘zagining ma‘no-mazmuni odob ekanini yodga olsak, Sharqda badiiy ijod insonlarga pand-u o‘git, nasihat berishning ta‘sirli usuli bo‘lganini anglaymiz. Sharq adabiyoti ibratli voqealar, hikmatli so‘zlar vositasida kishilarni yuksak axloqli, ma‘naviy boy, komil inson etib tarbiyalashni o‘zining bosh maqsadi deb belgilagan. Alisher Navoiy bobomiz ham Sharq adabiyotining ana shu mohiyat-mazmuni, an‘analariga ko‘ra ijod etdi va turkiy xalqlar adabiyotini yuksak cho‘qqiga ko‘tardi. Shoirning g‘azal-u ruboiylari, muxammas-u qit‘alari hamda dostonlarida pand-u o‘git, hikmatlar badiiy obrazlar, qiyosiy o‘xshatishlar, qiziqarli sarguzashtlar bayoni orqali anglashiladi. «Mahbub ul-qulub» nomli asarida esa pand-nasihat, axloqiy qarashlar bosh mavzuga aylanib, bevosita – to‘g‘ridan to‘g‘ri ifoda etiladi, ularga har tomonlama ta‘rif berilib, falsafiy, axloqiy xulosalar chiqariladi.



**Mana shu mulohazalardan kelib chiqib «Mahbub ul-qulub» kabi asarlarni axloqiy-falsafiy yo‘sindagi pandnoma yoki nasihatnoma deb ataymiz.**

Turkiy va fors-tojik adabiyotida Alisher Navoiygacha xuddi shu janr va ko‘rinishdagi asarlar mavjud edi. Bunga Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig», Sa‘diy Sheroziyning «Guliston» va «Bo‘ston», Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston» asarlarini misol keltirish mumkin. Alisher Navoiy ham mazkur asarlarni chuqur o‘rganib, o‘sha an‘analar ruhida ijod etdi. Shoir bu asarni umri-ning oxirida – 1500-yilda yaratdi va uni «Mahbub ul-qulub», ya‘ni «Ko‘ngillarning sevgani» deb atadi. Bu nom bilan mazkur kitobda insonga xos eng ezgu fazilatlar, uni ma‘naviy barkamol etadigan, o‘zgalar qarshisida go‘zal, oliyjanob ko‘rsatadigan xislatlar jamlanganini anglatmoqchi bo‘ldi. Darhaqiqat, Alisher Navoiy ko‘zlagan maqsad nafaqat asar nomida, ayni chog‘da uning butun ma‘no-mazmunida, ta‘rif-u tafsilotlarida to‘la mujassamdir.

Ulug‘ bobomiz asarning kirish qismida quyidagilarni alohida ta‘kidlaydi:

«Bu xoksor va parishonro‘zgor kamina bolalikdan to qarilikka qadar ko‘hna davron voqealaridan, aylanuvchi osmon hodisalaridan, fitna qo‘zg‘ovchi dunyo buqalamunligidan – tovlamachiligidan, zamonaning rang singari gunogunligidan ko‘p vaqt va uzoq muddat har xil xayol va taraddudlar bilan daydib yurdim; har tovor va ravishda bo‘ldim va turli yo‘llarga kirdim, yaxshiyomonning xizmatini qildim; katta-kichikning suhbatida bo‘ldim; goh xorlik va qiyinchilik vayronasida nola qildim; goho izzat va ma‘murlik bo‘stonida majlis qurdim.

Masnaviy:

Gahi topdim falakdin notavonlig‘,  
Gahi ko‘rdum zamondin komronlig‘,  
Base issig‘, sovug‘ ko‘rdum zamonda,  
Base achchig‘, chuchuk totdim jahonda».



**Darhaqiqat, «Mahbub ul-qulub» asari oltmish yillik umri davomida hayotda ko‘rgan-kuzatganlarini teran tahlildan o‘tkazib, muayyan xulosalar chiqargan donishmand adibning kelgusi avlodlarga qoldirgan buyuk ma’naviy merosidir.**

Bu asar har bir odam umri davomida duch kelishi muqarrar bo‘lgan hayotiy savollarga eng to‘g‘ri javoblarni ta’sirli usulda berishi bilan yuksak qimmat kasb etadi. Buni Siz o‘qigan boblarning mazmun-mohiyati ham yaqqol ko‘rsatib turibdi.

Mutafakkir adib saxovat va himmatni insoniyat bog‘ining hosildor daraxti, u daraxtning foydali mevasi deb atar ekan, bunda mutlaqo mubolag‘a qilmaydi. Darhaqiqat, insonlar o‘rtasidagi munosabatlarda saxovatlilik, himmatlilik singari oliynob xislatlar yo‘qolgan kuni bu hayot daraxti qaqrab qurimog‘i turgan gap. Asarda oliyhimmat kishilar balandparvoz lochinga, behimmat kimsalar esa sichqon ovlovchi kalxatga o‘xshatilishi bejiz emas. Bunga qo‘shimcha, chinakam saxovatli va himmatli kishilarga minnat degan qusur mutlaqo yotdir.

Navoiyning bundan besh asr avval ilgari surgan g‘oyalari bugun ham o‘z dolzarbligi va ahamiyatini yo‘qotmay kelayotgani kishini hayratga soladi. Bu jihatdan shoirning isrof to‘g‘risidagi mulohazalari, ayniqsa, ibratli. «Isrof qilish saxiylik emas; o‘rinsiz sovrishni aqlli odamlar saxiylik demas. Halol molni kuydirganini devona deydilar; yorug‘ joyda sham yoqqanni aqldan begona deydilar. Maqtanish uchun mol bermoq – o‘zini ko‘z-ko‘z qilmoq va shunday qilib o‘zini «saxiy» demoq – behayolik bilan nom chiqarmoq. Kimki xalqqa ko‘rsatib ehson bersa, u pastkash, saxiy emas». Bugungi kunda o‘tkazilayotgan ayrim to‘y va boshqa marosimlarda inson peshona teri bilan yaratilgan nozne‘matlarning behisob uvol qilinayotganini, ularning egalari bu illatdan ko‘ra o‘z nomini chiqarmoqni ko‘proq o‘ylayotganlarini ko‘rganda Navoiyning bu iztiroblari beixtiyor yodga kelmaydimi?! Xuddi shunga o‘xshash mulohazalarni uning muloyim

tabiatlik, tilga e'tibor, safar fazilatlarini to'g'risidagi fikrlari borasida ham bemalol aytmoq mumkin.

Hazrat Navoiyning «Mahbub ul-qulub» asari, muallifning o'zi ta'kidlaganidek, uch qismga bo'linadi: birinchi qism har xil odamlarning fe'l-atvori va ahvoli haqida; ikkinchi qism yaxshi fe'l xosiyati va yomon xislat kasofati to'g'risida; uchinchi qism turli foydali kuzatishlar va misollar haqida.



### Savol va topshiriqlar

1. Sharqda adabiyot so'zining ma'no-mazmuni va undan ko'zlangan maqsad nima?
2. Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub» asari qanday an'analar asosida va nima maqsadda yaratilgan?
3. Alisher Navoiyga qadar shu yo'nalishda kimlar tomonidan qanday asarlar yaratilgan?
4. «Mahbub ul-qulub» iborasi qanday ma'noni anglatadi va u necha qismdan iborat?
5. Saxiylik va himmat tushunchalariga shoir qanday ta'rif beradi va qanday o'xshatishlar qo'llaydi?
6. «Saxiy» so'zi bilan «axiy» so'zining farqi haqida so'zlang va shunga oid o'z fikrlaringizni bildiring.
7. Asarning «Saxovat va himmat bobida»n kelib chiqib shu mavzularda sinfdoshlaringiz bilan suhbat quring.
8. Yaxshilik va hojat chiqarish deganda siz nimani tushunasiz?
9. «Hilm» – yumshoq ko'ngillik odamlar nima uchun e'tibor topadi, izzat-hurmat ko'radi?
10. O'z hayotingizda uchratgan yumshoq ko'ngilli insonlar haqida so'zlab bering.
11. Shoir «Tilga ixtiyorsiz – elga e'tiborsiz» degan hikmatli so'zlarni keltirganda nimalarni nazarda tutadi?
12. Mustaqillik yillarida ona tilimizga munosabat qanday bo'ldi va biz qaysi kuni «Davlat tili bayrami» sifatida nishonlaymiz?
13. Nima uchun yaxshi, rost so'z e'tiborli va qisqa bo'ladi? Asarda ko'tarilgan fikrlar va kuzatishlaringiz asosida o'sha hikmatni izohlang.
14. «Inson odobi bilan go'zal» degan mavzuda sinfingizda bahsmuloqot o'tkazing.

## MUHAMMADSHARIF GULXANIY

(XVIII asr oxiri – XIX asrning boshlari)

Muhammadsharif Gulxaniy XVIII asr oxiri – XIX asrning 20-yillarida Qo‘qonda yashab ijod qilgan mashhur masalnavis adib va hassos shoirdir. Jo‘shqin fe‘lligi va olovqalbligi tufayli o‘ziga Gulxaniy taxallusini tanlagan. Keyinchalik she‘rlarida Jur‘at taxallusini ham qo‘llagan.



**Bizgacha uning o‘zbek va tojik tillaridagi 12 g‘azali, Qo‘qon xoni Amir Umarxonga bag‘ishlangan 1 qasidasi va «Zarbulmasal» asari yetib kelgan.**

Gulxaniyning hayoti, asosan, Qo‘qon va Namanganda kechgan. U tirikchilik vajidan hammomda o‘t yoquvchi ham bo‘lgan, Qo‘qon xoni Amir Olimxon navkarlari safida xizmat ham qilgan (1801–1810-yillar). Mustaqil mutolaa yo‘li bilan mumtoz adabiyotni o‘qib o‘rgangan. Olimxon vafotidan keyin taxtga o‘tirgan Amir Umarxon (shoir Amiriy) Gulxaniyni saroy shoirlari davrasiga jalb etgan. U ko‘proq oddiy insonlarga manzur bo‘ladigan she‘rlar, hajviy asarlar bitgan.

Gulxaniy o‘zbek va tojik tillarida yaratgan «Barmog‘im», «Ey, to‘ti», «Lola ko‘ksidek bag‘rim...» singari g‘azallarda lirik qahramonning ruhiy kechinmalari ta’sirli ifoda etilgan. Uning «Bideh» (bergil, ber menga) radifli g‘azalida o‘zining navkarlik davridagi og‘ir hayoti tasvirlanadi. Mazkur asarda muallif katta ijtimoiy masalalarni – o‘z davrining harbiy tartibi, rasm-rusumlari, navkarlar hayotini ta’sirli misralarda bayon etgan. G‘azal-

ning lirik qahramoni obrazi umumlashma obraz darajasiga ko'tarilgan.

Gulxaniy o'zining noyob iste'dodi, xalq hayotini kuzatish orqali orttirgan tajribasi, turmushga haqqoniy qaray bilishi tufayli xalqchil ijodkor sifatida adabiyotimiz tarixidan munosib o'rin egallagan. Uning ijodiy merosi hajman katta bo'lmasa-da, XIX asr o'zbek milliy adabiyoti rivojiga samarali ta'sir ko'rsatgan.

### «ZARBULMASAL»

O'z davri voqeligini badiiy ifoda etgan tanqidiy-hajviy yo'nalishdagi «Zarbulmasal» asari Gulxaniyga katta shuhrat keltirdi. Unda hayotning dolzarb muammolari, turli odamlar o'rtasidagi munosabatlar, xalq turmush tarzi va udumlari haqida majoziy uslubda so'z yuritiladi. Insonga xos xususiyatlar boshqa jonli va jonsiz narsalarga ko'chirib tasvirlangan asarlar majoziy asar deyiladi. Gulxaniy ham, qizim, senga aytaman, kelinim, sen eshit, qabilida qushlar misolida o'z davri voqeligi manzaralarini tasvirlaydi. Toj-u taxt talashlari, urushlar natijasida yurt vayron, xalq xarob bo'lgan. O'sha davrda Buxoro va Qo'qon xonliklari o'zaro urushib yurganlari uchun ham asarda Buxoro go'yoki vayronalarga boy muzofot sifatida tasvirlanadi. Qo'qon ham undan obod emas edi. Adib aytmoqchi, xonning atrofini Boyo'g'li, Yapaloqqush, Ko'rqush, Kordon, Kulonkir sulton kabi yomon amaldorlar o'rab olgan. «Holo, bu turg'onlaring navola<sup>1</sup> do'stlari, piyola hariflari<sup>2</sup>, taom yemakka hozir, maslahatga aqli qosir<sup>3</sup>». Bu ketishda mamlakat vayronaga, shoh uning ustidagi Boyo'g'liga aylanib qolishi hech gap emas. Gulxaniyning yirtqich va aksar tunda ov qiladigan qushlarni o'z asariga qahramon qilib olishida nozik ishora mavjud. Shuning uchun Ko'rqush tilidan quyidagicha nasihat qilinadi: «Ulug'ni borgohinda<sup>4</sup>

<sup>1</sup> **Navola** – in'om, ehson; taom, luqma.

<sup>2</sup> **Piyola hariflari** – qadah, ulfatchilik do'stlari.

<sup>3</sup> **Qosir** – qisqa; ojiz.

<sup>4</sup> **Borgoh** – shoh qabulxonasi, saroy.



xiradmandi<sup>1</sup> donish<sup>2</sup> va aqli xiradi bohush<sup>3</sup> har qancha ko‘b bo‘lsa ham, oz bo‘lur. Xususan, podshohi odilg‘a uch toifadin guzir<sup>4</sup> yo‘qdur: avval, olimi boamalki<sup>5</sup>, podshohning oxiratlik asbobini<sup>6</sup> taraddudida bo‘lsa. Ikkinchi vaziri sohibi ra‘yki<sup>7</sup>, podshohning dunyolik yarog‘ini taraddudida bo‘lsa. Uchunchi, munshiyi<sup>8</sup> rostnavis<sup>9</sup>, qalamzan-u<sup>10</sup> nigohdor-u<sup>11</sup> shamshirzan<sup>12</sup> bo‘lsa».

«Zarbulmasal» arabcha *zarb* va *masal* so‘zlarining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan bo‘lib, «masallar yig‘indisi» ma’nosini beradi. *Masal* so‘zi o‘tmishda biz hozir qo‘llaydigan *maqol* ma’nosida ishlatilgan. Zarbulmasal so‘zga maqol qo‘shib gapirish, o‘xshashi va dalilini keltirish ma’nolarini ham anglatadi. Zarbulmasal bo‘lish – el og‘ziga tushish, afsona bo‘lish, mashhur bo‘lish ma’nolarida ham keladi. Bundan ma’lum bo‘ladiki, Gulxaniy o‘z davri va zamondoshlarini asarda zarbulmasal qilgan.

Asar qahramonlari o‘z nutqlarida vaziyatga mos ko‘plab maqollarni keltiradilar, to‘g‘rirog‘i, maqollar yordamida gapiradilar. Shu bilan birga, ular bir-birlariga turli masal va hikoyatlarni aytib beradilar.

«Zarbulmasal»da 400 ga yaqin maqol, matal, naql va 15 dan ortiq katta-kichik masal va hikoyat mavjud. Bu muallifning xalq hayoti, turmush tarzi, an‘ana va marosimlari, og‘zaki va yozma adabiyotini chuqur bilganidan dalolat beradi. U mashhur hind eposi «Kalila va Dimna», Abdurahmon Jomiyning «Silsilat uz-zahab» asarlaridan xabardor bo‘lgan. Sa’diy Sheroziy, Hofiz She-

---

<sup>1</sup> **Xiradmand** – oqil, dono, donishmand.

<sup>2</sup> **Donish** – ilm, ma’rifat; aql, idrok.

<sup>3</sup> **Bohush** – es-hushli.

<sup>4</sup> **Guzir** – biror narsadan xalos bo‘lish.

<sup>5</sup> **Olimi boamal** – ilmiga amal qiladigan olim.

<sup>6</sup> **Oxirat asbobi** – oxirat uchun zarur amallar.

<sup>7</sup> **Sohibi ra’y** – aql-u tadbir egasi.

<sup>8</sup> **Munshiy** – kotib.

<sup>9</sup> **Rostnavis** – haqiqatni yozadigan.

<sup>10</sup> **Qalamzan** – kotib.

<sup>11</sup> **Nigohdor** – nazorat qiluvchi.

<sup>12</sup> **Shamshirzan** – shamshir uruvchi. Bu yerda: yozishga usta ma’nosida.

roziy, Xusrav Dehlaviy, Alisher Navoiy, So‘fi Olloyor kabi ulug‘ so‘z ustalari hikmatlaridan ham mahorat bilan foydalangan. Bularning barchasi asarning ta’sirchanligi va o‘qishligini oshirgan.

«Zarbulmasal» xalq orasida «Yapaloqqush hikoyasi» nomi bilan mashhur bo‘lib, qissaxonlik kechalarida uni eshitgan shina-vandalar asarning chuqur hayotiy mazmuniga qoyil qolishgan.

Aziz o‘quvchilar! Sizning yoshingiz, bilim darajangiz, dunyo-qarashingizni hisobga olib «Zarbulmasal»dan olingan bir necha ibratli masal va hikoyatlarni e’tiboringizga havola qildik. Voqealar ortidan quvmay ularning mazmuniga sinchiklab nazar soling, muallifning bu masal yoki hikoyat orqali nima demoqchi ekaniga diqqat qiling. Shu narsani yodda tutingki, shoir yoki yozuvchi biror voqea-hodisani shunchaki bayon qilib qo‘ya qolmaydi. Voqea-hodisa – ijodkorlarga o‘z badiiy maqsadini amalga oshirish uchun bir vosita, xolos. «Maymun va Najjor» masali orqali qo‘lidan kelmagan ishga uringan kishi, albatta, sharmanda bo‘ladi degan fikr ilgari surilgan. «Toshbaqa va Chayon» masalida esa do‘st tanlashda adashmaslik kerakligiga e’tibor qaratiladi. «Tuya bilan bo‘taloq» masalida erki o‘zida bo‘lmagan kishining fojiasi ko‘rsatiladi va hokazo.

## KABUTAR<sup>1</sup> BILAN ZOG‘<sup>2</sup>

Hakimi hoziq<sup>3</sup> bir gulistoni ruhafzog‘a<sup>4</sup> doxil bo‘ldi. Ko‘rdiki, bir shox uzasinda Kabutar ila Zog‘ nishast qilib<sup>5</sup> o‘lturubdur. Ikkisi bir-biriga vahshat bila nazar qilur<sup>6</sup>, ulfati baror kelmas<sup>7</sup>. Shul asnoda<sup>8</sup> mehmonsaroni<sup>9</sup> oldida bir

---

<sup>1</sup> **Kabutar** – kaptar.

<sup>2</sup> **Zog‘** – qarg‘a.

<sup>3</sup> **Hakimi hoziq** – bilimdon tabib.

<sup>4</sup> **Ruhafzo** – ruhni yayratuvchi, ko‘ngilni quvontiruvchi, jonbaxsh.

<sup>5</sup> **Nishast qilib** – qaror topib, maqom tutib.

<sup>6</sup> **Nazar qilur** – qarash, nazar solish.

<sup>7</sup> **Baror kelmas** – mos, muvofiq kelmas.

<sup>8</sup> **Asno** – vaqt, payt, holat.

<sup>9</sup> **Mehmonsaro** – mehmonxonona.

jo‘y<sup>1</sup> bor erdi – ikkisi suv ichmoqqa qasd qildi. Mehmonsaroni ichida bir rustoiy<sup>2</sup> azbaroyi<sup>3</sup> sayd<sup>4</sup> o‘qin sozlab, muntazir o‘lturub erdi. Zog‘ daraxtdan parvoz qilib, eshikni to‘g‘risig‘a tushdi. Zog‘din rustoiy o‘qin otib o‘tkardi, qushig‘a yem qildi. Kabutar parvoz qilib, sihat<sup>5</sup> ketti. Agar Zog‘ o‘z jinsi birla sahroda va yo juvaripoyada<sup>6</sup> va yo eski xirmanlarda yursa erdi, o‘q zaxmini<sup>7</sup> yeb, qushg‘a yem bo‘lmas erdi.

### MAYMUN BILAN NAJJOR<sup>8</sup>

Bor edi Kashmir<sup>9</sup> navohinda<sup>10</sup> tog‘,  
Bog‘i Eram<sup>11</sup> rashkdin ko‘ksida dog‘.

Anda imoratga yaroqliq yag‘och,  
Yetti quloch bo‘yi, eniga – quloch.

Bor edi cho‘x<sup>12</sup> ne‘mati alvonlari<sup>13</sup>,  
Xurram-u ma‘mur<sup>14</sup> edi hayvonlari.

Zulf<sup>15</sup> kabi sunbuli<sup>16</sup> xushbo‘lari,  
Rohatijon erdi oqar suvlari.

---

<sup>1</sup> **Jo‘y** – ariq, anhor, oqar suv.

<sup>2</sup> **Rustoiy** – qishloqi; majozan: nodon, ahmoq.

<sup>3</sup> **Azbaroyi** – uchun, sababli.

<sup>4</sup> **Sayd** – ov.

<sup>5</sup> **Sihtat** – sog‘-omon.

<sup>6</sup> **Juvaripoya** – jo‘xorizor.

<sup>7</sup> **Zaxm** – zarb, jarohat.

<sup>8</sup> **Najjor** – duradgor, imorat yasovchi usta.

<sup>9</sup> **Kashmir** – Shimoliy Hindistondagi voha va shahar.

<sup>10</sup> **Navohin** – atrof, tevarak, chegara.

<sup>11</sup> **Bog‘i Eram** – afsonaviy jannat bog‘i.

<sup>12</sup> **Cho‘x** – ko‘p.

<sup>13</sup> **Alvon** – rang-barang, turli-tuman.

<sup>14</sup> **Ma‘mur** – obod, farovon; bu yerda: to‘q.

<sup>15</sup> **Zulf** – soch.

<sup>16</sup> **Sunbul** – xushbo‘y va gullari halqa-halqa giyoh. Qizlarning sochiga nisbat beradilar.

Uydin ulug‘roq<sup>1</sup> edi bir gulbune<sup>2</sup>,  
Anda vatan tutmish edi Maymune.

Jon sonub<sup>3</sup> o‘zni, uyin aytardi tan,  
O‘qur edi qissayi «hubbul vatan»<sup>4</sup>.

Yer edi ko‘ngli tilagan mevasin,  
Boshlar edi odamilik shevasin<sup>5</sup>.

Bir kuni najjori xiradmandi fard<sup>6</sup>,  
Ko‘ngli yag‘och yo‘qligidan qildi dard<sup>7</sup>.

Uylaki, nav<sup>8</sup> kissalarin qistari,  
Rasm edi najjor yag‘och istari.

Egdi kulah<sup>9</sup> go‘shasini<sup>10</sup> farrasin<sup>11</sup>,  
Belga suqub teshasi-yu arrasin.

Bordi o‘shal toqg‘a – mavquf<sup>12</sup> edi,  
Ezgu yag‘ochlar anga ma‘ruf<sup>13</sup> edi.

Shahrni zindonidin ozod o‘lib,  
Tog‘ni Shiriniga Farhod o‘lib.<sup>14</sup>

---

<sup>1</sup> **Ulug‘** – bu yerda: katta.

<sup>2</sup> **Gulbun** – gul tupi.

<sup>3</sup> **Sonmoq** – bilmoq, hisoblamoq.

<sup>4</sup> **Hubbul vatan** – vatan muhabbati.

<sup>5</sup> **Sheva** – odat, ravish; hunar.

<sup>6</sup> **Fard** – yakka, yagona.

<sup>7</sup> **Dard qilmoq** – bu yerda: tashvishga tushmoq.

<sup>8</sup> **Nav** – yangi.

<sup>9</sup> **Kulah** – bosh kiyim.

<sup>10</sup> **Go‘sha** – chet, chekka, burchak.

<sup>11</sup> **Farr** – go‘zallik; dabdaba, hashamat.

<sup>12</sup> **Mavquf** – to‘xtash; tegishli.

<sup>13</sup> **Ma‘ruf** – ma‘lum, mashhur.

<sup>14</sup> Bu yerda «Farhod va Shirin» dostoniga ishora qilinmoqda.

Sonur edi o‘zini tog‘ xisravi<sup>1</sup>,  
Tog‘ni uqub Dehlavii ma‘navi(y)<sup>2</sup>.

Borib anga, kesti yag‘och reshasin<sup>3</sup>,  
Qo‘ydi u yerda unutib teshasin.

Bordi yana – kesti bo‘lak bir yag‘och,  
Yormog‘ini fikriga qildi iloj.

Bolta bilan bir uchini yordi ul,  
Pona qo‘yub, tesha sari bordi ul.

Tushti banogah<sup>4</sup> anga Maymun ko‘zi,  
Oqil-u dono sonub ul dam o‘zi(n).

Aydi: «Ulus<sup>5</sup> ichra bu bir kasb erur,  
«Kasb»ni kessang boshini, «sab»<sup>6</sup> erur.

Kissayi purzar<sup>7</sup> emish elga hunar,  
Behunar elni o‘xiyur<sup>8</sup> (rishi)<sup>9</sup> xar<sup>10</sup>.

Man dog‘i najjorlig‘in<sup>11</sup> o‘rganay,  
Zuryalarim<sup>12</sup> barchasig‘a o‘rgatay.

Jahd qilib turdi ravon borg‘ali,  
Ya‘ni yag‘och qolmishini yorg‘ali.

---

<sup>1</sup> **Xisrav** – podshoh, hukmdor.

<sup>2</sup> Bu yerda buyuk shoir Xusrav Dehlaviy nomi vositasida so‘z o‘yini qilinmoqda: o‘zini tog‘ xisravi (podshohi), tog‘ni esa ma‘naviy jihatdan (Xusrav) Dehlavii ma‘naviy hisoblar edi, ya‘ni duradgor uchun tog‘ Xusrav Dehlaviy kitobiga o‘xshar edi.

<sup>3</sup> **Resha** – ildiz, tomir.

<sup>4</sup> **Banogah** – kutilmaganda, daf‘atan.

<sup>5</sup> **Ulus** – xalq, el.

<sup>6</sup> Bu yerda arab yozuvi asosida so‘z o‘yini qilingan: «kasb» so‘zining bosh harfi o‘chirilsa, «sab» qoladi. **Sa‘b** – qiyin, og‘ir degani.

<sup>7</sup> **Purzar** – bu yerda: pulga to‘la.

<sup>8</sup> **O‘xiyur** – aytadilar, hisoblaydilar.

<sup>9</sup> **Rish** – soqol.

<sup>10</sup> **Xar** – eshak.

<sup>11</sup> **Najjorlig‘** – duradgorlik, ustalik.

<sup>12</sup> **Zurya** – bu yerda: zurriyod, avlod.

Bar sari on cho‘bi kafida rasid,  
Kibri hunar didu kaduro nadid.<sup>1</sup>

Mindi yag‘och ustuga najjordek,  
Kosibi purkardau<sup>2</sup> purkordek<sup>3</sup>.

Ketti hunar shavqi bila g‘ussasi,  
Tushti yag‘och ayrisiga xossasi<sup>4</sup>.

Bas, keynidin bo‘ldi tutulmog‘lig‘i,  
Mumkin emas bo‘ldi qutulmoqlig‘i.

Odamini jinsida yo‘q qissasi,  
Qoldi ani xossasini hissasi.

### TUYA BILAN BO‘TALOQ

Bor edi Farg‘onada bir sorbon<sup>5</sup>,  
Tevasi<sup>6</sup> bor erdi, tug‘ub nogahon.

Ahli ayoli<sup>7</sup> ani bor erdi cho‘x,  
Ozuqadin kulbasida narsa yo‘x.

Hosili dunyo<sup>8</sup> edi bir tevasi,  
Emadig‘on orqasidin bo‘tasi.

Bir kuni u tevasini qo‘mladi<sup>9</sup>,  
Ortadig‘on yuklarini jo‘mladi<sup>10</sup>.

---

<sup>1</sup> «Yorib qo‘yilgan yog‘och yoniga bordi-yu, hunar o‘rganish shavqi bilan bo‘lib, orqasida turgan baloni ko‘rmadi».

<sup>2</sup> **Purkarda** – tajribali, ko‘pni ko‘rgan.

<sup>3</sup> **Purkor** – tajribali, ko‘pni ko‘rgan, ishchan.

<sup>4</sup> **Xossa** – biron narsaga tegishli, taalluqli. Bu yerda maymunning dumi ma‘nosida kelyapti.

<sup>5</sup> **Sorbon** – tuyachi, tuya yetaklovchi.

<sup>6</sup> **Teva** – tuya.

<sup>7</sup> **Ahli ayol** – bola-chaqa.

<sup>8</sup> **Hosili dunyo** – dunyoda orttirgan narsasi, ishongan boyligi.

<sup>9</sup> **Qo‘mladi** – cho‘ktirdi.

<sup>10</sup> **Jo‘mladi** – jamladi.

Yuklari erdi og‘ir-u yo‘l yiroq,  
O‘rtadi tayloqini<sup>1</sup> nori firoq<sup>2</sup>.

Fasli tamuz<sup>3</sup> erdi, havo cho‘x isig‘,  
Yo‘lda temurdek edi, qumlar qiziq.

Och o‘tina kuydi anodin<sup>4</sup> judo,  
Modarini<sup>5</sup> mehrida erdi ado.

Jahd ila yetmay anosin keynidin,  
Qumda kuyardi g‘ami ul siynadin<sup>6</sup>.

Og‘di yuki yo‘lda o‘shal sorbon,  
Yerga cho‘kurdi tuzatay deb ravon.

Qoldi horib anosi arqosidin<sup>7</sup>,  
Yondi haroratlari yag‘mosidin<sup>8</sup>.

Yuzlanib aytdi: «Ayo, berahm enam,  
Kuydi-yu, yondi-yu, tutashti tanam.

Asta yurusang na bo‘lur, man yetay,  
Tashna bo‘lub hordim-u qoldim, emay».

Aydi anosi balosig‘a<sup>9</sup> boqib,  
Ko‘zlarini yoshlari suvdek oqib:

«Ko‘rki, burunduq kishini qo‘lida,  
Bu kishini ko‘zlari o‘z yo‘lida.

Manda agar zarra kabi ixtiyor –  
Bo‘lsa edi, bo‘lmas edim zeri bor<sup>10</sup>».

---

<sup>1</sup> **Tayloq** – bu yerda bo‘taloq.

<sup>2</sup> **Nori firoq** – ayriliq azobi.

<sup>3</sup> **Tamuz** – yoz, saraton.

<sup>4</sup> **Ano** – ona.

<sup>5</sup> **Modar** – ona.

<sup>6</sup> **Siyna** – bu yerda ona ko‘kragi.

<sup>7</sup> **Arqosidin** – orqasidan.

<sup>8</sup> **Yag‘mo** – talon-taroj. Bu yerda issiq azobi ko‘zda tutilmoqda.

<sup>9</sup> **Balo** – bola.

<sup>10</sup> **Zeri bor** – yuk ostida (qolmoq).

## TOSHBAQA BILAN CHAYON

Yaxshilar andog‘ aytmishlarki, Sangpusht<sup>1</sup> Iroqdin Hijozga borur erdi. Bir Chayon anga yo‘ldosh bo‘ldi. Ikisi ketib borur erdi, ammo Sangpusht bag‘oyat<sup>2</sup> sohibifahm – farosatlik erdi, toinki cho‘x safarlarda yaxshi-yamonlar birla yurub, ko‘b tajribalar hosil qilg‘on erdi. Ammo Chayonga inon-ixtiyorini verub<sup>3</sup>, bodiyalar<sup>4</sup> qat’ edub<sup>5</sup> borur erdi. Shul orada banogoh bir nahri azim<sup>6</sup> paydo bo‘ldi. Ikisi o‘tmoqqa qasd qildilar. Sangpusht birla Chayon o‘tmoqqa yo‘l topmay, tafakkur yog‘ochi anga ko‘pruk bo‘lurg‘a ojiz va tadbir qamuchi sol bo‘lurg‘a nobudu nochiz<sup>7</sup>. Oxir ul-amr<sup>8</sup> Sangpusht mustajobi da‘vadek<sup>9</sup> murod hadafiga<sup>10</sup> maqrun<sup>11</sup> o‘lub, shinovarlik<sup>12</sup> birla muddao istid’osi<sup>13</sup> sohiliga o‘zini oldi, nori yoqig‘a o‘tub, qoz-u<sup>14</sup> o‘rdakdek silkinib turdi. Banogoh orqasiga boqti, ko‘rdiki, yo‘ldoshi ni oti horug‘on, poyluchchak tag‘olardek nayzasini kiftiga tashlab, yuqori va quyi yurur erdi.<sup>15</sup> Anda Sangpusht aydiki:

– Mo‘jib<sup>16</sup> nadur – buyon o‘tmaysiz?

Kajdum<sup>17</sup> aydi:

---

<sup>1</sup> **Sangpusht** – toshbaqa.

<sup>2</sup> **Bag‘oyat** – g‘oyatda, juda, nihoyatda.

<sup>3</sup> **Verub** – berib.

<sup>4</sup> **Bodiya** – cho‘l, dasht, biyobon, sahro.

<sup>5</sup> **Qat’ edub** – bosib o‘tib.

<sup>6</sup> **Nahri azim** – katta daryo.

<sup>7</sup> Tafakkur kuchi bunga ko‘prik va tadbir qamishi sol (kema) bo‘lishga ojiz.

<sup>8</sup> **Oxir ul-amr** – nihoyat, oqibatda.

<sup>9</sup> **Mustajobi da‘va** – duosi qabul bo‘ladigan.

<sup>10</sup> **Hadaf** – nishon.

<sup>11</sup> **Maqrun** – yaqin.

<sup>12</sup> **Shinovar** – suzuvchi.

<sup>13</sup> **Istid’o** – iltimos, so‘rash, yalinib-yolvorish.

<sup>14</sup> **Qoz** – g‘oz.

<sup>15</sup> Bu yerda Chayonning suvdan qo‘rqib, nayzasini kiftiga tashlab, yuqori va quyi yurishi qurolini yelkasiga osib, oyoqyalang u yoqdan bu yoqqa yuruvchi posbonga o‘xshatilyapti.

<sup>16</sup> **Mo‘jib** – sabab.

<sup>17</sup> **Kajdum** – chayon.



– Ko‘zyoshicha suv bo‘lsa, bizga ma‘zur tutung.

Sangpusht aydi: «Yo‘ldosh bo‘lmoq sharti bul ermashki, oz hodisa birla hamrohliq rasmini bartaraf qilsam. Avloroq<sup>1</sup> uldurki, tag‘oni o‘tkarib qo‘ysam, yaxshi bo‘lur. Burung‘ilar masalidurki: «Yaxshiliq qil, suvg‘a sol, baliq bilur, baliq bilmasa, Xoliq<sup>2</sup> bilur». Anda Sangpusht hutchav yag‘ochini qo‘lg‘a olib<sup>3</sup>, oz harakat birla najot sohilig‘a o‘zini oldi. Aydi:

– Ey birodar, sani daryodan o‘tkazgali o‘g‘radim<sup>4</sup>. Mani ustingga mingil va lekin bejo harakat qilmag‘ilki, o‘z joningga jabr qilursan.

Anda Chayon aydi:

– Har kim o‘z maslahatini o‘zi bilur.

Andin so‘ng Sangpushtni orqasig‘a mindi. Daryog‘a tushib oqdilar. Zamonedin so‘ng Chayoni mazkur tebrana berdi. Sangpusht aydi:

– Bul bejo harakatdin muddao nimadur?

Chayon aydi:

– Bu kun maydoningni vase‘<sup>5</sup> topdim. Burung‘i yaxshilar: «Eshak o‘yuni qirq yilda va yana it o‘yuni bor anda», – debdurlar. Bul fo‘lod<sup>6</sup> nayzamni yakjirma qalqoningga<sup>7</sup> ozmoyish<sup>8</sup> qiloyin derman.

Anda Sangpusht aydi: «G‘olibo uldurki: «O‘z do‘sti dilin resh<sup>9</sup> aylayur jahldinkim, ul urur o‘z mushtini devorg‘a!» Anda Sangpusht aydi:

---

<sup>1</sup> **Avlo** – yaxshi, afzal.

<sup>2</sup> **Xoliq** – Yaratuvchi, Xudo.

<sup>3</sup> Suvga suzishga hozirlanib.

<sup>4</sup> **O‘g‘ramoq** – yo‘l olmoq, mo‘ljallamoq.

<sup>5</sup> **Vase‘** – keng.

<sup>6</sup> **Fo‘lod** – po‘lat; o‘tkir, tez.

<sup>7</sup> **Yakjirma qalqon** – toshbaqaning yaxlit kosasi.

<sup>8</sup> **Ozmoyish** – sinash, imtihon.

<sup>9</sup> **Resh** – yara, jarohat.

– Sani bu xorsifat<sup>1</sup> nayzayi bemajoling<sup>2</sup> mani bu yakjirma qalqoning‘a ne kor<sup>3</sup> qilsin?

Anda Chayon aydi:

– Bilganing yo‘qmuki, aqrabni<sup>4</sup> muddaosi nish urmoqdur xoh do‘st ko‘ksina va xoh dushman orqasina!

Qit‘a:

Har kimi odati zamima<sup>5</sup> bo‘lur,  
Beirodat<sup>6</sup> zuhur etar<sup>7</sup> andin.  
Toshdin nish<sup>8</sup> ayari yo‘q aqrab,  
Garchi mundoq demak ajab sandin.

Anda Sangpusht aydi:

– Ishonmagil do‘stingg‘a, samon tiqar po‘stingg‘a. «Oshnongdin tob» debdurlar. Ey do‘stum, suv uzra jasadimiz xasdek yurmagi tokay? Bu bahri<sup>9</sup> amiq<sup>10</sup> javohirlarin tamosho qilmoq kerak, – deb g‘avvoslardek<sup>11</sup> bir g‘o‘ta<sup>12</sup> urdikim, ul javohir termogda qoldi va bul jon bermog‘da qoldi.

## N a q l

...Ibrohimbek... bog‘inda tab‘i tund<sup>13</sup>, lavand<sup>14</sup> bir bog‘boni bor erdi. Ani bog‘boni o‘zini bog‘bone sonub, olti tub daraxtni ho‘l shoxini quruq shoxiga payvand qilur erdi va yana bu aql-ufarosati birla o‘zini olamni bog‘bonidek sobit qadam olur erdi.

---

<sup>1</sup> **Xorsifat** – tikanga o‘xshash.

<sup>2</sup> **Bemajol** – ojiz, kuchsiz.

<sup>3</sup> **Kor** – bu yerda: ta‘sir.

<sup>4</sup> **Aqrab** – chayon.

<sup>5</sup> **Zamima** – yomon, yaramas.

<sup>6</sup> **Beirodat** – beixtiyor.

<sup>7</sup> **Zuhur etish** – ko‘rinish, namoyon bo‘lish.

<sup>8</sup> **Nish** – zaharli jonivorlarning chaqish a‘zosi.

<sup>9</sup> **Bahr** – ummon, dengiz.

<sup>10</sup> **Amiq** – chuqur, teran.

<sup>11</sup> **G‘avvos** – suvga sho‘ng‘uvchi.

<sup>12</sup> **G‘o‘ta urish** – suvga sho‘ng‘ish.

<sup>13</sup> **Tund** – tez, g‘azabli.

<sup>14</sup> **Lavand** – yalqov, tanbal, dangasa, bo‘shang.

## N a q l

...bir odam yaxshi ko'rgan to'ppisini<sup>1</sup> tez suvga oqizib, harchand taraddud bila ololmadi. Mahrum bo'lub qaytur erdiki:

– Yo'qolg'oni ham xo'b bo'ldi<sup>2</sup>, boshimg'a ham tor kelur erdi, – deb.

## N a q l

...zangi<sup>3</sup> yo'l uzasidin bir oyina topib oldi. Oyinada o'zini aksi nomu-borakini ko'rub, oyinani yerga urub, anga necha ayblar qo'yub, aytur erdiki:

– Bul o'zi yaxshi mato' bo'lsa, yo'l uzra yoturmidi?!

## YODGOR PO'STINDO'Z

Odamizod arosinda Yodgor otlig' bir odam bor erdi. Goho o'zini o'tkir so'fiy<sup>4</sup> ot qo'yar, goho mirishkori<sup>5</sup> hushyor va donishmandi ro'zgor olib aytur erdiki:

– O'n yoshimda hazrati Nuh payg'ambarni obi azobda<sup>6</sup> qolg'onlarida kemalarin itorib, boham<sup>7</sup> erdim.

Va yana aytur erdiki:

– Andog' ham ermas. O'n besh yoshimda hazrati Ibrohim alayhissalomni kofirlar manjanaqqa<sup>8</sup> solib o'tga otarda bir poyasinda<sup>9</sup> hozir erdim.

Boz aytur erdiki:

---

<sup>1</sup> **To'ppi** – do'ppi.

<sup>2</sup> **Xo'b bo'ldi** – yaxshi bo'ldi.

<sup>3</sup> **Zangi** – qora tanli, habash, negr.

<sup>4</sup> **So'fiy** – tasavvuf tariqati namoyandasi.

<sup>5</sup> **Mirishkor** – o'z ishining ustasi.

<sup>6</sup> **Obi azob** – azob suvi. Bu yerda: Nuh davridagi to'fon ko'zda tutilmoqda.

<sup>7</sup> **Boham** – birga.

<sup>8</sup> **Manjanaq** – palaxmon.

<sup>9</sup> **Poya** – joy.

– Andog‘ ham ermas. Yigirma besh yoshimda hazrati sultoni orifin<sup>1</sup> Xoja Ahmad Yassaviy xonaqohlarin<sup>2</sup> obod qilurda loy tepib, xisht bergan man erdim.

Ul yerda o‘lturg‘on yor-jo‘ralari aytur erdiki:

– Ey Yodgor aka, rost naql qiling...

Aytur erdiki:

– Qul Muhammad Bahodirdin bo‘lagini bilsam, Xudo ursun!

Yodgorning po‘stin tikkanin ko‘rsangiz, chokidin barmoq o‘tar erdi. Bozorga olib chiqsa, xaridorlar barmog‘ini chokiga suqub, aytur erdiki:

– Bu na tikish?

Ul javob berurki:

– Musht o‘tmasa, xo‘b tikish!

O‘zi din, ilmi sunnatga<sup>3</sup> amri ma‘ruf<sup>4</sup> qilg‘uchi erdi, to onki tahoratda qo‘l-oyoqni bandig‘acha yuvmog‘ni farz<sup>5</sup>-sunnat ekanin bilmay, uch angushtni<sup>6</sup> birin yuvub, ikkisini yuvmay qo‘yar erdi.

### «ZARBULMASAL» ASARI HAQIDA

Ta‘kidlanganidek, zarbulmasal masallar yig‘indisi demakdir.



***Masal so‘zi bir vaqtlar maqol qo‘shib gapirish, o‘xshatishlar qilish, dalil keltirish ma‘nolarini ham anglatadi.***

Zarbulmasalda u yoki bu hikoya tarkibida, ularning xulosasi o‘rnida maqol, matallar keltiriladi. Zarbulmasal adabiyotimiz

<sup>1</sup> **Sultoni orifin** – oriflar sultoni. **Orif** – ma‘rifat sohibi, Ollohni tanigan kishi, komil inson.

<sup>2</sup> **Xonaqoh** – so‘fiylar yig‘iladigan, zikr tushadigan joy.

<sup>3</sup> **Sunnat** – yo‘l, ravish, odam. Muhammad alayhissalomning yo‘li va qilgan ishlari.

<sup>4</sup> **Amri ma‘ruf** – savob ishlarga da‘vat qilish.

<sup>5</sup> **Farz** – bajarilishi zarur bo‘lgan ish.

<sup>6</sup> **Angusht** – barmoq.

tarixida o'ziga xos ta'sirchan adabiy janr sifatida yashab kelgan. Zarbulmasal ko'proq axloqiy-ta'limiy hikoyalardan iborat bo'lib, maqol, matallar, ularning tarbiyaviy xulosasini o'zida mujassam etadi. Bu janrdagi asarlarning asosiy xususiyati ularda majoziy usul qo'llanilishi, ya'ni voqea va hodisalar hayvonlar, qushlar tili-dan hikoya qilinishini bilib oldingiz. Asarlarning mualliflari tan-qid qilinajak kishilar ta'qibidan cho'chib shu usulni qo'llaganlar.



**Gulxaniyning «Zarbulmasal» asarida ham garchi Buxoro, Qo'qon singari joy nomlari aniq ko'rsatilsa-da, u yerlarni boshqargan hukmdorlar, turli darajadagi zodagonlar fe'l-atvori qushlar timsolida ifoda etiladi.**

«Zarbulmasal» tarkibidagi mashhur masallardan biri «Maymun bilan Najjor» masali hisoblanadi. Bu masalda tasvir-lanishicha, Hindistonning Kashmir viloyati atrofidagi tog'da bir maymun rohat-farog'atda, o'rmondagi daraxtlarning behisob mevalaridan xohlaganicha totinib, umrguzaronlik qilar edi. Nogoh bu tog' o'rmoniga bir najjor, ya'ni duradgor yog'och kesish uchun keladi. U bir daraxtni kesib, boshqasiga ketar ekan, u joyda teshasini unutib qoldiradi. Najjorning yumushini kuzatib turgan maymunga uning hunari oddiy bir ishdek tu-yuladi. Xayoliga keladiki, bu ishni o'zi qoyillatib, kelgusi avlod-lariga ham osongina o'rgatib qo'ysa. Najjorning yo'qligidan foydalangan maymun chala qolgan daraxtni kesmoq uchun uning ustiga minib, ishni o'zicha davom ettiradi. Shunda daraxt tanasi orasiga qistirilgan pona chiqib ketib maymunning dumini qisib qoladi. Jon holatda bu ahvoldan qutulmoqni istagan may-mun dumining bir qismi daraxt orasida qolib ketadi.

Harqalay, shoir bu masal orqali aytmoqchi bo'lgan fikrni angladingiz. Har qanday hunarning o'ziga xos sir-u sinoati, yillar davomida o'zlashtiriladigan nozik jihatlari bo'lishini ang-lamaguncha kishi biror natijaga erishishi mumkin emasligi

ma'lum, albatta. Ustoz ko'rmagan shogird har maqomga yo'rg'alar deganlaridek, masaldagi o'zbilarmon maymun ham ayanchli, ham kulgili holga tushadi. Hamma zamonlarda bo'lgani singari, Gulxaniy zamonida ham qo'lidan kelmagan ishga urinib dovruq topmoqchi bo'lgan, natijada ham o'zini, ham xalqni qiynaydigan turli darajadagi kishilar ko'plab uchragan. Mazkur masalni mana shunday kishilarga nisbatan shoirning achchiq kinoyasi, xolis bahosi deb tushunish to'g'ri bo'ladi.



### *Savol va topshiriqlar*

1. Gulxaniy haqida bilganlaringizni gapirib bering.
2. «Kabutar bilan Zog'» hikoyatidan qanday ma'no uqdingiz?
3. Qo'lidan kelmagan ishga uringan kishi, albatta, sharmanda bo'ladi degan fikr qaysi masalda aks etgan?
4. «Tuya bilan Bo'taloq» hikoyati nima haqida? Bo'taloq onasidan nega xafa bo'ldi? Ona tuyaning javobini sharhlang.
5. «Toshbaqa bilan Chayon» hikoyati mazmuni orqali qanday ibratli fikr ilgari surilgan? Tushuntirib bering.
6. O'z ahvolidan doim shikoyat qilib yurish, noshukurlik illatlari fosh qilingan hikoyani topib sharhlashga urinib ko'ring-chi.
7. «Yodgor po'stindo'z» hikoyalarida qanday xulqli odamlar hajv qilinadi?
8. «Zarbulmasal»dan keltirilgan naqlardagi odamlarning latifanamo holatini sharhlang.
9. «Zarbulmasal» deb qanday asarga aytiladi?
10. Daftaringizga «Zarbulmasal»dagi maqol va iboralarni ko'chirib oling. Ularni hozirgi maqollar bilan taqqoslang.

## Avaz O‘TAR

(1884–1919)



O‘zbek mumtoz adabiyotining taniqli vakili Avaz O‘tar o‘g‘li o‘zining ma‘rifatparvarlik ruhidagi asarlari bilan adabiyotimiz tarixida alohida o‘rin tutadi. Avaz O‘tar o‘g‘li 1884-yil 25-avgustda Xiva shahrida hunarmand oilasida tug‘ilgan. Shoirning otasi Polvonniyoz O‘tar Gadoyniyoz o‘g‘li sartarosh edi. Xalq o‘rtasida usta O‘tar nomi bilan mashhur bo‘lgan bu kishi san‘at va adabiyotga juda qiziqardi. O‘z zamonasining yetuk adiblari Ogahiy, Komil Xorazmiy, Mujrib Xonaxarobiy, Bayoniy kabi shoirlar bilan do‘stona munosabatda bo‘lib, tez-tez suhbatlashar, doimiy muloqot qilar edi.

Usta O‘tar o‘z uyida yuqorida tilga olingan shoir-u san‘atkorlar, madaniyat ahli bilan suhbatlar uyushtirar, tabiiyki, Avaz ham ularda ishtirok etardi. Yosh Avazning she‘riyatga erta havas qo‘yishining sababi ham shunda bo‘lsa, ajab emas.

Otasi Avazni sakkiz yoshida maktabga beradi. Avaz maktabdan keyingi tahsilni madrasada davom ettiradi. U Xo‘ja Hofiz, Nizomiy, Jomiy, Lutfiy, Navoiy, Fuzuliy ijodini qiziqib o‘rganadi.



**Bundan tashqari, Munis, Ogahiy, Komil, Feruz kabi shoirlar bilan yaqindan muloqotda bo‘ladi. Ular ta‘sirida she‘rlar yoza boshlaydi va tez orada iste‘dodli shoir sifatida taniladi.**

Ma'lumotlarga ko'ra, Avaz O'tar o'n to'rt yoshlaridayoq she'r yozishga kirishgan, o'n sakkiz yoshlarida yetuk shoir nomini olib ko'pchilikning e'tiboriga tushgan. Iste'dodli shoir Avaz O'tar to'g'risidagi xabarlar xon saroyigacha yetib boradi. Uni saroyga taklif etadilar. Shoir bir qancha vaqt Xiva xoni saroyida ijod qiladi. Biroq uning bu yerdagi faoliyati ko'p davom etmaydi. Avvalo, saroydagi biqiq ijodiy muhit shoirning ko'ngliga o'tirmaydi, qolaversa, uning she'rlariga hasad bilan qaragan ayrim kimsalar turli bo'htonlar to'qib Avazni xonga yomon ko'rsatadilar.



**Xonning buyrug'i bilan shoirni 200 darra urib jazolaydilar, hatto, uni aqldan ozganga chiqarib, yomonotliq qiladilar. Tazyiq va xo'rliklardan bezgan shoir saroyini tark etadi va ota kasbi – sartaroshlik bilan tirikchilik qila boshlaydi, ijod bilan qizg'in shug'ullanadi.**

Biroq shoirga nisbatan tazyiqlar qaytadan davom etadi. Xiva xoni Muhammad Rahimxon II vafotidan so'ng otasi o'rniga taxtga o'tirgan Isfandiyorxon ham unga zulm qiladi, sog'lig'i busiz ham nochor bo'lgan Avazni bog'lab 50 darra urdiradi. Ma'naviy va jismoniy qiynoqlardan muttasil azob chekkan shoir uzoq yashay olmaydi – o'ttiz besh yoshida vafot etadi.

Avaz O'tar mumtoz she'riyatning g'azal, muxammas, masnaviy, mustazod, ruboiy, qit'a kabi keng tarqalgan janrlarida ajoyib asarlar yaratdi. Shoir o'z she'rlarini to'plab kattagina devon tuzgan va uni «Saodat ul-iqbol» deb nomlagan. Asarlar to'plami bir necha marta nashr etilgan.

Avaz O'tar turli mavzularda qalam tebratdi. Uning muhabbat haqidagi nozik hislarni uyg'otuvchi she'rlari hozirgacha kuyga solinib ijro etilayotgan bo'lsa, ma'rifatparvarlik ruhidagi asarlari ilm olishga, ma'rifatli bo'lishga da'vat bo'lib yangramoqda. Ular



orasida, ayniqsa, «Til» she’ri alohida diqqatga sazovordir. U g’azal shaklida bitilgan bo’lib, Siz-u bizni til o’rganishga, ayniqsa, «g’ayri tilini bilishga sa’y qilish»ga, ya’ni chet tillarni o’rganishga da’vat qilishi bilan muhim. Darhaqiqat, xalqimiz «Til bilgan el biladi» deb bejiz aytmaydi. Shoir tilni insonlar, turli millatga mansub kishilarni birlashtiradigan, do’stlashtiradigan «robitai olamiyon» – kishilarning aloqa vositasi deb ataydi. Shuning uchun ham o’zgalar tilini ona tilidek bilish «foida kondur» deydi. Shoirning ma’rifatparvarlikni targ’ib etuvchi asarlaridan yana biri «Maktab» she’ridir. G’azal shaklidagi bu she’rda Avaz maktabni ilm-madaniyat manbayi sifatida ta’riflab shunday deydi:

Avaz himmatni qil oliy ocharg’a emdi maktabkim,  
Baloi jahl-u nodonlikni barbod etgusi maktab.

Yuqorida biz ta’rif bergan «Til», «Maktab» she’rlarining o’zi ham shoirning ilm-fan jonkuyari, ma’rifat kuychisi bo’lganidan dalolat beradi.

Avaz O’tarning «Fidoi xalqim» deb boshlanuvchi g’azalida shoirning mazlum xalq ahvoliga achinishi, uning mashaqqatli hayotidan cheksiz afsuslanishi yaqqol sezilib turadi. Shoir o’zi mansub xalqqa jonini fido qilishga tayyor:

Fidoi xalqim bo’lsun tanda jonim,  
Bo’lub qurbon anga ruhi ravonim.

Gar o’lsam darbadar mazlumlar uchun,  
Budur maqsudi qalbi notavonim.

Na yaxshi o’ylakim, ma’qul-u manzur,  
Avaz, xalqim uchun to’kulsa qonim.

Avaz O’tar she’rlari mazmun jihatdan chuqur, ta’sirchanligidan tashqari, ixcham va ravon bitilgan. Ushbu asarlar o’quvchini charchatib qo’ymaydi. Har bir she’rda kishi yuragini

jizillatadigan his, joziba sezilib turadi. Shuning uchun ular ravon o‘qiladi, tez tushuniladi va tez yodda qoladi.

Avaz O‘tarning o‘zbek adabiyotidagi o‘rni buyuk. Shoir Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Hamza kabi shoirlar qatorida hurmat bilan tilga olishga loyiq ijodkor. Chunki Avaz O‘tar ham xuddi ulardek ma‘rifatparvarlik she‘riyatini yuqori bosqichga ko‘tarishga o‘z hissasini qo‘shdi.

\* \* \*

Har tilni biluv emdi bani odama jondur,  
Til vositai robitai olamiyondur.

G‘ayri tilini sa‘y qiling bilgani, yoshlar,  
Kim ilm-u hunarlar bilonki ondin ayondur.

Lozim siza har tilni biluv ona tilidek,  
Bilmakka oni g‘ayrat eting, foida kondur.

Ilm-u fan uyig‘a yuboringlar bolangizni,  
Onda o‘qug‘onlar bori yaktoyi zamondur.

Zor o‘lmasun onlar dog‘i til bilmay Avazdek,  
Til bilmaganidan oni bag‘ri to‘la qondur.

\* \* \*

Ochinglar, millati vayronni obod etgusi maktab,  
O‘qusin yoshlarimiz ko‘nglini shod etgusi maktab.

Dil-u jon birla el maktab ocharga ijti hod etsin,  
Nedinkim, bizni g‘am qaydidin ozod etgusi maktab.

Ko‘ngullarning sururi, dog‘i ko‘zlar nuridur farzand,  
Alarning umrini, albatta, obod etgusi maktab.

Ota birla onaga farz o‘qitmoq bizni majburiy –  
Ki bizni yaxshiliq qilmoqqa mu’tod etgusi maktab.

Qayu millatga bizdek gar nasimi inqiroz yetsa,  
Anga, albatta, mustahkamlik ijod etgusi maktab.

Bu ne navmidlikdur, maktab ochsak, oqibat bizni,  
Aro‘si kom ila maqsudga domod etgusi maktab.<sup>1</sup>

Avaz, himmatni qil oliy ocharg‘a emdi maktabkim,  
Baloyi jahl-u nodonlikni barbod etgusi maktab.

\* \* \*

Fidoyi xalqim o‘lsun tanda jonim,  
Bo‘lub qurbon anga ruhi ravonim.

Gar o‘lsam darbadar mazlumlar uchun,  
Budur maqsudi qalbi notavonim.

Mani solsa fano yo‘liga davron,  
Yurur ustimdin avlodi zamonim.

Umidim: yashasin maktab bolasi,  
Alar har biri bir sheri jayonim.

Na yaxshi o‘ylakim, ma‘qul-u manzur,  
Avaz, xalqim uchun to‘kulsa qonim.

\* \* \*

Biling, ushbu zamon g‘amnokidurman,  
Kuyib o‘rtanmish elning xokidurman.  
Avazkim, nazm elin cholokidurman<sup>2</sup>,  
Boshin olmoqqa xonning pokidurman.

---

<sup>1</sup> *M a z m u n i*: Maktab bizni yaxshi tilak va orzularimizga yetishtiradi.


<sup>2</sup> **Cholok** – chaqqon, ziyrak.



### Savol va topshiriqlar

1. Avaz O'tar hayoti va ijodi haqida so'zlab bering.
2. Avaz O'tarning hukmdorlar tomonidan ko'plab tahdid va tazyiqqa uchrashining sabablari to'g'risida mulohaza yuriting.
3. Shoirning xon saroyida uzoq tura olmasligining sabablari nimada deb o'ylaysiz?
4. Shoir «Til» she'ri orqali xorijiy tillarni bilish kishi va jamiyat hayotiga qanday ijobiy ta'sirlar ko'rsatishini bashorat qiladi?
5. «Til» she'ridagi «Til vositai robitai olamiyondur» degan jumlaning ma'nosini tushuntirib bering.
6. Avaz O'tar «Fidoyi xalqim...» she'rida xalqqa o'z muhabbatini qanday badiiy vositalar orqali ifoda etgan? Fikringizni misollar bilan isbotlang.
7. Uyda «Til» she'rini yod olib keling.





## ABAY

(1845–1904)



Abay Qo'nonboyev qozoq mumtoz adabiyotining asoschilaridan biri, buyuk shoir va ma'rifatparvar hisoblanadi. Shoirning asl ismi Ibrohim bo'lib, Abay uning taxallusidir. Shoir 1845-yil 10-avgustda Qozog'istonning Yettisuv viloyati Chingiztog' (hozirgi Abay) tumanida chorvador boy oilasida tug'ildi. Avval Yettisuvdagi Ahmad Rizo madrasasida o'qidi. Keyinchalik rus maktabiga qatnab rus tili va adabiyotini o'rgandi. Bo'lajak shoir bir tomondan Sharq allomalari – Firdavsiy, Nizomiy, Navoiy, Fuzuliy ijodidan bahramand bo'lgan bo'lsa, rus tili orqali rus va g'arb adabiyoti vakillarining ijodi bilan yaqindan tanishdi.

Shoirning ijodi yoshlik chog'laridan she'r yozish va o'lan aytishdan boshlandi.



**Abay o'zigacha og'zaki kuylab kelingan o'lanlarni yozma adabiyotga olib kirgan shoirdir. Shoir o'lanlarni yozma yaratishdan tashqari, ularga kuy bastalab mahorat bilan kuylagan. U bastalagan 17 ta o'lan kuyi hozirgacha oqinlar tomonidan sevib ijro etilyapti.**

Abay ma'rifatparvar shoir edi. U o'z she'rlarida tarqoq qozoq qabilalarini birlashishga, hamjihatlikka chaqirdi, ilmlil va ma'rifatli bo'lishga undadi. Shoir bir o'lanida:

O'zi bilan yovlashgan yurtim, tingla!  
O'zi bilan dovlashgan yurtim, tingla!  
Dardingga davo bo'lsin o'lanlarim,  
Bir-birini ovlashgan yurtim, tingla! –

deya iztirob chekadi. Abayning «Sho'rlik qozog'im», «Boy bolasi bilan kambag'al bolasi», «Ilm o'rgan», «O'lan» kabi she'rlarida ham ilg'or millatlardan o'rnak olib qoloqlikdan chiqish, chidam va mashaqqat bilan ilm-fanni egallashga da'vat yaqqol sezilib turadi. Shoir yirik voqeaband asarlar ham yaratgan. Uning «Iskandar», «Mas'ud», «Azim rivoyati» kabi dostonlari hozirgacha el orasida mashhur. Bu teran falsafiylik bilan yo'g'rilgan, ezgulik va yaxshilikka da'vat qiluvchi asarlarni sevimli shoirlarimiz Mirtemir va Uyg'un o'zbek tiliga tarjima qilishgan.

Abay ijodiy merosining salmoqli qismini xalqni ilm-ma'rifatga, madaniyatga da'vat qiluvchi «Naqliya so'zlar» majmuasi tashkil etadi. Hassos adib va shoir ushbu asarida inson hayotida muhim o'rin tutadigan aql, ilm-ziyo, insof va adolat, yaxshi xulq, muomala madaniyati, din, e'tiqod, davlatni idora qilish, xalqlar, elatlarning ahil, do'stona munosabatda bo'lishlari haqida mulohaza yuritadi. Asar 44 bo'limdan iborat. Buyuk oqin Abay qalamiga mansub ushbu «so'z»larning har biri yoshlar uchun ezgulikka da'vat, yomon xulqlardan ogoh bo'lishga chorlovchi chaqiriqlar sifatida yangraydi. «Naqliya so'zlar» asari o'zbek tilida «Nasihatlar» nomi bilan mashhur bo'lib ketgan. Bu asarni sevimli bolalar yozuvchisi Nosir Fozilov o'zbekchaga tarjima qilgan. Quyida «Nasihatlar» kitobidan ayrim o'gitlar bilan tanishasiz. Qadrli bolajonlar, ushbu pandnoma asarni to'liq o'qib chiqing. Undagi koni foyda nasihatlar sizga abadiy yo'ldosh bo'lishiga aminmiz.

## «NASIHATLAR» KITOBIDAN

### UCHINCHI SO‘Z

... Bunga dunyoda o‘tgan barcha donishmandlar shunday javob qiladi: har qanday yalqov kishi qo‘rqoq va g‘ayratsiz bo‘ladi; har qanday g‘ayratsiz, qo‘rqoq kishi maqtanchoq bo‘ladi; har qanday maqtanchoq, qo‘rqoq kishi aqlsiz, nodon bo‘ladi; har qanday aqlsiz, nodon kishi orsiz bo‘ladi; har qanday orsiz kishi yalqov, kishi oldida tilanchi, ochko‘z, suq bo‘ladi; bunday hunarsiz kishilar hech qachon bировga do‘st bo‘lmaydi.

### YETTINCHI SO‘Z

Bola onadan tug‘ilganda ikki odat bilan tug‘iladi. Biri: yesam, ichsam, uxlasam demoqlikdir, albatta; shuningdek, bular tanning sihat-salomatligi uchun zarur hamdir; bular bo‘lmasa – tanda jon ham bo‘lmaydi, o‘smaydi ham, quvvatga ham kirmaydi. Ikkinchisi: ko‘rsam, bilsam demoqlikdir. Bola yoshligida nimani ko‘rsa, shunga talpinadi, yalt-yult etib qaraydi, ko‘rgan narsasini qo‘li bilan ushlab, yuzi-ko‘ziga yaqin olib borib suykagisi, og‘ziga solib tishlagisi keladi. Karnay-surnay ovozini eshitsa – yon-atrofiga alanglab qaraydigan bo‘ladi. Sal kattaroq bo‘lganidan keyin esa, it hursa ham, mol ma‘rasa ham, bиров kelsa ham, yig‘lasa ham o‘rnidan tura yugurib chiqib qaraydigan va: «U nima?», «Bu nima?», «U nega unday qildi?», «Bu nega bunday qildi?» deb ko‘zi ko‘rgan, qulog‘i eshitgan narsalarni so‘raydigan bo‘ladi – hech tin topmaydi. Bularning hammasi ko‘rsam ekan, bilsam ekan, o‘rgansam ekan, degan tabiiy qiziqish alomatidir, albatta.

Dunyodagi barcha mavjud hodisalarning sirini hech bo‘lmasa yuzakiroq bo‘lsa ham bilmaslik – bu odamgarchilikdan emas. Shuni ham bilmagandan keyin, bu odam odam emas, balki hayvondan hech farqi yo‘qdir...

## O'N YETTINCHI SO'Z

Bir kuni G'ayrat, Aql, Yurak uchalasi har qaysisi o'z hunarini maqtab, aytishib, tortishib qolishibdi-yu, Ilmning oldiga kelib, undan hakamlik qilishni so'rashibdi.

Shunda birinchi bo'lib G'ayrat so'zlabdi:

– Ey Ilm, – debdi u, – axir o'zing bilasan, dunyoda hech bir narsa yo'qki, u mening ishtirokimsiz kamol topsin. Avvalo, mana, sening o'zingni bilish ham, erinmay, sabot va matonat bilan izlab, o'rganib, yana uni o'z o'rnida ishlatish ham – mening ishim. Har kuni o'z vaqtida toat-ibodatni kanda qilmay o'rniga qo'yish ham – mening ishim. O'zingga ma'lumki, dunyoda har kim o'ziga loyiq hunar o'rganishi, mol topishi, obro' qozonishi, mansab egallashi kerak – bularning hammasi bemehnat bunyodga kelmaydi. O'rinsiz, bo'lar-bo'lmas ishlarga ko'ngil qo'ydirmay, insonni sof saqlaydigan, uni gunohkorlikdan, johillikdan, shaytonning gapiga kirib, nafs balosiga giriftor bo'lishlikdan saqlaydigan, adashgan bandalarni to'g'ri yo'lga solib yuboradigan ham men emasmi, axir? Shunday bo'lgandan keyin, Aql bilan Yurak nega men bilan masala talashadi? – debdi.

Shunda Aql aytibdi:

– Na bu dunyoda va na u dunyoda nimaiki foydali, nimaiki zararli bo'lsa – biladigan bir menman. Sening so'zingni uqadigan ham – men. Mensiz inson na o'z foydasini biladi va na o'z zararidan qochib qutuladi. Hatto Ilmni ham o'qib o'rgana olmaydi. Shunday bo'lgandan so'ng, bu ikkalasi men bilan nega g'ijillashadi? Men bo'lmasam, bu ikkalasining qo'lidan nima ish keladi? – debdi.

Nihoyat, Yurakka navbat kelibdi va u shunday debdi:

– Men inson tanasining podshosiman, qon mendan taraydi, jon menda makon quradi, mensiz hayot yo'q, – debdi u. – Issiq uyda, yumshoq to'shakda yotgan to'q bir odamni och-yalang'och, to'shaksiz sovqotib yurgan kambag'alning holi nima kechdi ekan deb o'ylantirib, uni u yonidan bu yoniga ag'anata-



digan, uyqusini qochirib, jonini achitadigan ham menman. Kattalarga nisbatan hurmat-izzat, kichiklarga nisbatan mehrshafqat qildiradigan ham menman. Biroq inson meni hamma vaqt ham sof saqlay olmaydi. Oxir bir kuni xor qiladi. Agar men toza bo‘lsam, inson bolasini olalamagan bo‘lur edim: yaxshisini yaxshilikka yetkazadigan ham – men, yomonining ta‘zirini beradigan ham – men. Adolat, insof, or-nomus, rahmshafqat, mehribonchilik kabi narsalarning hammasi mendan chiqadi. Mensiz bularning ko‘rgan kuni kunmi? Shunday bo‘lgandan keyin, bu ikkalasi men bilan yana qanday qilib masala talashishadi? – debdi.

Shunda Ilm uchallasini bafurja tinglab olib, ularga shunday debdi:

– Ey G‘ayrat, sening aytgan gaplaringning hammasi to‘g‘ri. Hatto, u aytganlaringdan boshqa hunarlaringning borligi ham rost, shuningdek, ularning sensiz hech ekanligi ham to‘g‘ri. Ammo shu bilan birga, kuch-quvvatingga yarasha qattiqchiliging ham bor. Ko‘pgina foydang bilan birga zararing ham yo‘q emas. Ba‘zan yaxshilikka, ba‘zan esa yomonlikka mahkam yopishib olasan – mana shuning yomon!

So‘ng Aqlga aytibdi:

– Ey Aql! Sening aytgan gaplaring ham – hammasi to‘g‘ri. Sening ishtirokingsiz hech narsaning bo‘lmasligi ham rost. Yaratgan tangri taoloni ham sen tanitasan, mavjud har ikki dunyoning kori-holini ham sen bilasan. Bundan tashqari ham sening qo‘lingdan ko‘p narsalar keladi: turli amal, hiyla-nayranglarning bari sendan chiqadi; yaxshining ham, yomonning ham tayangani sensan. Sen ikkalasiga ham birdek xizmat qilasan, istaganini topib berasan – mana shu odating yomon! – deb so‘zini davom ettiribdi Ilm. Endi men uchalangning boshingni qo‘shib, itti-foqlaringni kelishtirib qo‘yishim kerak. Bu ishda yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadigan boshliq Yurak bo‘lsa yaxshi bo‘ladi. Chunki Aql, sening nojo‘ya tomonlaring ko‘p, shu sababdan Yurak sen yetaklagan tomonga qarab yuravermaydi: yaxshi yo‘lga boshlasang,

jon-dilidan yuradi, hatto, xursand ham bo‘ladi; yomon yo‘lga boshlasang, sendan jirkanadi, aytganingga yurmaydi, balki ko‘k-rakdan haydab chiqaradi.

So‘ngra Ilm yana G‘ayratga aytibdi:

– Ey G‘ayrat! Sening ham kuch-quvvating juda ko‘p. Lekin Yurak bosh bo‘lsa, seni ham o‘z erkingga qo‘ymaydi. Uni faqat o‘rinli ishlargagina safarbar qiladi. O‘rinsiz narsalarga-chi – qo‘l urdirmaydi. Mening gapimga kirib, uchovlon birga bosh qo‘shinglar, tinch-totuv yashanglar va bamaslahat ish ko‘ringlar! – deb maslahat beribdi Ilm. – Agar uchalangizdagi xususiyatlar birikib, bir odam bo‘lsalaringiz, u holda sizning bosgan izingizni tabarruk qilib ko‘zga surtsa bo‘ladi. Bordi-yu, uchovingiz ola bo‘lsangiz, bir kelishimga kelisha olmasangiz, u holda men faqat Yurakning tarafinigina yoqlayman. Chunki kitoblarda odam-garchilik kishining qalbida bo‘ladi, qalbingni pok saqla deyilgan...

### O‘TTIZ BIRINCHI SO‘Z

Kishi eshitgan narsasini unutmazlik uchun to‘rtta shart bor: avvalo, buning uchun zehni bo‘lmoq kerak; ikkinchidan, bir narsani ko‘rganda yo eshitganda, unga chin yurakdan ixlos qo‘yib, fahm-farosat bilan uqib olmoqlik lozim; uchinchidan, eshitganlarini ichida bir necha marta takrorlab ko‘ngilga jo qilmoq kerak; to‘rtinchidan, ko‘ngilga boshqa narsalarni mutlaqo keltirmaslik va kelsa ham unga zarracha e‘tibor bermaslik kerak. Masalan: beg‘amlik, beparvolik, o‘yin-kulgi yoki ixlos qo‘ymaslik kerak. Aks holda, bu to‘rt narsa aql bilan ilmga putur yetkazadigan omillardir.

### O‘TTIZ IKKINCHI SO‘Z

Ilm o‘rganishni talab qilgan kishi, avvalo, uni bilishi kerak. Buning bir necha shartlari bor. Bularni bilmay turib o‘rganilgan ilm yuqmaydi.

Avvalo (birinchi shart – *mualliflar*), o‘rganilayotgan ilmunarini oxir bir kun kelib biron kori-holimga yarab qolar deb o‘rganmasdan, hayotda uni turmushga tatbiq qilish maqsadida o‘rganmoq kerak. Chunki ilmni faqat bilib qo‘yish uchungina o‘rgansang va shu bilan qanoat hosil qilsang, bunday ilmning kimga keragi bor? Kishi o‘zining bilmagan narsasini bilib o‘rgansa, bundan qanchalik huzur-halovat topishini asti qo‘yavering! Agar sen ilmga astoydil mehr qo‘yib o‘rgansang, senda yana ko‘proq bilsam ekan degan muhabbat paydo bo‘ladi. Shundagina sen ko‘zing ko‘rgan har bir narsani ko‘nglingga mahkam tugib, uqib oladigan bo‘lasan.

Agar bordi-yu, ko‘ngling boshqa narsada bo‘lib, o‘qib-o‘rganayotgan ilmingni shunga sabab qilib ko‘rsatsang, ya‘ni uni ana shu ko‘nglingdagi narsa uchungina o‘rganayotgan bo‘lsang, unda ilmga degan mehring go‘yo o‘gay onaning mehri kabi bo‘ladi. Agarda chin niyat bilan o‘rganayotgan bo‘lsang, unda ilmga degan mehring xuddi o‘z onangning mehriday iliq va samimiy bo‘ladi. Sen ilmga chindan ham ixlos qo‘ysang, u ham mehr qo‘yadi va sen uni tezroq qo‘lingga kiritasan. Agar sen unga chala mehr qo‘ysang, o‘rgangan ilming ham chala-chulpa bo‘ladi.

Ikkinchidan, ilmni o‘rganganda yaxshi niyat bilan o‘rganish kerak. Ammo birov bilan bahs boylashmoq, talashishmoq uchun o‘rganish kerak emas. Bahs, avvalo, ko‘ngildagi ishonchni mustahkamlash uchun bo‘lsa – bu zarar emas, lekin haddan oshib ketsa, kishini tuzatishdan ko‘ra ham ko‘proq buzib qo‘yishi mumkin. Buning sababi: bahs qiluvchilar ko‘proq haqiqatni aniqlash uchun emas, balki bir-birlarini yengmoq uchun harakat qilishadi. Bunday bahs xusumatni kuchaytirib, odamgarchilikni yo‘qotishgacha olib boradi. Bunday holda asosiy maqsad ilm o‘rganish bo‘lmay, odamning yuzini yolg‘on so‘zga buradigan bo‘lib qoladi. Bunday maqsad faqat buzuq kishilardagina bo‘ladi. To‘g‘ri yo‘ldan ketayotgan yuzta odamni adashtirgan kishi egri yo‘ldan ketayotgan bitta notavonni to‘g‘ri yo‘lga solgan kishidan

sadqayi ketsin! Bahs – bu ham aslida ilm o‘rganishning bir yo‘li. Biroq unga ortiqcha hirs qo‘yish yaramaydi. Chunki bahs-ga ortiqcha hirs qo‘yishdan mag‘rurlik, maqtanchoqlik, xusumat, yolg‘onchilik, hatto, arzimagan narsadan janjal chiqarish va birovga musht ko‘tarish kabi yomon fazilatlar tug‘iladi.

Uchinchidan, agar har bir harakating tufayli haqiqatga erisha oladigan bo‘lsang, o‘lsang ham bu yo‘ldan qaytma, mahkam tur! Axir, o‘zing shubha qilgan narsaga o‘zgalar qanday qilib ishonch bildirsin? O‘zing hurmat qilmagan narsani o‘zgalar nega hurmat qilsin?

To‘rtinchidan, ilmni ko‘proq o‘rganish uchun odamda yana ikki narsa bo‘lishi lozim: biri – mulohaza yuritish, ikkinchisi esa muhofaza qilishlikdir. Bu ikki xususiyatni borgan sari kuchaytira borish kerak. Bu narsa kuchaymay turib ilm o‘rganish qiyin.

Beshinchidan, shu nasihatlarining o‘n to‘qqizinchi so‘zida yozilgan aql kasali degan to‘rt narsa bor, shundan ehtiyot bo‘lish kerak. Shularning orasida beg‘amlilik, beparvolik degan narsa bor, zinhor-zinhor shu narsadan ehtiyot bo‘l! Chunki bu, birinchidan Xudoning, ikkinchidan xalqning, uchinchidan davlatning, to‘rtinchidan ibratning, beshinchidan aqlning, or-nomusning dushmanidir; or-nomus bo‘lgan yerda bular bo‘lmaydi.

Oltinchidan, senda ilmni, aqlni bir me‘yorda saqlaydigan fe‘l-atvor, xulq degan narsa bor. Sen shu narsani ehtiyot saqla! Ko‘rgan narsangga qiziqaversang: yo birovning o‘rinli, yo birovning o‘rinsiz gapiga ishonib ketsang yoki to‘g‘ri kelgan narsalarga ko‘ngil qo‘yaversang, fe‘l-atvoringning buzilib ketishi hech gap emas. Fe‘l-atvoring buzilganidan keyin esa o‘qib ilm o‘rganganingdan hech foyda yo‘q. Ko‘kragingda unga o‘rin bo‘lmagandan keyin, uni qayerda saqlaysan? Aksincha, kiroyi ilming bo‘lgandan keyin, uni ehtiyot qiladigan fahm-farosating, aql-u hushing, or-nomusingni qo‘ldan bermaydigan fe‘l-atvoring va g‘ayrating bo‘lsa – nur ustiga a‘lo nur! Lekin bu ehtiyotkorliging, shubhasiz, aql uchun, or-nomus uchun qilingan bo‘lsin!

## O‘TTIZ YETTINCHI SO‘Z

1. Insonning insonligi ishni qanday boshlaganidan bilinadi, lekin qanday tugatganidan emas.

2. Ko‘nglingdagi ko‘rkam o‘y og‘zingdan chiqqach xiralanaadi.

3. Sen agar faqat o‘zini o‘ylaydigan nodonga hikmatli so‘z aytsang, u seni yo xursand qiladi, yoki xafa.

4. Kishiga bilimiga qarab yaxshilik qil, yomonga qilgan yaxshiliging boshingga balo bo‘lib tushadi.

5. Otang bolasi bo‘lma, odam bolasi bo‘l! Odam bolasi – elning lolasi.

6. Yaxshi odam ko‘p so‘raydi, ammo oz bersang ham rozi bo‘ladi. Yomon odam oz so‘raydi, ammo ko‘p bersang ham rozi bo‘lmaydi.

7. Yolg‘iz boshing uchun mehnat qilsang, o‘z qorni uchun o‘tlagan hayvonning biri bo‘lasan. Insoniy burching uchun mehnat qilsang esa, Ollo taoloning suygan bandasi bo‘lasan.

8. Inson bolasini zamona parvarish qiladi. Kimda-kim yomon bo‘lsa, ayb zamondoshlarida.

9. Agar davlat mening qo‘limda bo‘lganda, inson farzandini tuzatib bo‘lmaydi degan odamning tilini kesib tashlardim...

10. Dunyoda kim yomonlik ko‘rmagan deysiz? Umidsizlik – bu g‘ayratsizlikdir. Dunyoda hech muqim narsa yo‘q, shuningdek, yomonlik ham mudom bo‘lmaydi. Axir, qori qalin qahraton qish ketidan ko‘k maysali, tiniq suvli yoz kelmasmu?

11. Badjahl odam kamgap kelsa, zahari ichida bo‘lgani. Bordi-yu, hech kimga gap bermay, lo‘lilik qilib shovqin solsa, bu odam yo qo‘rqoq, yoki maqtanchoq keladi.

12. Quvonch va mag‘rurlik mastlikdir. Faqat mingdan bir kishigina bu narsadan o‘zini ehtiyot tutib yura oladi.

13. Ishning omadi – o‘z vaqti.

14. Buyuk mansab – go‘yo bir buyuk qoya. Unga erinmay o‘rmalab yurib ilon ham chiqadi, uchib-qo‘nib yurib qiron ham chiqadi.

15. Dunyo kattakon ko‘l. Zamona esa esib turgan yel. Oldingdagi to‘lqin – og‘alar bo‘lsa, ketingdagi to‘lqin – inilardir. Navbat bilan o‘lishar, avvalgiday bo‘lishar.

16. Tuyadek bo‘y bergandan tugmadek aql bergan ortiq. Soqolini sotgan qaridan mehnatini sotgan yosh ortiq.

17. Yomon do‘st – bir ko‘lankadir: quyoshli kunda qochsang ham qutulolmaysan, bulutli kunda esa izlasang ham topolmaysan.

18. Do‘sti yo‘q bilan sirlash, do‘sti ko‘p bilan siylash. Yaxshiga yaqin bo‘l, yomondan – yiroq.

19. G‘ayratsiz jahl – tul, qayg‘usiz oshiq – tul, shogirdsiz olim – tul.


20. Baxtiyor bo‘lguningcha baxtingni eling ham tilaydi, o‘zing ham tilaysan. Baxtiyor bo‘lganingdan so‘ng esa faqat o‘zinggina tilaysan.



### Savol va topshiriqlar

1. Abay hayoti va ijodi to‘g‘risida bilganlaringizni gapirib bering.
2. Abayning qozoq adabiyotiga qo‘shgan ulkan hissasi qaysi asarlarda namoyon bo‘ladi?
3. «Nasihatlar»ning «O‘n yettinchi so‘z»idan olingan parchada G‘ayrat, Aql, Yurak o‘rtasida qanday bahs bo‘lib o‘tdi? Bahsda hakamlik qilgan Ilmning ularga bergan maslahatini sharhlashga harakat qiling.
4. «O‘ttiz ikkinchi so‘z»da ilm o‘rganishning bir necha shartlari haqida gap ketadi. Mazkur shartlarni izohlab bering.
5. Oltinchi shartning izohiga batafsil to‘xtaling.
6. «O‘ttiz yettinchi so‘z»dan Abayning yigirmata o‘giti joy olgan. Ushbu o‘gitlarning o‘n yettinchi va o‘n sakkizinchi bandlarini sharhlang.
7. Uyda «O‘ttiz yettinchi so‘z»dagi o‘gitlarni yod olib keling.

## RANGIN TUYG‘ULAR



ZULFIYA

(1915–1996)



Aziz o‘quvchi! Balki Sizning maktabingizda yoki qo‘shni maktablarda Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan qizlar o‘qir. Siz, albatta, shunday mukofot borligini yaxshi bilasiz. U har yili respublikamizda ta‘lim, fan, adabiyot, san‘at sohalarida o‘z iste‘dodini namoyon etayotgan maktab, kasb-hunar kolleji va akademik litseylar hamda oliy o‘quv yurtlarida o‘qiyotgan qizlarga taqdim etilishini ham eshitgansiz. Ana shunday nufuzli mukofot nega Zulfiya nomida, uning o‘zi kim, qanday xizmatlari bilan bunday sharafiga sazovor bo‘lgan deb qiziqqan bo‘lsangiz ham kerak? Keling, yaxshisi, hikoyamizni diqqat bilan o‘qing!



**Zulfiya Isroilova xalqimizning atoqli va ardoqli vakili, O‘zbekiston xalq shoiri, xalqaro «Nilufar», Javoharlal Neru nomidagi hamda Davlat mukofotlari sohibasidir.**

U 1915-yili Toshkent shahrining qadimiy Dergez mahallasida tavallud topgan. Avval boshlang‘ich maktabda, so‘ng xotin-qizlar bilim yurtida tahsil olgan. 1935–1938-yillarda O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Til va adabiyot instituti aspiranturasida

o‘qigan. Shundan keyin turli nashriyotlarda ishlagan. 1953-yildan 1980-yilgacha, qariyb o‘ttiz yilga yaqin respublikamizda keng tarqalgan «Saodat» nomli xotin-qizlar jurnalida bosh muharrir bo‘lgan.



**Zulfiyaning dastlabki she‘rlari «Hayot varaqlari» nomi bilan 1932-yilda bosilib chiqqan. Shundan so‘ng shoiraning «She‘rlar» va «Qizlar qo‘shig‘i» (1938-yil), «Uni Farhod der edilar» (1943-yil), «Hijron kunlarida» (1944-yil), «Dalada bir kun» (1948-yil), «Tong qo‘shig‘i» (1953-yil), «Yuragimga yaqin kishilar» (1958-yil), «Kuylarim sizga» (1965-yil), «O‘ylar» (1965-yil), «Shalola» (1974-yil) kabi o‘nlab she‘riy to‘plamlari chop etildi.**

U atoqli o‘zbek shoiri Hamid Olimjon bilan oila qurgan. Biroq ular orzularga to‘la hayot kechirayotgan pallada – 1944-yili mashina halokati tufayli turmush o‘rtog‘idan ayriladi. Shundan so‘ng umr bo‘yi o‘z muhabbatiga sodiq qolib Hamid Olimjonning ishlarini sabot bilan davom ettiradi. Uning «Semurg‘», «Zaynab va Omon» dostonlari asosida pyesa va opera libretto-larini yaratadi. O‘zi ham «Quyoshli qalam», «Mushoira», «Xotira siniqlari» kabi poemalar yozadi. Rus, ukrain, ozarbayjon, hind shoirlarining she‘rlarini o‘zbek tiliga tarjima qiladi.

Zulfiya keng tanilgan jamoat arbobi edi. U Osiyo, Afrika va Yevropaning o‘nlab davlatlarida bo‘lib xalqaro xotin-qizlar hamda adabiyot namoyandalarining harakatlarida faol ishtirok etar edi. Uning she‘rlari ingliz, nemis, rus, bolgar, xitoy, hind, yapon, arab, fors, vetnam kabi juda ko‘p xorijiy tillarga tarjima qilingan edi. Shoira 1996-yil 81 yoshida vafot etgan.



### Savol va topshiriqlar

1. Shoira Zulfiya qayerda tug‘ilgan, qaysi o‘quv yurtini tugatib, qanday faoliyat bilan shug‘ullangan?
2. Zulfiya qanday she‘riy to‘plamlar va dostonlar muallifi?





Qancha sevar eding, bag‘rim, bahorni,  
O‘rik gullarining eding maftuni.  
Har uyg‘ongan kurtak hayot bergan kabi  
Ko‘zlaringga surtib o‘parding uni.

Mana, qimmatligim, yana bahor kelib,  
Seni izlab yurdi, kezdi sarsari.  
Qishning yoqasidan tutib so‘radi seni,  
U ham yosh to‘kdi-yu, chekildi nari.

Seni izlar ekan bo‘lib shabboda,  
Sen yurgan bog‘larni qidirib chiqdi.  
Yozib ko‘rsatay deb husn-ko‘rkini,  
Yashil qirg‘oqlarni qidirib chiqdi.

Topmay, sabri tugab bo‘ron bo‘ldi-yu  
Jarliklarga olib ketdi boshini.  
Farhod tog‘laridan daraging izlab,  
Soylarga qulatdi tog‘ning toshini.

Qirlarga ilk chiqqan qo‘ychivonlardan  
Qayda shoir, deya ayladi so‘roq.  
Barida sukunat, ma‘yuslik ko‘rib,  
Horib-charchab keldi, toqatlari toq...

So‘ngra jilo bo‘lib kirdi yotog‘imga,  
Hulkar va Omonning o‘pdi yuzidan,  
Singib yosh kuydirgan za‘far yonog‘imga  
Sekin xabar berdi menga o‘zidan.

Lekin yotog‘imda seni topolmay,  
Bir nuqtada qoldi uzoq tikilib.  
Yana el bo‘ldi-yu kezib sarsari,  
Mendan so‘ray ketdi qalbimni tilib:

«Qani men kelganda kulib qarshilab,  
Qo‘shig‘i mavjlanib bir daryo oqqan?»

«Baxtim bormi deya, yakkash so‘roqlab»  
Meni she’rga o‘rab suqlanib boqqan?

O‘rik gullariga to‘nmaydi nega,  
Elda hilpiratib jingala sochin?  
Nega men keltirgan sho‘x nashidaga  
Peshvoz chiqmaydi u yozib qulochin?

Qanday ishqqa to‘lib boqardi tongga,  
Kamol toptirardi keng xayolimni.  
Uning rangdor, jozib qo‘shig‘ida  
Mudom ko‘rar edim o‘z jamolimni.

Qani o‘sha kuychi, xayolchan yigit?  
Nechun ko‘zingda yosh, turib qolding lol?  
Nechun qora libos, sochlaringda oq,  
Nechun bu ko‘klamda sen parishonhol?»

Qanday javob aytay, loldir tillarim,  
Baridan tutdim-u, keldim qoshingga.  
U ham g‘aming bilan kezdi aftoda,  
Boqib turolmayin qabring toshiga.

Alamdan tutoqib daraxtga ko‘chdi,  
Kurtakni uyg‘otib so‘yladi g‘amnok.  
Sening yoding bilan yelib beqaror,  
Gullar g‘unchasini etdi chok-chok.

Gul-u rayhonlarning taraldi atri,  
Samoni qopladi mayin bir qo‘shiq  
Bu qo‘shiq naqadar oshino, yaqin,  
Naqadar hayotbaxsh, otashga to‘liq.

Bahorga burkangan sen sevgan elda  
Ovozing yangradi jo‘shqin, zabardast.  
O‘lmagan ekansan, jonim, sen hayot,  
Men ham hali sensiz olmadim nafas.

Hijroning qalbimda, sozing qo‘limda,  
Hayotni kuylayman, chekinar alam.  
Tunlar tushimdasan, kunduz yodimda,  
Men hayot ekanman, hayotsan sen ham!

\* \* \*

Baxtim bor:

                    ajoyib kishilar aro  
Tug‘ilib, gurkirab...  
                    keksayar umrim,  
O‘shalar she‘rimga baxsh etgan sado,  
Hayotim yo‘lini yoritgan nurim.

Biri yuzlarimga baxsh etar kulgu,  
Biri qonlarimga solar hayajon.  
Biri olg‘a chorlar bo‘lib oq orzu,  
Biri der: hayotsan, yur orzu tomon.

Hali qalbing juvon yuragiday yosh,  
Asablar ko‘tarar, tog‘ni ortsang ham.  
Ko‘zingga,  
                    qoningga olaver, quyosh,  
Hali ko‘p tebranar qo‘lingda qalam...

## **O‘G‘LIM, SIRA BO‘LMAYDI URUSH**

To‘lisharmi o‘lkada bahor,  
Quyosh kezar osmon ko‘ksida.  
Qaldirg‘ochlar qanotmi qoqar,  
Undan soya labi ustida.

Mana, o‘g‘lim labi ustida  
Qaldirg‘ochning mayin qanoti.  
O‘spirinim toza ko‘ksida  
Kunda oshar yangi his toti.

Bo‘yi oshib ketdi bo‘yimdan,  
Bosa olar ko‘ksiga boshim.  
Sevgim ko‘rib bergan uyimda  
O‘sdi mening katta yo‘ldoshim.

Yurak to‘la shodlik, mehr, baxt,  
Uning ko‘zlariga boqaman.  
Nigohiday tiniq va yorqin  
Orzu to‘lqinida oqaman.

Orzulari qalbinga ziynat,  
Hayotidir ko‘zim qorasi.  
O‘kinaman ba’zida faqat,  
Yonida yo‘q uning otasi.

Urush, noming o‘chsin jahonda,  
Hamon bitmas sen solgan alam.  
Sen tufayli ko‘p xonadonda  
Ota nomli buyuk shodlik kam.

Yulding ota demak baxtini  
Juda murg‘ak go‘daklarimdan,  
Yaxshi ham bor shunday Vatani,  
Dalda bo‘ldi yuraklarimga.

Ota bo‘lib soldim men yo‘lga,  
Ona bo‘lib mehrimga oldim.  
Mana, yurtga o‘g‘il o‘stirgan  
Bir davlatmand boy bo‘lib qoldim.

Qancha ishonch, umid baxsh etar  
Ham Vatanga, ham menga bu dil,  
Qoya kabi yonimdan chiqib:  
«Suyan, – deydi, – kiftinga dadil».

Men onaman, mening yuragim  
Farzandlarim quvonchiga kon.  
Dil orziqar – ba’zan tilagim  
Vahimalar o‘ragan zamon.

Yo‘q, urushning nomi ham o‘chsin,  
Mening o‘g‘lim kerak hayotga.  
Istamayman, uning dudlari  
Qo‘nsin labi uzra qanotga.

Bas, bas, ezgu onalar qalbi,  
Yashay olsin bexavf, baxt bilan.  
Mehnatimiz, g‘azab, sevgimiz  
Tinchlik, deydi butun xalq bilan.

Ko‘krak suti va mehnat bilan  
Biz jahonga berganmiz turmush.  
Ona qalbi oyoqqa tursa,  
O‘g‘lim, sira bo‘lmaydi urush!

## ZULFIYA SHE’RLARI HAQIDA

Zulfiya she’rlari harorat bilan bitilgan ehtirosli, hayotbaxsh she’rlardir. Ular xoh vatan haqida, uning go‘zal tabiati, mehnatkash odamlari, buyuk bunyodkorlik qudrati xususida bo‘lsin, xoh insonlarning turfa his-tuyg‘ulari: mehr-muhabbat, quvonch-u shodlik, baxt, saodatni tarannum etishga bag‘ishlangan bo‘lsin, barchasida hayotsevarlik, o‘quvchida yorug‘ kayfiyat paydo etish istagi hukmrondir. Bu fikrning isbotini shoiraning «Bog‘lar qiyg‘os gulda», «Bahor keldi seni so‘roqlab», «Baxtim bor, ajoyib kishilar aro...» she’rlari misolida ko‘rib chiqish mumkin.

Shoira Zulfiyaning qalbiga ehtiros va ilhom bag‘ishlagan tuyg‘u – bu bahor kelib, bog‘-rog‘larning jonlanishi, daraxtlarning qiyg‘os gulga kirib, tevarak-atrofning chamanzorga aylanishidir.



**Muallif gulga burkangan manzarani tasvirlar ekan, uni ramziy ma'noda qo'llaydi. «Bir kaft bog'», ya'ni yaxlit bir manzil – Vatanda turlicha tarovat, turli bo'y taratuvchi daraxtlar bor. Ularning har biri o'zicha ko'rk, o'ziga xos meva-yu hosil beradi.**

Go'yo har bir daraxt bu bir-biriga o'xshamaydigan millat va elatdir. Ularning har birining o'z tarixi, o'z urf-u odatlari, yashash tarzi bor. Lekin ular bitta bog'da – bir maskanda, ya'ni bir Vatanda – O'zbekistonda jam bo'lganlar. Ular turli millat va elatlar bo'lsa ham, bir xalq – O'zbekiston xalqi farzandlaridir. Bir vatanda yashayotgan yagona xalq esa, millatidan qat'i nazar, biri biriga suyanch, madadkor, himoyachi. Ular Vatanimizning qay manzilida yashamasin, bir ko'z qorachig'i, birday aziz, qadrli:

Har navda bir gulda, har gulda bir ro'y,  
Har daraxt bargi bir dunyo hikoya.  
Har birin hosili o'zgasiga ko'rk,  
Biri biri uchun qudrat, himoya.

Biroq yurtimizdagi millat-u elatlarning qardosh, qadrdonligi har qancha mustahkam bo'lmasin, ular barchasi suyanadigan «orqa tog'» bo'lmog'i kerak:

Bu – qadim dunyoda yangi bir olam,  
Bunda orqa tog'siz bir tirik jon yo'q.

Bu suyanch, bu tayanch kim? Tayanch bo'lmasa agar, bu murakkab, xavf-u xatarlarga to'la dunyoda tinch, xotirjam yashab bo'ladimi? Inson hamisha kimgadir suyanib, intilib yashaganidek, kichik xalq – elatlar ham katta xalq va millatlarga suyanadi, ishonadi. O'zbekiston misolida o'sha xalq, o'sha suyanch, o'sha tayanch bu – o'zbek xalqidir. O'zbekistonda yashovchi barcha insonlar – bir xalq, O'zbekiston fuqarosi.

Ularga O‘zbekistonning Asosiy qonuni – Konstitutsiyasi bo‘yicha barcha masalalarda teng huquq va imkoniyatlar berilgan. Agar shu tenglikka amal qilmay, men katta millat, sen kam sonli elatsan, deb ayirmachilik, mahalliychilik qilinsa, bunday mamlakat, bunday davlat tanazzulga yuz tutadi, urush-u janjaldan bo‘shamaydi. O‘zbek xalqi azal-azaldan bag‘rikeng, serhimmat, saxovatli xalq. Shuning uchun ham bugun uning bag‘rida 130 dan ortiq millat va elat vakillari tinch, osuda va bunyodkor hayot kechirmoqdalar. Shoira Zulfiya ana shunday mustahkam, ishonchli tayanch bo‘lolgani uchun bag‘rikeng ona xalqini ulug‘laydi, unga muhabbatini eng aziz tuyg‘u deb biladi.



**Zulfiya she‘riyatida, ko‘rib o‘tganimizdek, bahor mavzusi ayricha bir ahamiyatga ega. Uzoq ijodiy umr davomida yozilgan she‘rlarning aksariyati bahor fasli, uning insonlarga baxshida etadigan go‘zalligi, tarovati, jozibasi haqida.**

Yoki bo‘lmasa bahorning fusunkor manzaralari, betakror nafosatidan ilhomlanib kishida paydo bo‘ladigan turli o‘ylar, qiyos va o‘xshashliklar ta‘siridagi hayot hodisalari, tabiat va inson kechmishlari xususidagi mulohazalardir. Biz dastlab ko‘rib chiqqan «Bog‘lar qiyg‘os gulda» she‘ri – so‘zlarimizning isboti.

Ayni chog‘da Zulfiyaning bahor haqidagi ko‘plab she‘rlari orasida yana bittasi borki, unda avvalgilaridan farqli, shoira she‘riyatdagi jonlantirish san‘atidan mahorat bilan foydalanib, dunyodan o‘tib ketgan yaqin odamining sog‘inchi, xotirasini qalamga oladi. Bu yaqin odam Zulfiya opaning turmush o‘rtog‘i, otashnafas shoir Hamid Olimjon edi.

Aziz o‘quvchi, Sizlar quyi sinfda Hamid Olimjon hayoti va ijodi bilan tanishgansiz. Shunda shoirning «baxt va shodlik» kuychisi deya sharaflanishi, «O‘rik gullaganda» deb nomlangan mashhur she‘ri borligini hamda Hamid Olimjon ayni navqiron



o‘ttiz besh yoshida, ya’ni 1944-yili avtomobil halokatida vafot etganini bilib olgansiz.

Zulfiya she’riyat muxlislariga oradan bir yil o‘tib, ya’ni 1945-yili yozgan «Bahor keldi seni so‘roqlab» she’ri bilan baxt va bahor haqida jo‘shib kuylagan yori – turmush o‘rtog‘i Hamid Olimjonning hayotini, she’rlarini eslatadi. Shu niyatda tabiatga murojaat qiladi, uni xayolan o‘z suhbatdoshiga aylantiradi.

Mana, qimmatligim, yana bahor kelib,  
Seni izlab yurdi, kezdi sarsari.  
Qishning yoqasidan tutib so‘radi seni,  
Ul ham yosh to‘kdi-yu, chekildi nari.

«Qani o‘sha kuychi, xayolchan, yigit?  
Nechun ko‘zingda yosh, turib qolding lol.  
Nechun qora libos, sochlaringda oq,  
Nechun bu ko‘klamda sen parishonhol?»

«O‘rik oppoq bo‘lib gullagani»ni kuylagan yigitni izlab kelgan bahor shabboda bo‘lib bog‘larni, qir-adir, yashil qirg‘oqlarni qidirib chiqqani, izlarini topolmagach, bo‘ronga aylanib tog‘lar toshlarini qulatib, na’ra tortganini aytar ekan, shoira bu bilan o‘z qalbidagi holatni ifoda etadi. Suyukli kishisidan, ikki farzandining otasidan ayrilish, judolik alamlarini ramziy obrazlarda ko‘rsatadi. Shoirini topolmay sarson kezgan bahor uning uyiga, yotog‘iga kirib keladi. Shoirani so‘roqqa tutib qalb yaralarini yangilaydi.

Qanday javob aytay, loldir tillarim.

Ana shunday holatga tushgan shoira bahorni yorining qabriga boshlab boradi. U esa bor haqiqatni anglagach, alamda tutoqib daraxtga, endigina uyg‘onayotgan kurtaklarga dardini aytib ko‘z yosh to‘kadi. Bu endi shamollar esib, yomg‘ir yog‘ib turgan holatning ramziy ifodasi. Shu tariqa shamollardan tebranib, yomg‘ir suvlarida yuvilgan gul-u rayhonlarning atri olamni tutib, go‘yo

bir qo‘shiq kuylayotganday mayin, hayotbaxsh ohanglar taraladi. Demak, lirik qahramonning bahor tufayli qalbida uyg‘ongan dard, alam-u azoblari o‘sha gullar atridan, ya‘ni bahorning bor atrofga go‘zallik, yoshlik, yashillik bag‘ishlashidan taskin topib, tarqalib, yorug‘likka, umid va orzularga yana quchoq ochadi. Shoira shundan so‘ng «O‘lmagan ekansan, jonim, sen hayot» deya she‘rni baland pardalarga ko‘tarib, bag‘oyat hayotbaxsh, tantanavor yakun yasaydi.

Hijroning qalbidam, sozing qo‘limda,  
Hayotni kuylayman, chekinar alam.  
Tunlar tushimdasan, kunduz yodimda,  
Men hayot ekanman, hayotsan sen ham!

She‘rning ana shunday yakun topishi go‘yoki qishning sovuq, qorong‘u kunlaridan keyin bahor fasli bor tabiatga yorug‘lik, yasharish bag‘ishlaganiga o‘xshash qiyosiy, ramziy tasavvur beradi. Shoiraning badiiy mahoratiga, ya‘ni ramzlardan, o‘xshatish va jonlantirish kabi she‘r san‘atlaridan mohirona foydalana bilganiga qoyil qolasiz. Zulfiya she‘rlariga qiziqishingiz yanada ortadi.



**Hayotsevarlik, umidbaxsh tuyg‘ular «Baxtim bor, ajoyib kishilar aro...» satri bilan boshlanuvchi she‘rning ham bosh mavzusi. Shoira yoshi oltmishlardan o‘tib, keksalik boshlanishi pallalarida yozgan mazkur she‘rida umri har qancha qiyinchilik, judolik va ayriliqlarga qaramay, yaxshi insonlar orasida kechganini, shukronalik hislarini qalamga oladi.**

Atrofni o‘ragan odamlar unga hamisha yaxshilik tilaganlarini, biri kulgu-quvonch baxsh etsa, boshqa birovi orzu-maqсадlar sari intilib yashashga chorlaganini, shulardan quvvat olib, yelkasiga tog‘ ortsa ham ko‘tara olgulik qudrat his etayotganini aytadi. Bu holat shoirani tinmay ishlashga, qo‘lidagi qalamni bir dam qo‘y-

may yozishga, ijodga undaydi. U hali uzoq yillar ilhom va shijoat bilan ijod qilishini bildirar ekan, hayotga muhabbati, ertangi kuniga ishonchining kuchliligini anglatadi o'quvchiga. Bu bilan she'rxon qalbiga ham umidbaxsh tuyg'ular solib, uni ham o'tayotgan kunlaridan zavqlanib yashashga, yaratishga, bunyodkorlikka da'vat etadi. Avvalgi she'rlardagi tabiat go'zaligi, bahor tarovatidan paydo bo'lgan hayotsevarlik hislari endi yaxshi, ajoyib insonlar bilan hamnafas, zamondosh bo'lib yashayotgani tufayli yanada kuchayadi, mustahkamlanadi.

Muhtaram o'quvchi, shoira Zulfiyaning Sizga taqdim etilgan navbatdagi she'ri yuqorida bir-birini mavzu va mazmun jihatidan to'ldiruvchi she'rlardan farqli, ammo g'oyaviy xususiyatlariga ko'ra juda yaqindir. Bu Zulfiya opaning 1954-yilda jamoat arbobi sifatida turli mamlakatlarda bo'lib, tinchliksevar odamlar, har qanday urushlarga yo'l qo'ymaslik uchun kurashuvchilar saflarida ishtirok etgan pallalarida yozilgan «O'g'lim, sira bo'lmaydi urush» nomli mashhur she'ridir.

She'r yozilgan sanadan o'n besh yil avval Ikkinchi jahon urushi boshlangan edi. Nemis-fashist bosqinchilari avval Yevropani, so'ngra boshqa mamlakatlarni urush, qirg'inlar bilan bosib olishga kirishdi. Yuzlab shaharlar, qishloqlar vayron qilindi, millionlab odamlar – yosh-u qari, ayollar va bolalar ayovsiz qirildi, konslagerlarda ne-ne azob-u uqubatlarga mahkum etildi. Bu urushning jarohatlari bitmay turib, dunyoning boshqa joylarida zo'ravonlik, kuchsiz davlatlar ustidan hukmronlik qilish istagidagi yovuz niyatli odamlar tomonidan yangi urush xavflari paydo bo'la boshladi. Afsuski, bunday xavf hali-hanuz davom etmoqda. Hozir ham dunyoning turli hududlarida urush olovlari yonmoqda, uylar vayron, ayollar, bolalar qirilmoqda. Kuchli, katta mamlakatlarning zaif, qoloq mamlakatlarni bo'ysundirishga, ularning boyliklariga egalik qilishga, urush, zo'ravonlik bilan o'z manfaatlarini qondirishga urinishlar kuchaymoqda. Boshqa bir tomonda diniy aqidaparastlik, terrorizm, jaholat urushlari ham avj olmoqdaki, bularga qarshi kurashlarda shoir-

larimizning urushni qoralab yozgan asarlari yana dolzarblik kasb etmoqda. Shu jumladan, «O‘g‘lim, sira bo‘lmaydi urush» she‘ri ham.

Shoira she‘rning boshlanishida fikrni yana bahor fasliga buradi. Uning tug‘ilish, yosharish, uyg‘onish pallasi ekaniga ishora qilib, bahor fasli manzaralari, xislatlarini yodga olib, uni ulg‘ayib borayotgan o‘spirin o‘g‘lining misolida namoyon etib, agar urush bo‘lsa, shu hayot davom etadimi, bu go‘zalliklar, quvonchshodlik, zavq, umid-orzular yo‘q bo‘ladimi, degan ritorik so‘roqlarga undaydi o‘quvchi xayolini. Bu so‘roqlar urush yillari halok bo‘lgan ota haqidagi alam-armonlar bilan javobini topadi.

Urush, noming o‘chsin jahonda,  
Hamon bitmas sen solgan alam.  
Sen tufayli ko‘p xonadonda,  
Ota nomli buyuk shodlik kam.

Shu satrlardan keyin shoira lirik chekinish qilib, otalik baxti, otasizlik alami, o‘zining ham ota, ham ona bo‘lib farzandini tarbiyalayotganidan so‘z ochadi. O‘g‘lining qaddu bastiga boqib, umid va ishonchga to‘liq kelajak orzularidan so‘ylaydi. Xalqimiz orasida tarqalgan go‘zal bir tushunchaga ishora qilib, aynan xalqona ibora qo‘llaydi.

Mana, yurtga o‘g‘il o‘stirgan  
Bir davlatmand boy bo‘lib qoldim.

Ana shu satrlardan so‘ng qoya kabi onaning yonida turgan, suyansa suyangudek mustahkam himoyachisi borligidan g‘urur hissi ifoda etiladi. Pirovardida, bu tuyg‘ular onaning «Yo‘q, urushning nomi ham o‘chsin!» degan hayqirig‘iga sabab bo‘ladi. Ona farzandini hayot uchun, hayotni davom ettirish, umrni farovon qilish uchun dunyoga keltirganini aytar ekan, dunyo onalarini har qanday urushga qarshi kurashmoqqa chorlaydi, birlashishga undaydi.

Ko'krak suti va mehnat bilan  
Biz jahonga berganmiz turmush,  
Ona qalbi oyoqqa tursa,  
O'g'lim, sira bo'lmaydi urush!

Ko'rinadiki, bahoriy manzaralar, o'g'il o'stirish baxti, otasizlik armonlari kuylangan she'r mantiqan urush va qirg'inlar tufayli sodir bo'ladigan baxtsizliklar, mudhish oqibatlar, tinchlik va farovonlikning naqadar oliy va tansiq ne'mat ekanligi, buning qadriga yetish, shukronalik tuyg'ulari bilan yashash haqidagi teran o'ylarga yetaklaydi. Mazkur she'r ana shu g'oyaviy mazmuni, ibrat va fazilatlarini bilan sira eskirmaydi, hamisha dolzarbligini, ahamiyatini saqlab qoladi.



### *Savol va topshiriqlar*

1. Zulfiya she'riyatining asosiy g'oyaviy xususiyatlari nimalardan iborat?
2. «Bog'lar qiyg'os gulda» she'rining ramziy ma'nosini tushuntirib bering.
3. Shoirira tog'day tayanch – «orqa tog'» deganda nimani nazarda tutadi?
4. «O'zbekiston – bag'ri keng diyor» mavzusida yozma ish yozing.
5. «Bahor keldi seni so'roqlab» she'rida jonlantirish usuli orqali shoirira qanday manzaralarni chizadi va nimalarga ramziy ishoralar qiladi?
6. Hayotsevarlik, umid tuyg'ulari «Baxtim bor ajoyib kishilar aro...» she'rida qanday ifoda topgan?
7. Urush va tinchlik tushunchalari, farzandlar kelajagi, onalarning hayot, tiriklik uchun kurashi g'oyalari aks etgan «O'g'lim, sira bo'lmaydi urush» she'rining dolzarbligini va ahamiyatini haqida so'zlang.
8. Zulfiya she'riyatining tarbiyaviy ahamiyatini tushuntirib bera olasizmi?



## *Pirmqul QODIROV*

*(1928–2010)*

Zamonaviy o‘zbek nasrining rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan adiblarimizdan biri O‘zbekiston xalq yozuvchisi Pirmqul Qodirovdur. U o‘z safdoshlari – Asqad Muxtor, Said Ahmad, Odil Yoqubovlar bilan birga ustoz adiblar – G‘afur G‘ulom, Oybek, Abdulla Qahhorlar qalamini yerga tushirmay, milliy adabiyotimiz ravnaqini yana bir pog‘ona yuksaltirgan taniqli yozuvchi hisoblanadi.



**Pirmqul Qodirov asarlarini nafaqat Markaziy Osiyo davlatlari hududida, balki uzoq xorijiy mamlakatlarda ham sevib mutolaa qiladilar, o‘qib o‘rganadilar.**

Pirmqul Qodirov 1928-yilning 25-oktabrida hozirgi Xo‘jand viloyati hududidagi Kengko‘l qishlog‘ida cho‘pon oilasida dunyoga kelgan.

Kolxozlashtirish (1930–1933-yillar) davrida ko‘pchilik qatori uning otasi – o‘ziga to‘q Qodir cho‘pon ham quloq qilinadi. Bu voqea ko‘p bolali oilaning kundalik tirikchiligigagina emas, farzandlarning keyingi taqdiriga ham og‘ir ko‘lankalar soladi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida o‘spirin Pirmqul kolxozdagi mashaqqatli yumushlarni bajarishda kattalarga yelkadosh bo‘ldi,

bir parcha qora non topib yeyish qanchalar qiyinligini o‘z ko‘z-lari bilan ko‘rdi.

Qishloq maktabida yaxshi o‘qigani, ilm-u ijodga chanqoqligi tufayli izlab-izlab Toshkent davlat universitetini topib keldi va uning sharqshunoslik fakultetiga o‘qishga kirdi. 1951-yilda bu fakultetni muvaffaqiyatli bitirgach, bir muddat Til va adabiyot institutida ishladi. P. Qodirov adabiy ijodning sir-u sinoatlarini chuqur o‘rganish maqsadida Moskvadagi aspiranturaga kiradi va 1954-yilda ustozi Abdulla Qahhor asarlarining til va uslubiy jihatlari tadqiq etilgan nomzodlik dissertatsiyasini yoqlaydi.



**Talabalik paytidayoq Pirmqul Qodirov o‘zining dastlabki kitobi – «Studentlar»ni (1951-yil) e‘lon qildi. Shundan keyin uning ko‘plab hikoyalari, «Qadrim» (1961-yil), «Erk» (1968-yil), «Meros» (1974-yil), «Yayra institutga kirmoqchi» (1979-yil), «Najot» (1980-yil) singari qissalari, «Uch ildiz» (1958-yil), «Qora ko‘zlar» (1966-yil), «Olmos kamar» (1976-yil), «Yulduzli tunlar» (1979-yil), «Avlodlar dovoni» (1989-yil) nomli yirik romanlari millionlab o‘quvchilarini topdi.**

Pirmqul Qodirovning yuqorida sanalgan asarlari turli mavzularni, har xil kasb egalari hayotini badiiy aks ettiradi. Ularning birida paxtakorlar («Meros»), boshqasida ziyolilar («Uch ildiz»), yana birida neft konlarini izlovchilar («Qadrim») hayoti qalamga olingan bo‘lsa-da, barchasida inson taqdiri, uning ruhiy dunyosi qatlamlari chuqur mushohada qilinadi.

Abdulla Qodiriy, Oybek singari adiblar boshlab bergan tarixiy mavzular talqini P. Qodirovni ham jiddiy izlanishlar sari rag‘batlantirdi. U qariyb yigirma yillik umrini mana shu izlanishlarga bag‘ishladi. Holbuki, sho‘ro zamonida milliy tarix qatlariga nazar tashlash, uni xolis yoritish nihoyatda qaltis ish sanalar, yozuvchini yomonotliqqa chiqarish hech gap emas edi. P. Qodirovning dastlabki tarixiy asari – «Yulduzli tunlar» («Bobur») romani atrofida ham sho‘ro mafkurachilari chakana vahima qo‘zg‘ama-

dilar. Yozuvchini tarixga to‘g‘ri yondashuvni bilmaslikda, zolim podsholarni ulug‘lashda, o‘tmishni ideallashtirishda aybladilar. Asarning ko‘p joylarini qayta ishlashga majbur etmoqchi bo‘ldilar. Buni qarangki, mana shu pastkashlikka rahbarlik qilgan yoki bosh qo‘shgan ne-ne zamona zo‘rlarini birov eslamaydi, agar eslasa ham tarixiy xotira jallodlari sifatida irganib tilga oladi. Pirimqul Qodirovni esa Yaratganning o‘zi qo‘lladi. Mustaqillik yillari yozuvchi va uning ijodi qarshisida barcha eshiklar ochildi – adib asarlari o‘nlab xorijiy tillarga tarjima qilinib olamga yuz tutdi.

Bugun shuni to‘la ishonch bilan aytish mumkinki, o‘zbek adibi Pirimqul Qodirov shoh va shoir Bobur hamda uning bir-biriga o‘xshamagan farzandlari taqdirini to‘laqonli badiiy qayta yaratishda tom ma‘nodagi tarixiy vazifani ado etdi. Albatta, kelajakda Bobur to‘g‘risida, uning sulolasi vakillari haqida ko‘plab badiiy va ilmiy asarlar yaratiladi. Ularning dunyoga kelishida esa kelajak mualliflariga Pirimqul Qodirov tajribasi samarali xizmat qilishi shak-shubhasizdir.

## **YULDUZLI TUNLAR (BOBUR)**

*(romandan parcha)*

Bobur mingan yoldor saman ot egasining iztiroblarini sezganday yugan suvlig‘ini asabiy chaynaydi, jilovni tortib, oldinga uchmoqchi bo‘ladi. Qosimbekning to‘riq qashqasi saman bilan yonma-yon yo‘rg‘alab boradi. Yo‘l Sirdaryoning baland qirg‘og‘idan kunchiqish tomonga qarab ketadi. Bobur tezroq Andijonga borib, ota yurtini Ahmad Tanbal istilosidan xalos qilishga oshiqadi. Qosimbek uni Xo‘jandda to‘xtab kuch yig‘ishga, vaziyat yetilishini kutishga undaydi.

– Amirzodam, Samarqanddan bemavrid yo‘lga chiqqan ekanmiz. Andijon choparini kutsak bo‘larkan. Endi shoshilmaylik.

– Ustozim Xo‘ja Abdullani osib o‘ldirgan Tanbal onam bilan egachimni sog‘ qo‘ygaymi? Ularni kim qutqargay?

– Parvardigor o‘zi qutqaribdir. Hazrat onangiz bilan egachingiz Andijondan Qo‘qonga kelibdirlar.



– Kim aytdi?

– Tohir ularni Qo‘qondan berida yo‘lda ko‘ribdir. Bir kecha Konibodomda tunab, keyin Xo‘jandga borurmiz deyishibdir.

– Qo‘qon hali bizga tobe‘mi?

– Ha, shukr. Xo‘jand ham sizga xayrixoh!

Bu xabarlar Boburga xiyol taskin berganday bo‘ldi. Qosimbek so‘zida davom etdi:

– Onaizor sizni behad sog‘ingandirlar. Mulozimlar bilan peshvoz chiqib kutib olsangiz qanchalik shod bo‘lg‘aylar. Ungacha men Xo‘jand dorug‘a<sup>1</sup>si bilan so‘zlashib, sizlarga joy hozirlaymen.

Boburning o‘zi ham o‘n oydan beri ko‘rilmagan onasi va egachisining iliq mehrlariga juda tashna edi. Qosimbekning so‘nggi taklifi ma‘qul tushib, mulozimlari va ikki yuztacha qo‘riqchi navkarlari bilan Xo‘janddan Konibodom yo‘liga chiqdi.

Qayroqqumdan berida tuya va xachirlarga ko‘ch ortgan karvon ko‘rindi. Karvon ortida sandiqlar yuklangan katta g‘ildiraklik qo‘qon aravalar ham kelmoqda. Ularning hammasini to‘rt-besh yuz kishilik otliq navkarlar uch tomondan qo‘riqlab yo‘l yurmoqda. Xon qizi bo‘lgan Qutlug‘ Nigor xonimning besh yuzdan ortiq xos navkari borligi Boburning yodiga tushdi.

Oldingi qatordagi qo‘riqchilar orasida bo‘z ot minib kelayotgan Qutlug‘ Nigor xonim Boburni sallasiga qadalgan tojdorlik belgisidan tanib, otini o‘g‘li tomon yeldirdi.

Ona-bola va egachi-ini otlaridan tushib, quchoqlashib ko‘rishar ekanlar, goh xonumondan ayrilish alamlarini, goh diydor ko‘rishish quvonchlarini ichlariga sig‘dirolmay ko‘zlariga dambadam yosh olishar edi.

Yana otlanib Xo‘jandga yetgunlaricha ko‘rgan-kechirganlarini bir-birlariga so‘zlab berishdi.

– Tanbal asoratidan qanday qutuldilaringiz? – so‘radi Bobur onasidan.

---

<sup>1</sup> **Dorug‘a** – boshliq, hokim.

– Mana shu qo‘riqchi navkarlarim Tanbalni biz turgan joyga yaqin keltirmadi. «Men Yunusxonning qizimen, inim Mahmudxon Toshkent tojdoridir, agar Ahmadbek bizga ziyon yetkazsa, xonlar oldida javob berur!» – deb orada turgan odamlariga aytdim. Harqalay, gapim ta’sir qilibdi, beshikast chiqib keldik.

– Afsus, men bundan bexabar qoldim! Chopar kechikdi!

– Biz ham shunisiga kuyinurmiz, Boburjon! Siz bizni deb Samarqandni jangsiz topshiribsiz!

Shu tarzda dardlashib, Xo‘jandga yetib keldilar. Shahar dorug‘asi nufuzli a‘yonlari bilan qo‘rg‘on darvozasidan chiqib, Bobur va uning onasini ehtirom bilan kutib oldilar. Bu qadimiy shahar xalqi Chingizxon bilan mardona olishgan Temur Malik davridan beri mo‘g‘ul bosqinchilaridan ko‘p jabr ko‘rgan. Hozir ham Toshkentda hukmron bo‘lib olgan chingiziylar Xo‘jandga xavf solib turardi. Buning ustiga Andijon ham Ahmad Tanbalday zolimlarning qo‘liga o‘tgan paytda xo‘jandliklar Bobur kabi temuriy shahzodalar himoyasiga ehtiyoj sezardi. Shuning uchun shahar dorug‘asi Boburni oliy darajada e‘zozlab, Sirdaryo sohilidagi ulkan bog‘ini ikki oshiyonlik qasri bilan uning ixtiyoriga berdi.

Qosimbek Boburga, uning onasi va egachisiga ikkinchi oshiyondagi eng yaxshi xonalarni tayyorlatib qo‘ydi. O‘zi bek-u mulozimlar va qo‘riqchi yigitlar bilan birinchi qavatni egalladi.

Hammalari narsalarini joylashtirib tinchiganlaridan so‘ng, ikkinchi oshiyondagi katta tanobiy uyda Bobur onasi va egachisi bilan yakkama-yakka qolib, boshqalar oldida aytilmaydigan dard-u alamlarini to‘kib soldilar.

– To‘le’ bizdan yuz o‘girdi! – dedi Bobur «uh» tortib, – Tanbalning o‘n ming qo‘shini bor emish, rostmi?

– Rost! Nobakorlar sizni «Samarqandda vafot etdi», deb ovoza tarqatdilar, – dedi Qutlug‘ Nigor xonim. – Behush yotganingizni ko‘rib kelgan choparni guvoh qilib ko‘rsatib, ko‘p odamni bunga ishontirdilar. Shundan so‘ng tarafdorlaringiz ma‘yus tortib, Tanbal bilan Jahongirga bo‘yin egdilar.

– Qosimbek ham xato qilganki, meni behush ahvolda ko‘rgan

navkarni Samarqandda to‘xtatib turmagan. Buni sir tutmoq kerak edi! Hozir bizning bir yarim mingga yetar-yetmas navkarimiz qoldi. Ularning ham ko‘pi vodiydagi uylariga, ahli oilasiga talpinur, Xo‘jandda ko‘p turolmay tarqab ketgay. Men endi qaysi kuch bilan Tanbalga qarshi boray? Bu ne ko‘rgulikki, birvarakay ham Samarqanddan, ham Andijondan mahrum bo‘ldik! Ikki mulk orasida muallaq qoldik! Najot yo‘q! Atrofimiz zim-ziyo qorong‘ilik! Boshi berk ko‘cha!

Bobur jigarbandlariga dil yorib so‘zlar ekan, ilojsizlikdan ko‘ngli ezilib, ruhi qiynalar, ko‘zlariga yosh quyilib kelardi.

Yaqindagina og‘ir xastalikdan turgan o‘n olti yoshlik o‘g‘li-ning bunchalik ezilib qiynalishlari Qutlug‘ Nigor xonimni iztirobga soldi.

– Boburjon, bolam, shukurki, sog‘-salomat ko‘rishdik! Xayriyat, tuzalib ketibsiz.

– Baraks<sup>1</sup>, tuzalмай turganim ma‘qul edi! Samarqandni tashlab chiqmas edik!

Bunday og‘ir kayfiyat bilan yolg‘iz o‘g‘li yana uzlikib yotib qolishi mumkin. Xavotirlangan ona Boburga taskin beradigan, uning ko‘nglini ko‘taradigan chora izlay boshladi.

Shunda qizi Xonzoda begim yordamga keldi:

– Onajon, amirzodamni mamnun qiladigan noyob bir sovg‘amiz bor edi-ku!

– Qaysi sovg‘a?

– Shaxnishinning<sup>2</sup> orqasidan topilgan mahfiy sandiq-chi!

– Ha, aytmoqchi! – Qutlug‘ Nigor xonim o‘g‘liga yuzlanib, ovozini sirli tarzda pasaytirdi. – Boburjon, sizga atalgan buyuk bir meros topildi. Yuring, ko‘rsatay!

Qutlug‘ Nigor xonim Boburni va qizini o‘zi joylashgan narigi tomondagi xonaga boshladi. Bobur onasi bilan yonma-yon borar ekan, uning bo‘yi shu o‘n oy ichida xiyla o‘sganini, Bobur tez ulg‘ayib o‘n olti yoshida devqomat, pahlavon yigit bo‘layotganini

<sup>1</sup> **Baraks** – aksincha.

<sup>2</sup> **Shaxnishin** – pana joy, tuynuk.

sezgan Qutlug' Nigor xonim ichida Yaratganga yana bir shukrona aytib qo'ydi. Ayvoni Sirdaryoga qaragan bahavo, keng xonaga kirdilar. Gilamlar, beqasam ko'rpachalar to'shalgan xonaning to'rida silliq charm qoplangan sandiq ko'rindi. Uchovlari shu sandiqqa yaqinlashganlarida Qutlug' Nigor xonim Boburga qarab dedi:

– Esingizdami, otangiz sizga: «Bobokalonimiz Amir Temurdan qolgan noyob meros bor, asrab-avaylab yuribmen, katta bo'lganingizda berurmen», – der edilar?

– Ha, otam bizga Sohibqiron bobomiz haqida ko'p g'aroyib hikoyalar ham aytib berganlar.

– Bobokalonlariga ixloslari zo'r edi-da. Vafotlaridan keyin o'shal merosni Axsidan izladim, topolmadim. O'tgan hafta Andijonda ko'ch yig'ishtirgan paytimizda xonayi xosning devoriga osilgan turkman gilamini olsak, usti shuvalgan tuynukning izi ko'rindi... Tuynuk orqasidagi maxfiy joyga mana shu sandiq berkitilgan ekan!..

Qutlug' Nigor xonim namoz o'qigan paytidagi kabi ezgu bir tovush bilan sekin:

– Bismillohir rahmonir rohiym! – dedi-da, sandiqni ochdi. Undan nafis ipak matoga o'ralgan oltin sopli qilichni ikki qo'llab olib o'g'liga ko'rsatdi:

– Sohibqiron Amir Temurning qilichlari!

Bobur quloqlariga ishonmay, ko'zlarini katta-katta ochib qilichga tikildi:

– Rostdanmi, a?

– Yozuvlari bor! Oling, bolam, o'qib ko'ring!

Qilichning qini yengil bir ma'dan qotishmasidan quyma qilib yasalgan, ustidan oltin suvi yugurtirilgan edi. Qinning yuz tomoniga ikkita yirik yashil zumrad toshi qadalgan, ularning oralig'ida chiroyli xattotlik harflari bilan bitilgan arabcha yozuv bor edi.

Bobur qilichni onasining qo'lidan ikki qo'llab oldi-da, yozuvini ko'zlariga yaqin keltirib o'qidi:

«Bizkim, maliki Turon, podshohi Turkiston Amir Temur Ko'ragon farzandimiz Mironshoh Mirzoga To'xtamish bilan muhori-

bada ko'rsatgan jasorati uchun o'z qilichlarimizdan birini in'om etdik».

Bobur bu qilich dastasiga Amir Temurning qo'li tekkanini, balki Sohibqiron uni janglarda ishga solganini ko'z oldiga keltirib hayajonlanib ketdi. To'xtamishxon va boshqa chingiziylar bilan qilingan dahshatli janglar xayolida gavdalandi.

– Qilichning o'zida ham bitik bor, – dedi past tovush bilan Xonzoda begim.

Bobur qilichning oltin sopidan sekin tortib, uni bir qarichcha qinidan chiqardi. Shunda olmosday yaltiragan qisqa bir yozuv ko'ziga jilvalanib ko'rindi. Amir Temurning muhridagi «Rosti – rusti», ya'ni «Kuch – adolatdadir» degan so'zlar qilichning po'latiga qadama tarzida mustahkam qilib bitilgan edi.

Bu qisqa so'zlarni o'qiganda negadir Boburning eti jimirlab ketdi, dilida qo'zg'algan kuchli bir tug'yondan entikdi, qilichdagi olmos yozuvni ko'zlariga surib o'pdi.

Qilich uncha og'ir emas edi. Bobur uni beliga taqqanda atrofidagi hamma narsa ko'ziga boyagidan boshqacha – allanechuk sokin va salobatli ko'rindi.

– Onajon, siz menga yangi bir ruh ato qildingiz!

– Bobokalonlaringizning ruhi sizga madadkor bo'lsin, o'g'lim! Bu qilichni Mironshoh bahodirdan so'ng otangizning otalari Sulton Abusaid bahodir taqqan ekanlar. Inshoolloh, siz ham bobolaringizdek bahodir bo'lg'aysiz!

– Aytganingiz kelsin!

– Xudo rahmati Abusaid bobongiz vafot etganlaridan so'ng qolgan meroslari o'g'illari orasida taqsim etilur. Katta o'g'illar oltin-u javohir to'la sandiqlarni talashib olurlar. Ammo sizning jannatmakon otangiz mana shu sandiqdagi qilich bilan xotirotlar bitilgan daftarlarni afzal ko'rurlar. Chunki bu xotirotlarda Amir Temur hazratlarining ko'rgan-kechirganlari bitilmishdir. Xonzoda, qizim, siz o'qib ko'rdingiz, shekilli?

– Ha, Sohibqiron bobomiz yigitlik paytlarida chingiziylar hukmronligiga qarshi chiqqan ekanlar. El-yurt Samarqandda

Temurbekni o‘z hukmdorlari deb e‘lon qilgan ekan. Chingiziylarni yurtimizdan quvmoqchi bo‘lganlar ko‘p ekan. Bundan g‘azablangan Tug‘luq Temurxon bilan uning o‘g‘li Ilyosxo‘ja Mo‘g‘ulistondan ellik ming qo‘shin bilan kelib, Temurbek tarafdorlarini qirg‘in qilurlar. Temurbekning o‘zi Qoraqum, Qizilqum sahrolarida, Hisor-u Badaxshon tog‘larida to‘rt yil quvg‘inda yurib, kuch to‘playdirlar.

Bobur bu hodisalar haqida otasidan ham ko‘p maroqli hikoyalar eshitganini esladi. Ayniqsa, Temurbekning suyukli yosh xotini O‘ljoy Turkon og‘a bilan eng og‘ir damlarda birga bo‘lgani, goho xotinini otiga mindirib, o‘zi qum sahrosida piyoda yurganlari yosh Boburga kuchli ta‘sir qilgan edi.

Shuni biladigan Xonzoda begim inisiga mehri toblanib tikildi:

– Sizda ham Sohibqiron bobokaloningizdagi jo‘mardlikdan bor, amirzodam! – dedi. – O‘shdagi suhbatlarimiz yodingizdami? Siz meni Ahmad Tanbalning tajovuzidan qutqarganingizni umrbod unutmagaymen! Bo‘lajak kelinimiz Oyisha begimni siz Samarqanddan yog‘iy asoratidan xalos qilib, bizga xayrixoh Toshkentga kuzatib qo‘yibsiz. Bu ham bir jo‘mardlik emasmi? Yetti oy qamal azobini tortgan samarqandliklarga oshlik tarqatib-siz, urug‘ligi qolmagan dehqonlarga bahorda urug‘lik keltirib beribsiz. Bu hammasi dilingizda adolat tuyg‘usi kuchli ekanidan dalolatdir. Belingizdagi qilichga Sohibqiron bobokaloningizning «Kuch – adolatdadir» degan hikmatlari bejiz bitilmagan. Ahmad Tanbalning o‘n ming askari bo‘lgani uchun u hozir «Men kuchli-men!» deb yuribdir. Ammo yolg‘onning umri qisqa! Ahmad Tanbal Andijonni aldanchilik bilan egalladi, sizni «o‘ldi» deb ovoza tarqatdi. Siz sog‘-salomat qaytganingizni odamlar hademay bilurlar, Tanbalning yolg‘oni fosh bo‘lur. Uning zolimligidan hamma bezor bo‘ladigan kunlar kelur.

– Ana o‘shal kunlar kelguncha sabr-bardoshli bo‘ling, Boburjon, – dedi onasi. – Sohibqiron bobongiz mana shu Xo‘jandga ham necha bor kelganlar. Sirdaryodan necha marta o‘tganlar,

vaziyat yetilishini yillar davomida kutganlar, axiyri adolat g‘olib chiqqan kunlarga yetganlar. Siz ham yetursiz, ishoning!

– Ishondim, onajon! Siz bilan egachim mening dilimda o‘chib qolgan umid chiroqlarini qayta yondirganday bo‘ldilaringiz. Minba‘d men doim Sohibqiron bobokalonimizdan saboq olib ish tutgaymen!

Onasi in‘om qilgan buyuk meros chindan ham Boburning dilini ravshan qilib yuborgan edi. Ular kelib tushgan bog‘da o‘riklar oppoq bo‘lib gullagani endi uning ko‘ziga tashlandi. Daryo bo‘yidagi qalin chakalakzorda bulbullar basma-bas say-rayotgani qulog‘iga chalindi. Ayvonga chiqqanda kechki shabada yuziga ipakday mayin salqinlik berdi.

\* \* \*

Ammo bu mas‘ud damlardan keyin kelgan kunlar, oylar, hatto yillar lomakon<sup>1</sup>lik va sargardonlikda o‘ta boshladi. Sohibqiron bobokalonidan saboq olib yashashga ahd qilgan Bobur buning qanchalik qiyin bo‘lishini o‘z boshiga og‘ir kunlar tushganda bildi. U onasi in‘om qilgan sandiqdagi xotirotlarni takror-takror o‘qib, Sohibqiron bobosini yigitlik paytidagi ismi bilan xayolida Temurbek deb atashga o‘rgandi. Temurbek yigirma besh yoshida Samarqand va Shahrisabzdagi xonumonidan judo bo‘lgani va ota yurtining to‘rt tomoniga bosh urib najot izlagani Boburning hozirgi ahvolini eslatardi.

To‘g‘ri, Temurbekka tajovuz qilgan Ilyosxo‘ja va Amir Bekchiklar Ahmad Tanbaldan yuz chandon qudratliroq va xatarliroq edi. Ular Temurbekni tutib olib o‘ldirish uchun minglab odamlarni safarbar etadilar. O‘lim xavfi yillar davomida Temurbek bilan izma-iz yuradi. Qoraqum sahrosidan narida, Xiva bo‘sasg‘asida Temurbek oltmish yigiti bilan ming kishilik yov qurshovini qo‘lda qilich bilan yorib chiqib, qutulib ketadi.

Endi o‘n yetti yoshga kirayotgan Bobur hali bunday dahshatli xatarlarga duch kelgan emas. Faqat ota yurtidan ayrilib, lomakon

---

<sup>1</sup> **Lomakon** – makonsiz, joysiz.

bo‘lib yurgani va Ahmad Tanbalga bas kela oladigan kuchli qo‘shin yig‘ish nihoyatda mushkul bo‘layotgani uni qiynaydi. Boburning ishongan odamlari yashiriqcha Andijon-u Axsiga, Marg‘ilon va O‘shga borib kelmoqda. Xayrixohlar ko‘p, ammo yurak yutib maydonga chiqadiganlar kam. Boburning o‘zi ham bu yog‘i Isfara va Konibodomga, u yog‘i Zomin va Jizzaxgacha, janubda O‘ratepa, shimolda Toshkentgacha – hamma joyga bir necha marta borib keldi. Bir yarim yildan beri qishni qish, yozni yoz demay yo‘l bosdi. Sirdaryodan qayta-qayta suzib o‘tdi. Qishda muzni teshib cho‘milgan paytlari bo‘ldi. Uning o‘ziga o‘xshab chiniqqan yigitlari Temurbekning Hisor tog‘larida, afsonaviy g‘orlarda yashab toblangan yigitlarini eslatadi.

Biroq navkar-u sardorlari bilan bir joyda uzoq vaqt mehmon bo‘lib turishga yuzi chidamaydi. Chunki haftalar, oylar davomida yuzlab odamlarga ovqat, otlarga yemish topib berish mezbongalarga juda og‘ir tushishini sezadi. Shuning uchun onasi va egachisini Xo‘janddan O‘ratepaga, xolasi Xub Nigor xonimning uylariga keltirib qo‘ydi. O‘zi uch yuzga yaqin bek-u navkarlari bilan janubdagi tog‘larga chiqib ketdi. Ovchi deb ataladigan bir qishloq yaqiniga chodir va o‘tovlar tikishib, ancha vaqt ov o‘ljalari bilan ro‘zg‘or tebratishdi.

Ovchi qishlog‘iga tor bir daradan o‘tib boriladi. Daraning tubidan odamni oqizadigan katta suv hayqirib oqadi. Suv bo‘yida besh qavatlik uyday bir bahaybat qoyatosh osmonga bo‘y cho‘zib turadi.

Bobur shu qoyatoshning ustini tekislatib, chodir o‘rnattirgan. Ovdan bo‘shagan paytlarida chodirda o‘ltirib kitob o‘qiydi, xotira daftariga ko‘rgan-kechirganlarini yozadi, she‘r mashq qiladi.

Bir kun shu chodirda Bobur Mirzo Ulug‘bekning «Tarixi arbaa ulus»<sup>1</sup> kitobini o‘qib o‘tirganda, daraning narigi chetidan bir otliq odam jadallab kelayotganiga ko‘zi tushdi.

Oti terga botgan bu otliq Marg‘ilondan kelgan chopar yigit edi. U Bobur qarshisida tiz cho‘kib arzini aytdi:

---

<sup>1</sup> «To‘rt ulus tarixi».



– Amirzodam, meni Marg‘ilon dorug‘asi Ali Do‘stbek tog‘oyingiz yubordilar.

– Bizga xiyonat qilib, Andijonni Tanbalga yashiriqcha topshirgan tog‘oyimizmi?

– Ha, tog‘oyingiz bu qilgan ishlaridan hozir ming pushaymonlar. Ahmad Tanbal uning uylariga bostirib kelib, yaxshi ko‘rgan qizlarini zo‘ravonlik bilan haramiga olib ketibdilar. Mol-mulkini talatibdir!

– Qasos qaytar ekan-da – dedi Qosimbek. – Do‘stbekning o‘zi Andijonda bizning mol-mulkimizni talatgan edi.

– Janob amiral umaro, Tanbalning amaldor-u soliqchilari ham jabr-zulmni haddidan oshirib yubordi. El-yurt ularga qarshi isyon ko‘taradigan bo‘lib turibdir. Ayniqsa, marg‘ilonliklar hozir jo‘shu xuruj<sup>1</sup>ga kelgan. «Bobur mirzo kelsalar, qo‘rg‘on darvozalarini ochib bergaymiz!» – deb tog‘oyingiz meni huzuringizga yubordilar.

– Tog‘oyimiz Tanbal bilan til biriktirib, bizni unga tutib bersalar-chi?!

– Tepamizda xudo turibdir, amirzodam! – deb chopar qasam ichdi. – Hazrat momongiz Eson Davlat begim Ali Do‘stbekka yaqin qarindosh ekanlar. Momongiz yaqinda Marg‘ilonga boribdilar.

– Siz momomni o‘sha yerda ko‘rdingizmi?

– Ha, maslahatlarini ham oldim. «Ali Do‘stbek bilan Tanbalning yovlashgani rost!» – dedilar. Momongiz sizga salom aytdilar, «Tezroq yetib kelsinlar!» – deb tayinladilar.

Bobur endi hayajon bilan o‘rnidan ko‘tarildi:

– Janob Qosimbek, tavakkal qilaylik! Odamlarga buyuring. Darhol ko‘ch yig‘ishtirsinar!

O‘sha kuni qorong‘i tushguncha barcha o‘tovlar qatori Boburning qoyatosh<sup>2</sup> ustidagi chodiri ham yig‘ishtirib olindi. Tuni bilan yo‘l yurib, sahar palla Xo‘janddan berida bir-ikki soat dam

---

<sup>1</sup> **Jo‘shu xuruj** – qattiq g‘azab, nafrat.

<sup>2</sup> Ovchi qishlog‘i va undan pastroqdagi qoyatosh hozir ham bor. O‘sha joyning turkiyzabon aholisi bu qoyatoshni «Boburtosh» deydi, tojikzabon aholisi esa «Sangi Boburxon» deb ataydi. (Muallif izohi)

oldilar-da, yana yo‘lga tushdilar. To‘rt kunlik yo‘lni bir yarim kunda shitob bilan bosib o‘tdilar. Marg‘ilondan berida Isfayram-soy shovullab oqmoqda. Sahar palla edi. Soy bo‘yida birpas to‘xtadilar. Bobur soy suvidan tahorat olib, ikki rakat namoz o‘qidi. Joynamoz ustida o‘ltirib, Sohibqiron bobokaloniga bag‘ishlab tilovat qildi, ulug‘ ajdodlar ruhidan madad so‘rab yuziga fотиha tortdi. So‘ng tong qorong‘usida Marg‘ilon qo‘rg‘oni-ning yopiq darvozasi oldiga keldilar.

Ali Do‘stbek darvoza qorovulxonasida ularni kutib o‘ltirgan ekan. Darvozani to‘rt enlik ochib, qo‘rqa-pisa Boburga murojaat qildi:

– Amirzodam, Andijonda qilgan gunohlarim uchun afv so‘raymen! Tanbal hammamizni aldagan ekan!

– Minba‘d sadoqat saqlay olurmisiz? – shiddat bilan so‘radi Bobur.

– Qur‘oni karim oldida so‘z berurmen, umrbod sodiq qulingiz bo‘lurmen, amirzodam! Faqat meni inoyatlaringizdan mahrum qilmasangiz, bas!

– Inoyatlar istaganingizdan ham ziyoda bo‘lg‘usidir. Oching darvozani!

Bu buyruqni Ali Do‘stbek darhol ado etdi. Bobur fonus yorug‘i tushib turgan darvozaxonaga kirganda, Ali Do‘stbek o‘zini uning oyog‘i tagiga tashlab yukundi. Bobur uni qo‘ltig‘idan olib turg‘izdi:

– Ma‘zursiz! Tanbalning sodiq odamlari bo‘lsa, hozir uyquda tutdirmoq kerak!

– Uning talonchilari uxlab yotgan joylarini bilurmen!

– Janob Qosimbek, bizning navkarlarimizga siz bosh bo‘ling!

\* \* \*

Tong yorishganda Marg‘ilon ko‘chalarida otliq jarchilar Bobur mirzoning qaytib kelganini e‘lon qildilar. Tanbalning ko‘pchilik odamlari quolsizlantirilgani ham shaharliklarga ma‘lum bo‘ldi. Butun Marg‘ilon ahli oyoqqa qalqdi. Shahar a‘yonlari Bobur ke-

---

<sup>1</sup> Sohib ixtiyor eshik og‘a – saroydagi bosh xizmatkor.

lib tushgan ko'shka borib, uni g'alaba bilan qutladilar. Bozorlarda Tanbal soliqchilari uchrab qolsa, odamlar ularni tayoq bilan urib, shahardan quvdilar. Mahallalarda nog'oralar, karnay-sur-naylar yangradi.

Qosimbek Bobur mirzo nomidan doshqozonlarda palov damlatib, minglab odamlarga osh ulashdi.

Kechagina Tanbal zulmidan motamsaro ahvolga tushgan Marg'ilon bugun Bobur mirzo qaytgani tufayli bayram tusini oldi. Bu hodisa ko'p o'tmay Andijon, Axsi va O'shlarga ham ma'lum bo'ldi. Bobur mirzoning pinjiga kirib olgan Ali Do'stbek Qosimbekning o'rniga sohib ixtiyor eshik og'a<sup>1</sup> bo'lish niyatida edi. U Boburni holi topib, gapning uchini chiqardi:

– Amirzodam, kutganimdan ham ortiq inoyatlar qilmoqchi edingiz...

– Marg'ilon dorug'alig'i sizga yetarlik emasmi?

– Dorug'alikni menga Tanbal bergan edi. Endi bundan kattaroq inoyatni sizdan kutmoqdamen.

– Qani, Andijon-u O'shlar ham bizga qayta nasib qilsa. Keyin o'ylab ko'rurimiz.

– Ittifoqo, O'shdan Qambarbek keldi. O'shliklar ham sizga muntazir emishlar.

– Ammo hozir Andijondan yomon xabar oldik. Ahmad Tanbal katta qo'shin to'plab Marg'ilon tomonga bostirib kelmoqda.

– Unday bo'lsa, O'shga Qosimbek sizdan vakil bo'lib borsin. O'zganga ham o'tib, tarafdorlaringizni ishga solsin!

Ayyor Ali Do'stbek shunday nozik paytda Qosimbekni Boburdan uzoqlashtirib, sohib ixtiyor eshik og'a vazifasini o'zi boshqarmoqchi edi. Lekin Bobur barcha mashaqqatlarni birga boshdan kechirgan qadrdoni Qosimbekdan ajrashgisi kelmadi.

– Janob Do'stbek, Tanbalday yog'iy bostirib kelayotgan paytda ko'pni ko'rgan Qosimbek yonimizda bo'lmog'i kerak. O'shga boshqa bek-u navkarlarni yuborgaymiz.

So'zi yerda qolgan Ali Do'stbek qovog'ini solib, to'mtayib qoldi.

Qosimbekning o‘z odamlari bilan Marg‘ilonda qolgani yaxshi bo‘lgan ekan. Tanbal Andijondan katta qo‘shin bilan Marg‘ilonga hujum qilib kelganda, barcha kuchlar birlashib, himoyaga chiqdilar. Marg‘ilondagi bek-u navkarlar qo‘rg‘ondan tashqaridagi mahallalar va qishloqlardan yig‘ilgan minglab botir yigitlar yordamida Tanbal qo‘shinini uloqtirib tashladilar. Bu orada quvaliklar Tanbalga orqadan zarba berdilar.

O‘sh va O‘zgan xalqi ham Tanbalga qarshi isyon ko‘tarib, Boburga ko‘mak yubordi.

To‘rt tomonidan o‘t ketgan Tanbal tezroq Andijon qo‘rg‘oniga qaytib borib jon saqlamoqchi bo‘ldi.

U Andijonga Nosirbek degan kishini dorug‘a tayinlab kelgan edi. Ahmad Tanbal Marg‘ilonda Boburdan yengilib, talvasaga tushib kelayotganini eshitgan andijonliklar Nosirbekning qarorgohini o‘rab oldilar. To‘rt tarafdin hayqiriq va xitoblar eshitila boshladi:

- Ahmad Tanbal daf bo‘lsin!
- Darvozadan kiritilmasin bu zolim!
- Bobur mirzoga odam yuboring, tug‘ilgan yurtig‘a tezroq qaytsin!
- To‘ydik chingiziyulardan! Bobur kelsin!
- Agar dorug‘a yana Tanbalga yon bossa, qo‘rg‘on darvozalarini biz o‘zimiz Bobur mirzoga ochib bergaymiz!

Toshgan daryoday to‘lqinlanayotgan bir necha ming kishilik izdihom Nosirbekni qo‘rqitib yubordi:

– Xaloyiq! Tinchlaning! Xaloyiq! Menga quloq soling! Oralaringizda mo‘ysafidlar bor! Mana, mening yonimda Shayxulislom janoblari turibdilar. Mo‘ysafidlar jome’ masjidiga borsinlar! Qurollangan yigitlar bizga yordamga kelsinlar. Darvozalarni darhol bekitgaymiz. Tanbalni Andijonga kiritmagaymiz. Juma namozida Bobur mirzoning nomini xutbaga qo‘shib o‘qigaymiz! Keyin buning xabarini mo‘tabar odamlar orqali Bobur mirzoga yetkazgaymiz. Toki ul zoti oliy Andijonga izzat-ikrom bilan qaytib kelsinlar. Shunga rozimisizlar?

Bu reja amalga oshdi-yu, ertasi kuni andijonliklar Bobur mirzoni qo‘rg‘on darvozasi oldida karnay va nog‘oralalar chalib kutib oldilar. U minib kelayotgan gulibodom otning oyog‘i tagiga gilam poyandozlar to‘shadilar. Bobur shodlikdan ko‘zlari yoshlanib, yonida kelayotgan Qosimbekka so‘z qotdi:

– El-yurtda adolat bor ekan-a!?

– Ha, mehr-u oqibat ham kuchli ekan. Faqat yuzaga chiqishi oson bo‘lmas ekan!

– Shukr, mas‘ud kunlarga yetishdik!

\* \* \*

Shu tarzda Andijondan quvilgan Ahmad Tanbal qolgan-qutgan odamlari va ko‘ch-ko‘roni bilan Axsiga yo‘l oldi. Biroq Axsida ham Tanbalga qarshi isyon ko‘tarilgan, Bobur tarafdorlari qo‘rg‘on darvozalarini egallashgan. Tanbalga sadoqat saqlab turgan Aysi dorug‘asi Uzun Hasan arkka kirib bekingan edi.

Bobur va Qosimbekning qo‘shini so‘nggi vaqtlarda besh mingdan ham oshib ketdi. Ular Andijonda ko‘p to‘xtamay, Bandi Solor yo‘li bilan Axsiga yetib bordilar va arkdagi Uzun Hasanni asir oldilar.

Bu xabarni eshitgan Ahmad Tanbal mustahkam qo‘rg‘onlardan biri bo‘lgan Popga qarab chekindi. Ammo u yetib borgunicha Bobur tarafdorlari Pop qo‘rg‘onini ham bekitib, Ahmad Tanbalni darvozadan kirgizmay quvdilar.

Ahmad Tanbal G‘ova orqali Chotqol tog‘lariga qarab chekindi. Uning so‘nggi umidi – katta akasi Tilba Sultondan va Toshkent xoni Mahmudxondan edi. Tilba Sulton xon saroyida so‘zi o‘tadigan eshik og‘a ekanini Bobur bilardi. Ahmad Tanbal Farg‘ona vodiysini talon-taroj qilib orttirgan boyliklaridan katta bir qismini Ohangaron orqali Toshkentga, Mahmudxonga sovg‘a qilib yuborgani ham xufiyalar ma‘lumotidan ma‘lum edi. Lekin Mahmudxon – Qutlug‘ Nigor xonimning akasi bo‘laturib, jiyani Boburning ashaddiy dushmani Ahmad Tanbalga yon bosishi mumkin emasday tuyulardi.

Shuning uchun Bobur qo‘shini Ahmad Tanbalni Chotqol tog‘i etagigacha ta‘qib etib bordi.

Kun sovuq, yo‘llar toyg‘oq. Kechki payt Tanbal besh yuztacha askari bilan Arxiyon degan joydagi qo‘rg‘onga kirib bekindi. Bu qo‘rg‘on devorlariga shoti qo‘yib oshib o‘tish mumkin edi.

– Kech kiryapti, qorong‘i tushmasdan tezroq harakat qilaylik! – dedi Bobur. Ammo shotilarni o‘n chaqirimcha beridagi G‘aznayi Namangandan keltirgunlaricha g‘ira-shira qorong‘i tushdi. Kechki izg‘irinda og‘izdan chiqqan hovur uzoqdan ko‘zga tashlanadi, navkarlarning qo‘li qovushga kelmaydi, gapirganda lablari ham qiyinlik bilan harakatlanadi.

– Amirzodam, – deb Ali Do‘stbek Boburga arz qildi. – Qorong‘i tushib qoldi, yovni o‘zimiznikilardan ajratish qiyin bo‘lg‘ay. Qamalni ertalabdan boshlaylik.

– Ungacha Tanbal qochib ketsa-chi? – so‘radi Bobur.

– Qochib qayoqqa borgay? Naryog‘i tog‘, dovon bekilgan!

– Tanbalning akasi Tilba Sulton Archakent dovoni orqali inisining oldiga kelib-ketibdi-ku, – dedi Qosimbek.

– Ne bo‘lganda ham, endi Tanbal ilik<sup>1</sup>ka tushmog‘i kerak! – dedi Bobur. – Arxiyon qo‘rg‘oni atrofiga chodirlar tikdiring! Ming kishi tuni bilan qorovullik qilsin! Ertadan besh ming kishi bilan devorga shotilarni qo‘yib hamla qilurmiz!

– Bosh ustiga! – deb Ali Do‘stbek bu farmonni bajarishga kirishdi.

Qosimbek Bobur uchun shu atrofning eng obod va ko‘rkam joyi bo‘lgan G‘aznayi Namanganda qarorgoh tayyorlata boshladi.

### «YULDUZLI TUNLAR» («BOBUR») ROMANI HAQIDA

Aziz o‘quvchi, bilasizki, adabiyot inson hayotining turli pallalarini yoritishi mumkin. Bir badiiy asarda hayotga endi kirib kelayotgan bolajon sarguzashtlaridan, boshqasida esa turmushning achchiq-chuchugini obdan totgan oqsoqol taqdiridan xabar-

---

<sup>1</sup> Ilik – qo‘l.

dor bo‘lamiz. Xuddi shunga o‘xshab, bir adabiy asar bugungi kun hodisalaridan hikoya qilsa, yana biri o‘quvchini tarixning olis manzillari sari yetaklaydi.

Tarixiy mavzuda badiiy asar yozish ijodkordan katta mas’uliyatni talab etadi. Zamonaviy, erkin mavzularda qalam tebratayotganda, yozuvchi shaxsiy istagiga, xayoliga istagancha erk berishi mumkin. U o‘zi o‘ylab topgan hodisani, mo‘ljallagan maqsadiga ko‘ra, u yoxud bu yo‘nalishda davom ettiraversa bo‘ladi. Bunda faqat mantiqqa va badiiy ishonirish san’atiga amal qilinsa, bas. Fantastik voqealar talqinida esa yozuvchi bundan-da ko‘proq erkin bo‘ladi.

Tarixiy mavzu haqida esa unday deb bo‘lmaydi. Chunki tarix aniq bo‘lib o‘tgan, hech bir narsani qo‘shish yoki olib tashlash mumkin bo‘lmagan voqealar jamlanmasidir. Qolaversa, tarix muayyan xalqning xotirasi, asrab-avaylaydigan ma’naviy bisoti hisoblanadi. Bu bisotga kim qanday xohlasa shunday yondashuviga o‘zini hurmat qilgan biror xalq yo‘l qo‘yib qo‘ymaydi. Bu mas’uliyat yirik tarixiy hodisalar boshida turgan shaxslar – podshohlar, qirollar, prezidentlar, atoqli davlat va din arboblari, katta siyosatchilar haqida asar yozilayotganda yanada ortadi. O‘tmishning har bir hodisasini yoritishda, uni talqin etishda xolislik, odillik va halolikka rioya etish lozimki, bu hol ijodkordan juda katta bilimni, fuqarolik mas’uliyatini talab qiladi.

Pirimqul Qodirov, shu ma’noda, Cho‘lpon iborasi bilan aytganda, «boshini zo‘r ishga berib qo‘ygan» ijodkor hisoblanadi. Zero, Bobur va boburiylar tarixini yoritish hazilakam ish bo‘lmay, bu mavzularning yozuvchi hisobga olishi lozim bo‘lgan minglab qirralari bor edi.

Yozuvchi hayoti va ijodiga bag‘ishlangan darsimizda aytganimizdek, sho‘ro zamoni mafkurachilari «Yulduzli tunlar» romanidan go‘yo turli xil «g‘oyaviy xatolar» topishib, asar va uning muallifini badnom qilishga urinishdi. Ijodkorning o‘zi aytganidek, «mustabid tuzum tazyiqi ostida roman olti yil chop etilmay yotdi».

Muammoning yana bir jihati shundan iborat ediki, boburiylar sulolasi hukm surgan bugungi Afg'oniston, Pokiston, Hindiston singari davlatlarda yashovchi aholining o'z tarixiga munosabati, boburiylarga qarashini ham inobatga olish talab qilinardi. Chunki bu yurtlarda ham hozirga qadar yuzlab ijodkorlar, olimlar, siyosatchilar, hatto yirik davlat arboblari bizning vatandoshlarimiz – boburiylarga o'z munosabatlarini u yoki bu tarzda bildirganlar.

To'g'ri, Pirimqul Qodirov ixtiyorida hazrat Bobur qalamiga mansub tengsiz asar – «Boburnoma», uning qizi Gulbadanbegim tomonidan bitilgan «Humoyunnoma» singari ko'plab tarixiy hamda badiiy manbalar bor edi. Lekin, shu narsani inobatga olish kerakki, Pirimqul Qodirov tarixchi sifatida emas, yozuvchi – ijodkor sifatida maydonga chiqadi. Ijodkordan esa o'quvchi kechmishning quruqdan quruq bayoni yoki ilmiy izohini emas, san'atni talab qiladi. San'atki, xoh tarixiy, xoh to'qima voqeahodisa yoxud insonlar bo'lsin, ularning faqat tafsiloti, jismi emas, ruhi ham qayta tirilsin, bugungi kun kishisini o'z dunyosiga «tortib olsin»!

Xo'sh, Pirimqul Qodirov mana shu g'oyat qiyin talabni bajara olganmi?

Keling, bu savolga «Yulduzli tunlar» romanidan olingan yuqorida o'qiganingiz mo'jaz parchadan kelib chiqib javob topishga urinaylik.

Asarning shu qismiga asos bo'lgan tarixiy voqealar «Boburnoma»ning «Vaqoei sanai arbaa va tis'a mia» (To'qqiz yuz to'rtinchi (1498–1499) yil voqealari) deb nomlangan bobidan o'rin olgan. Bobokaloni Amir Temur poytaxt etgan Samarqand taxtida yuz kungina o'tirgan o'n olti yoshli Bobur mirzo ota shahri Andijonni fitnachilar qo'lidan qutqarmoq uchun ortga qaytgan. Boburjonning o'zi endigina og'ir xastalikdan oyoqqa turgan. U onasi Qutlug' Nigor xonim, onasining onasi Eson Davlat begim, ustoz Xoja Mavlonoi qozi (Xo'ja Abdulla)dan «Samarqand Andijon kuchi bilan olingan edi. Agar Andijon qo'lingizda bo'lsa, Xudo buyursa, Samarqandni yana qayta olsa bo'lar» mazmunidagi xatlar olgach, shu safarga otlangan...



Bu hodisalar o‘zining barcha tafsilotlari bilan «Boburnoma»ning olti-yetti sahifasiga joy bo‘lgan, xolos. Yozuvchi ularni asariga singdirar ekan, «Boburnoma»da bo‘lmagan bir tafsilot bilan boyitadi. Bu Qutlug‘ Nigor xonim tomonidan o‘g‘liga noyob sovg‘a – Amir Temurning qilichi va «xotirotlar bitilgan daftarlari»ning tortiq etilishi voqeasidir.

Muallif romanning 1999-yili «O‘zbekiston» nashriyotida chop etilgan to‘ldirilgan nashriga yozgan so‘zboshida, jumladan, quyidagilarni ta’kidlaydi: «Bundan ellik yil burun, talabalik yillarimda Bobur mirzoga ixlosmandlik menda Amir Temur asos solgan sulolaga qiziqish tufayli boshlangan edi. Bobur mirzo temuriylar sulolasini halokatdan qutqarib, asrdan asrga, mamlakatdan mamlakatga olib o‘tganligi, bu ulug‘ sulola Hind zamini-da yana uch yuz yildan ortiq davr surganligi o‘sha yillardayoq dilimda hayrat va iftixor tuyg‘usini uyg‘otgan edi. Keyinchalik «Temur tuzuklari» bilan tanishganimda Sohibqironning vasiyatlariga va ulug‘ bunyodkorlik an‘analariga Bobur mirzo astoydil amal qilgani juda ko‘p tarixiy voqealarda ko‘zga tashlandi...

Ammo sho‘ro davrida bu haqiqatlarni yozish arining uyasiga cho‘p tiqish bilan barobar edi. Chunki sho‘rolar har gal Amir Temurga qarshi hujum uyushtirganda nuqul Bobur mirzoni uning yoniga qo‘yib qoralashardi...»

Yozuvchi e’tirof etganidek, faqat mustaqillik tufayligina mil-latimiz o‘tmishini, jumladan, buyuk temuriylar tarixini to‘la va xolis yoritish imkoni tug‘ildi, «Yulduzli tunlar» romani ham biz guvoh bo‘lgan epizodlar bilan boyidi.

Avvalo, shunga e’tibor beraylikki, biz o‘qigan parchada Bobur mirzo o‘n olti yoshda – sizdan bor-yo‘g‘i uch yoshgina kattaroq o‘spirinlik davrida ko‘z oldimizda namoyon bo‘lmoqda. Yozuvchi voqealar va qahramonlar talqinida bu jihatni doimo yodida tutadi. Agar asar matniga shu nuqtayi nazardan qarasak, parchadan oladigan taassurotimiz anchagina boyishi aniq.

Yuqorida aytganimizdek, Boburjon juda qattiq xastalikdan endigina qutulgan. Yoshi katta odamlar bunday paytda ortiqcha

harakatdan, urinishdan o'zini asrashi tayin. Boburjon bo'lsa, onasi va opasining, umuman, Andijonda qolgan yaqinlarining diydoriga tezroq yetish umidida kasallikni ham tamom unutadi. Shunga ko'ra, yozuvchi qahramonlarining insoniy tuyg'ularini «Ona-bola va egachi-ini otlaridan tushib, quchoqlashib ko'rishar ekanlar, goh xonumondan ayrilish alamlarini, goh diydor ko'rishish quvonchlarini ichlariga sig'dirolmay, ko'zlariga dam-badam yosh olishar edi» deya g'oyat tabiiy tasvirlaydi.

Voqealar davomida Boburning jigarbandlariga dil yorib so'zlar ekan, ilojisizlikdan ko'ngli ezilib, ruhi qiynalishi, ko'zlariga yosh quyilib kelishini ham, bir tomondan uning yoshi bilan, ikkinchi tomondan esa buyuk millatdoshimizning ko'ngli naqadar pok, his-tuyg'ulari qanchalar samimiy bo'lgani bilan izohlashimiz lozim.

Asarda, garchi yosh bo'lsa-da, Bobur mirzo chinakam temuriy zot ekani ham alohida badiiy bo'rttirib ifoda etiladi. Uning qarorlar qabul qilishdagi qat'iyati, qo'l ostidagilarga muomala va munosabatda me'yorga amal qilishi, yaxshi va yomonni, zararli va foydalini ilg'ash hamda ajratishdagi sinchkovligi shular jumlasidandir. Ayniqsa, butun xatti-harakatidan nihoyatda murakkab odam ekanligi sezilib turgan Ali Do'stbekni kerak paytda rag'batlantirib, boshqa payt jilovidan tortib turishi Bobur mirzoning hukmronlik iste'dodi ham tug'ma ekanidan darak beradi.

Xuddi shu singari endi asarning boshqa qahramonlariga, kichik parchadagi asosiy ishtirokchilarga ham razm solaylik. Bilasizki, Boburning onasi Qutlug' Nigor xonim Yunusxonning ikkinchi qizi, Sulton Mahmudxon va Sulton Ahmadxonning egachisi bo'lgan. Yunusxon esa Chingizxonning ikkinchi o'g'li Chig'atoyxonning naslidan edi. Demoqchimizki, Qutlug' Nigor xonim o'zining kim ekanini, shunga ko'ra o'zini qayerda qanday tutishi lozimligini juda yaxshi bilgan. Yozuvchi, avvalo, qahramonining shu jihatlariga o'quvchi e'tiborini tortadi. Qutlug' Nigor xonim ko'z oldimizda bo'lg'usi buyuk shaxs va shoh – Bobur mirzoning oqila, tadbirli, yuksak mavqeli onasi sifatida namoyon bo'ladi.

Ahmad Tanbalday zulmkor, johil kimsaning qo‘lidan omon chiqqani, chiqqanda ham o‘z obro‘si va darajasiga zarracha putur yetkazmay qutulgani Qutlug‘ Nigor xonimning yuksak e‘tiqodli, o‘zini anglagan ayol bo‘lganidan yaqqol darakdir. Yozuvchi Pirimqul Qodirov «Men Yunusxonning qizimen, inim Mahmudxon Toshkent tojdoridir, agar Ahmadbek bizga ziyon yetkazsa, xonlar oldida javob berur!» deydigan ayolgina Bobur mirzodek tarixiy shaxsni dunyoga bera olishi mumkin ekaniga bizni ishontiradi. Qolaversa, Qutlug‘ Nigor xonimning har bir harakati, gap-so‘zi, nigohi yolg‘iz o‘g‘li Boburjonni har turli balolardan asrashga qaratilgan. O‘quvchi uni kuzatar ekan, o‘zbek onasi qalbida kechadigan farzandga muhabbat, jonfidolik, mehr-u shafqat tuyg‘ularini yaqindan his qiladi.

Barcha iste‘dodli yozuvchilar singari Pirimqul Qodirov ham o‘z qahramonlari tabiati, ijobiy yoki salbiy jihatlari to‘g‘risida maxsus ta‘riflar berish yo‘lidan bormaydi. Qahramonning kim, qanday odam ekanini biz uning gap-so‘zi, harakatlaridan bilib boramiz. Masalan, Qutlug‘ Nigor xonimning o‘g‘liga aytayotgan quyidagi gaplariga e‘tibor beraylik:

«Xudo rahmati Abusaid bobongiz vafot etganlaridan so‘ng qolgan meroslari o‘g‘illari orasida taqsim etilur. Katta o‘g‘illar oltin-u javohir to‘la sandiqlarni talashib olurlar. Ammo sizning jannatmakon otangiz mana shu sandiqdagi qilich bilan xotirotlar bitilgan daftarlarni afzal ko‘rurlar. Chunki bu xotirotlarda Amir Temur hazratlarining ko‘rgan-kechirganlari bitilmishdir...»

Mana shu qisqagina gapda Qutlug‘ Nigor xonimning ma‘naviy dunyosi ma‘lum darajada aks etayotganini sezyapsizmi? E‘tibor bering: u «Temur tuzuklari» asari mazmunini, temuriylar oilasi tarixini juda yaxshi biladi. Erining akalari tabiatidan ham yaqindan xabardor. Bobur mirzoning otasi, o‘zining turmush o‘rtog‘i, bundan to‘rt yil avval bevaqt vafot etgan Umarshayx mirzoga bo‘lgan ixlosi va sadoqati esa cheksiz. Bundan tashqari, gapining ohangidan Qutlug‘ Nigor xonimning ko‘zi to‘q,

yuqorida ta'kidlaganimizdek, chinakam xon qizi ekani ham sezilib, bilinib turibdi.

Xonzoda begim, «Boburnoma»da ta'kidlanganidek, Qutlug' Nigor xonimning to'ng'ich qizi bo'lib, Boburjondan besh yosh katta edi. Uning tug'ishgan ukasi Boburni jonidan ham aziz ko'rgani haqida eshitgan, hech bo'lmaganda, «Yulduzli tunlar» videofilmini ko'rib, bilib olgan bo'lsangiz kerak. Bu jafokash ayolning qanchalar yuksak aql, odob, mehr va muruvvat egasi ekani biz o'qigan parchada ham ko'rinib turibdi.

Avvalo, shuni aytish kerakki, Boburdek shijoatli, o'z maqsadidan toymas taxt da'vogarining opasi bo'lish Xonzoda begimga aslo oson kechgan emas. Zero, ukasiga qasd qilgan, unga kuchi yetmaydigan har qanday nokas guldek nafis Xonzoda begimga tajovuz qilishi, Bobur mirzoni mana shu nozik joyidan ushlashga urinishi tabiiy hol edi. Agar «Boburnoma»ni astoydil mutolaa qilsangiz, bunday urinishlar ko'p bo'lganini bilib ham olasiz. Shu doimiy xavf-xatar, shaxsiy hayotini izdan chiqarishi mumkin bo'lgan qaltis vaziyatlarga qaramay, Xonzoda begim biror marotaba inisiga iddao yoxud minnat qilgan emas. Aksincha, suyakli ukasi Bobur mirzo har yili tug'ilavermaydigan noyob inson, temuriylar orasida ham chinakam voris ekanini ich-ichdan his qilgan Xonzoda begim unga barcha jabhada madad bo'lishga harakat qilgan.

«Boburnoma» asarida, yuqorida aytganimizdek, Boburning onasi va opasi bilan ko'rishib suhbatlashishi, unga bobokaloni Amir Temurdan qolgan meros tortiq qilinishi holatlari Pirimqul Qodirov romanida tasvirlagandek tarzda uchramaydi. Bular yozuvchi tomonidan yaratilgan badiiy to'qima natijasi bo'lib, tarixiylikka da'vo qilmaydi ham. Biroq shu narsani tan olish kerakki, bu va romanda uchraydigan yana ko'plab badiiy to'qima voqea-hodisalar ham, qahramonlar ham tarixiy faktlar bilan tabiiy birlashib, yaxlilashib ketgan. Asarni o'qir ekansiz, biror o'rinda tarixiy haqiqatga zid ish tutilgani, noaniqlik yoki uydirmaga yo'l qo'yilganini sezmaydiz. Buning sababini esa,

suhbatimiz boshida aytdik: yozuvchi o‘zi yoritayotgan tarixiy hodisalar mantiqini, ularni harakatga keltirgan turli omillarni juda yaxshi o‘rgangan, tarix haqiqatiga to‘liq amal qilgan. Eng muhimi, o‘zbek adibi, qaysi davr kishisi bo‘lishidan qat’i nazar, odam bolalari tabiatiga xos o‘zgarmas fazilat va qusurlarni chuqur bilgani, his qilgani asaridagi hodisalarning ishonchliligini ta’minlagan.

Agar badiiy asardagi Xonzoda begim harakatlari, gaplariga shu nuqtayi nazardan yondashsak, tarixiy shaxs Xonzoda begim ham ayni holatda xuddi shunday qilishi mumkinligiga shubha qolmaydi. Buning isboti uchun, xuddi Qutlug‘ Nigor xonim obrazini o‘rganimizdek, Xonzoda begimning ham ukasi Bobur mirzoga qilgan quyidagi murojaatini tahlil qilaylik:

«...Xonzoda begim inisiga mehri toblanib tikildi:

– Sizda ham Sohobqiron bobokaloningizdagi jo‘mardlikdan bor, amirzodam! – dedi. – O‘shdagi suhbatlarimiz yodingizdami? Siz meni Ahmad Tanbalning tajovuzidan qutqarganingizni umrbod unutmagaymen! Bo‘lajak kelinimiz Oyisha begimni siz Samarqanddan yog‘iy asoratidan xalos qilib, bizga xayrixoh Toshkentga kuzatib qo‘yibsiz. Bu ham bir jo‘mardlik emasmi? Yetti oy qamal azobini tortgan samarqandliklarga oshlik tarqatibsiz, urug‘ligi qolmagan dehqonlarga bahorda urug‘lik keltirib beribsiz. Bu hammasi dilingizda adolat tuyg‘usi kuchli ekanidan dalolatdir. Belingizdagi qilichga Sohobqiron bobokaloningizning «Kuch – adolatdadir» degan hikmatlari bejiz bitilmagan. Ahmad Tanbalning o‘n ming askari bo‘lgani uchun u hozir «Men kuchlimen!» deb yuribdir. Ammo yolg‘onning umri qisqa! Ahmad Tanbal Andijonni aldanchilik bilan egalladi, sizni «o‘ldi» deb ovoza tarqatdi. Siz sog‘-salomat qaytganingizni odamlar hade-may bilurlar, Tanbalning yolg‘oni fosh bo‘lur. Uning zolimligidan hamma bezor bo‘ladigan kunlar kelur».

Mazkur parchadagi Xonzoda begim hamda Oyisha begim bilan, yetti oylik qamalni boshdan kechirgan samarqandliklar bilan bog‘liq tafsilotlar «Boburnoma»da asar muallifi tilidan hikoya

qilinadi. Xonzoda begimning Sohibqiron Amir Temurga xos jo‘mardlikni ukasi tabiatidan ham topishi esa, tarixiy Xonzoda begim aql-u zakovati, o‘z inisiga bo‘lgan ixlosining ifodasi sifatida yozuvchi tomonidan qo‘shilgan. Ahmad Tanbalning yolg‘on xabar ortidan hukmronlikka erishuvi vaqtincha ekani, u o‘n ming askardan ham qudratliroq bo‘lgan adolat kuchi oldida, albatta, yengilishi to‘g‘risidagi bashorat ham o‘zining tarixiy isbotiga ega.

Bu gaplar aynan Xonzoda begim nutqidan joy olishi aslo bejiz emas. Ta‘kidlanganidek, bu qahramon ham xuddi Qutlug‘ Nigor xonim singari «Temur tuzuklari» kitobining mazmun-mohiyatini chuqur anglagan, voqea-hodisalarga shu bilim va tajribadan kelib chiqib baho berish quvvatiga egadir.

Shu o‘rinda e‘tiboringizni asardagi yana bir nozik jihatga qaratting. Ona va bolalar o‘rtasidagi suhbat davomida Qutlug‘ Nigor xonim «xotirotlar bitilgan daftarlar» – «Temur tuzuklari» tafsilotlarini Boburjonga aytib berish vazifasini qizi Xonzoda begimga topshiradi. Holbuki, uning o‘zi ham bu daftarlarda bitilgan haqiqatlardan juda yaxshi xabardor bo‘lgan. Bunga qo‘shimcha, Umarshayx mirzo boshchiligidagi bu oilada Amir Temur hayoti va faoliyati to‘g‘risida unutilmas suhbatlar ham kechgani Boburjon xotiralaridan bilinib turibdi. Xo‘sh, nima uchun yozuvchi Sohibqironning yigitlik paytlarida boshidan kechirgan voqealar tafsilotini bayon qilishni Qutlug‘ Nigor xonimga emas, yoshi kichik bo‘lsa-da, Xonzoda begimga ravo ko‘rmoqda?

Barakalla, to‘g‘ri topdingiz: yuqorida aytilganidek, Qutlug‘ Nigor xonimning o‘zi ota tomonidan chingiziylarga borib taqalar, «Mo‘g‘ulistondan ellik ming qo‘shin bilan kelib, Temurbek tarafdorlarini qirg‘in qilgan» chingiziylar haqida uni gapirtirish bu o‘rinda o‘zini oqlamagan bo‘lur edi. Boshqacha qilib aytganda, Qutlug‘ Nigor xonimning qizi va o‘g‘li chingiziylar qo‘lidan yurti ozod qilgan temuriylar avlodidan edilarki, yozuvchi bu tarixiy haqiqatni mana shunday nozik tarzda yana bir marotaba ta‘kidlaydi.

Eslatilganidek, bu asar qahramonlarining ichki dunyosi, bu dunyoda yuz berayotgan o'zgarishlar muallif tomonidan aytib berilmaydi, balki bevosita ko'rsatiladi, zehni o'quvchiga sezdiriladi. Birdaniga ham Samarqand, ham Andijon taxtidan ajralgan, onasi va opasi bilan ko'rishgunga qadar ne qilarini bilmay qiyalayotgan o'n olti yoshli Boburjon ruhiyati tasvirida ham buni yaqqol sezamiz. Mana o'sha tasvirning ayrim parchalari:

«Qilich uncha og'ir emas edi. Bobur uni beliga taqqanda atrofidagi hamma narsa ko'ziga boyagidan boshqacha – allanechuk sokin va salobatli ko'rindi.

– Onajon, siz menga yangi bir ruh ato qildingiz!..»

«Onasi in'om qilgan buyuk meros chindan ham Boburning dilini ravshan qilib yuborgan edi. Ular kelib tushgan bog'da o'riklar oppoq bo'lib gullagani endi uning ko'ziga tashlandi. Daryo bo'yidagi qalin chakalakzorda bulbullar basma-bas sayrayotgani qulog'iga chalindi. Ayvonga chiqqanda kechki shabada yuziga ipakday mayin salqinlik berdi».

Agar bu tasvirlarni o'zigacha bo'lgan holatlar tasviriga solishtirsak, yozuvchi bosh qahramoni ruhiyatidagi qanday o'zgarishlarga ishora qilayotganini chuqur anglaymiz.

Romandan mashg'ulot uchun olingan parchaning umumiy mazmunidan bir muhim savol qalqib chiqayotganiga e'tibor bergan bo'lsangiz kerak. Xo'sh, nima uchun Ahmad Tanbal o'n ming kishilik qo'shini bilan o'spirin Bobur mirzodan yengildi? Umuman, Bobur mirzoning, minglab ahmadlar va tanballardan farq qilaroq, insoniyat tarixida bu qadar yuksak maqom kasb etishining siri nimada?

Agar parchadagi hodisalar bayoni, qahramonlar xatti-harakati, gap-so'zlariga sinchiklab nazar solsak, bizningcha, yozuvchi bu sir-sinoatni topishga ham qator ishoralar qilganini sezamiz. Chunonchi, Ahmad Tanbal va u singari kimsalarning tabiatida sotqinlik, xiyonat, yovuzlik, ochko'zlik, zulmga o'chlik singari, odam bolasini o'zidan bezdiradigan salbiy xususiyatlar ustuvorlik qiladi. Ular zulm-u zo'rlik, aldov va ayyorliklar bilan muayyan

muddat muvaffaqiyatga erishishlari, vaqtincha o‘z hukmronliklarini o‘rnatishlari ham mumkin. Insoniyat tarixi bunday hol-larni ham ozmi-ko‘pmi ko‘rgan. Biroq, odamzod tabiati baribir ulardan beziydi, qutulish uchun ming bir chorani izlaydi.

Aksincha, odamlarga nisbatan qilingan insoniy munosabat, ko‘rsatilgan mehr va e‘tibor, ko‘pchilik manfaatini o‘ylab amalga oshirilgan xayrli ishlar, ertami-kechmi, o‘zining ijobiy samarasini beradi. Bunga ham qadim va yaqin tarixdan istagancha misol topish mumkin.

Shu nuqtayi nazardan endi «Yulduzli tunlar» romanidan olin-gan parchaga diqqat qilaylik. Ahmad Tanbal Bobur mirzoning Samarqandda ekanidan foydalanib, unga xiyonat qilaroq Andijon, Marg‘ilon, O‘sh, Axbi qo‘rg‘onlarini egallab olgan. El-ulusning moligagina emas, balki joni va imoniga ham daxl qilib, hatto o‘ziga yordam bergan kishilarning oilasiga ham nopok nigohini tikkan. Uning amaldor-u soliqchilari aholiga zulm va zo‘ravonlik ko‘rsatib, xalq g‘azabining ortishiga sababchi bo‘lmoqdalar. Xo‘janddan tortib Axbigacha, Andijondan O‘shgacha – butun el Ahmad Tanbal zulmidan najot axtaradi. Holbuki, bu joylar yaqin-yaqinlarda ham – Umarshayx mirzo va uning adolat-parvarlik ruhida tarbiya qilgan o‘g‘li Bobur mirzo hukmronligi paytlarida qanchalar ro‘shnoliklarni ko‘rgan, gullab-yashnagan edi. Shu sababli ham Ahmad Tanbal zulmidan to‘ygan katta-yu kichik Bobur mirzoning Andijon taxtiga qaytishini, elni bunday nopoklar qo‘lidan qutqarishni tilaydilar.

E‘tibor beraylik, Ahmad Tanbal shuncha hududni talab to‘y-mayotgan bir pallada Bobur mirzo o‘zining «navkar-u sardorlari bilan bir joyda uzoq vaqt mehmon bo‘lib turishga yuzi chida-maydi. Chunki haftalar, oylar davomida yuzlab odamlarga ovqat, otlarga yemish topib berish mezbonlarga juda og‘ir tushishini sezadi. Shuning uchun onasi va egachisini Xo‘janddan O‘rate-paga, xolasi Xub Nigor xonimning uylariga keltirib qo‘ydi. O‘zi uch yuzga yaqin bek-u navkarlari bilan janubdagi tog‘larga chiqib ketdi. Ovchi deb ataladigan bir qishloq yaqiniga chodir va



o'tovlar tikishib, ancha vaqt ov o'ljalari bilan ro'zg'or tebratishdi». (Mazkur tafsilotlar «Boburnoma»da ham bor!)

Mana, chinakam hukmdor, el suygan rahbar bilan bu martabaga chiranib erishmoqdan o'zga narsani o'ylamaydigan olchoqlarning asl farqi, birini biridan ajratib turadigan bosh tafovut! Shu ma'noda Bobur mirzoning kindik qoni to'kilgan Andijon eli bilan qayta diydorlashuvi payti sodiq do'sti Qosimbek bilan qilgan mana bu qisqa muloqoti katta ramziy ma'no kasb etadi:

«– El-yurtda adolat bor ekan-a!?

– Ha, mehr-u oqibat ham kuchli ekan. Faqat yuzaga chiqishi oson bo'lmas ekan!»

Yozuvchi asaridan olingan nafaqat shu parchada, balki butun romani davomida bu jiddiy masala talqinini bir zum e'tibordan chetda qoldirmaydi, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi mangu kurashni keng ko'lamda tasvirlashga harakat qiladi. Tarixni badiiy jonlantirish, uning ishtirokchilari bo'lmish shaxslarning to'laqonli xarakterlarini qayta yaratish, o'tmish hodisalarining bugungi kun muammolari bilan tutash o'rinlarini alohida bo'rttirib ko'rsatish – bularning bari, aslida, xalqimizning ardoqli yozuvchisi Pirimqul Qodirovning «Yulduzli tunlar» («Bobur») romani, uning mantiqiy davomi bo'lmish keyingi asarlarining ham yashovchanligini ta'minlagan muhim fazilatlaridir.



### *Savol va topshiriqlar*

1. Yozuvchi Pirimqul Qodirovni tarixiy mavzuga murojaat qilishga undagan sabablar nimalar edi, deb o'ylaysiz?
2. Sho'ro davri rahbariyati «Yulduzli tunlar» («Bobur») romanining chop etilishiga bunchalar qattiq qarshilik ko'rsatganining bosh sababi nima bo'lishi mumkin?
3. Mazkur romanni o'qigan yoki u asosida tayyorlangan video-filmni ko'rgan bo'lsangiz, asarning sizga eng kuchli ta'sir qilgan joyini sinfdoshlaringizga gapirib bering.
4. Bobur va boburiylar to'g'risida nimalarni bilasiz? Ularning faoliyati Hindiston tarixida qanday iz qoldirgan?

5. «Yulduzli tunlar» («Bobur»)dek yirik romandan darslik uchun nega ayni shu parcha tanlanganini izohlashga harakat qiling.
6. Sohibqiron Amir Temur hamda Bobur mirzoning insoniy tabiati, sa'y-harakatlari, taqdirida qanday o'xshashlik va farqlar bor, deb o'ylaysiz?
7. Yosh Boburjon dilidagi sarosimalik yo'qolishiga unga tortiq qilingan meros nega bunchalar kuchli ta'sir qildi?
8. Boburning onasi va opasi harakatlari, gap-so'zlarida darslikda aytilganidan tashqari yana qanday muhim jihatlarni payqadingiz?
9. Qosimbek bilan Ali Do'stбек obrazlari o'rtasida qanday jiddiy farqlar bor? Shunday kishilar o'zaro do'st bo'lishlari mumkinmi? Fikrlaringizni hayotiy misollar bilan asoslashga urining.
10. O'spirin Bobur mirzo harakatlarida uning kelgusi faoliyatida asqatadigan qanday fazilatlarni ilg'adingiz?
11. «Yulduzli tunlar» («Bobur») romanidan olingan parcha asosida uy inshosi yozing.



## *Tog'ay MUROD*

*(1948–2003)*

XX asrning 70-yillarida o'zbek adabiyotiga bir qator iste'dodli shoir va yozuvchilar kirib keldilar. Ular orasida Murod Muhammad Do'st, Erkin A'zamov, Xayriddin Sultonov, Tog'ay Murod singari nosirlar, Shavkat Rahmon, Xurshid Davron, Usmon Azim, Muhammad Rahmon singari shoirlar bor edi. Bu avlod o'zlaridan avvalgi ijodkorlar boshlab bergan eng yaxshi an'analarni davom ettirgan holda, adabiyot sahnasiga ko'proq oddiy odamlar obrazini, ularning orzu-armonlari talqinini olib chiqdilar. M.M. Do'stning «Bir toychoqning xuni», «Galatepaga qaytish», E. A'zamovning «Otoyining tug'ilgan yili», «Javob», X. Sultonovning «Yozning yolg'iz yodgori», «Ko'ngil ozodadur» nomli asarlari qahramonlari bir qaraganda boshqalardan keskin farq qilmaydigan, har qadamda uchraydigan oddiy odamlar. Ular katta tarixiy o'zgarishlarga boshchilik qilishmaydi, favqulodda qahramonliklar ko'rsatib boshqalarga o'rnak bo'lishmaydi, hatto, suvga cho'kayotgan biror odamni qutqarib el og'ziga tushishmaydi ham. Lekin shunisi muhimki, yosh o'zbek adiblari dunyoning omonligi, jamiki go'zalligi aynan shu oddiy odamlar tufayli ekanini ko'rsata oldilar, isbotlay bildilar. Mana shunday novator (yangilik kashf etuvchi, yangi yo'l ochuvchi) yozuvchilardan biri Tog'ay Murod bo'ldi.

Bu yozuvchining tarjimayi holi ham o‘z qahramonlariniki singari oddiyginadir.

U janubiy viloyatlarimizdan bo‘lmish Surxondaryoning Denov tumaniga qarashli Xo‘jasoat qishlog‘ida 1948-yilda tug‘ildi. Qishloqdagi o‘rta maktabda o‘n yil o‘qigach, 1966–1972-yillarda hozirgi O‘zbekiston Milliy universitetining jurnalistika fakultetida ta‘lim oldi. Bu fakultet o‘sha yillari ko‘plab yosh iste‘dodlarga o‘z ijodiy yo‘lini topishi, jiddiy asarlar yozib dastlabki muvaffaqiyatlarni qo‘lga kiritishida muhim maktab rolini o‘ynagan edi. Fakultetdagi qaynoq, nisbatan erkin ijodiy muhit, o‘z davrining yirik shoir va yozuvchilari bilan tez-tez o‘tkazib turiladigan uchrashuv va muloqotlar, yotoqxonalarda to tongga qadar tugamaydigan she‘riyat kechalari – bularning bari iste‘dod g‘unchalarining tez yetilishi, kamol topishida jiddiy turtki rolini o‘ynardi. Ko‘p yosh ijodkorlarning respublika matbuotida muntazam qatnashishi ham ayni shu fakultetda o‘qib yurgan yillariga to‘g‘ri kelardi. Tog‘ay Murod esa talabalik paytidayoq o‘nlab hikoyalar yozgan bo‘lsa-da, ularni e‘lon qilishga shoshilmas, o‘zidan, bilimlaridan ko‘ngli to‘lmasdi. U iloji boricha ko‘proq o‘qish, bu orqali faqat o‘zimizning ijodkorlarnigina emas, balki dunyoning eng zo‘r adiblari tajribalarini ham o‘zlashtirishni istardi.

U shu niyatdan kelib chiqib, tirikchilikka yetarli maosh beradigan qanday ish taklif qilinsa, o‘sha yerga borib ishlardi. Masalan, 1972–1976-yillarda respublika radiosining «Vatandoshlar» (xorijiy ellarga mo‘ljallangan) tahririyatida xizmat qilgan bo‘lsa, undan keyin «O‘zbekiston fizkulturachisi» gazetasida, 1982-yildan 1985-yilgacha esa «Fan va turmush» jurnalida xizmat qildi. Tog‘ay Murod o‘zining ijodiy rejalariga birovlarning aralashishini, unga ta‘sir o‘tkazishga bo‘lgan urinishlarni hecham yoq-tirmas, shovqin-suronli davralardan o‘zini olib qochar edi. Butun fikri-zikri o‘qib-o‘rganish, tinimsiz ijodiy mehnat qilish bilan band bo‘lardi. Shu tufayli ham, yozuvchi sifatida xalqqa ancha tanilib qolgan bo‘lishiga qaramay, 1985–1987-yillar ichida Moskvadagi Jahon adabiyoti institutida ham tahsil olib qaytdi.



**Tog‘ay Murodni iste‘dodli yozuvchi sifatida ko‘rsatgan dastlabki yirik asar 1976-yilda dunyoga keldi. Bu «Yulduzlar mangu yonadi» nomli qissa edi.**

Mazkur asarda yozuvchining qon-qoniga singib ketgan, ming yillar mobaynida unutilmay, elda ardoqlanib kelayotgan tarixiy qadriyat – kurash, kurashchi polvonlar, ular orasidagi muomalamunosabatlar, ziddiyatli hayotiy muammolar qalamga olindi.

Yozuvchining keyingi asari – «Ot kishnagan oqshom» qissasi (1979-yil) «Yoshlik» jurnalida chop qilinishi bilan butun xalqimiz orasida juda tez dovuq qozondi. Chunki bu asarda o‘sha davr adabiyotida kamdan kam tilga olinadigan ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, butun dunyoga ibrat qilib ko‘rsatiladigan «sovet kishisi» tabiatiga xos bo‘lgan turfa illatlar badiiy jihatdan ta’sirchan va ishonarli tarzda ochib berilgandi. Asardagi qishloq mehnatkashlarining og‘ir qismati, katta-kichik rahbarlarning ularga bepisand munosabati, odamlardagi pokiza his-tuyg‘ularning toptalishi, kuppakunduz kuni bo‘layotgan adolatsizliklar tasvir va talqini haqiqatga tashna o‘quvchilarning qizg‘in e’tirofiga sababchi bo‘ldi. Mazkur qissa sho‘ro davri adabiyotidagi ko‘plab boshqa asarlardan oxiri «umidbaxsh sadolar bilan» tugamasligi jihatidan ham ajralib turardi. Uning so‘ngida odam bolalaridan cheksiz adolatsizlik, nomardlik, vahshiylik ko‘rgan qissa qahramoni Ziyodulla chavandoz o‘zining sevimli, vafodor va bir umrga sadoqatli otidan najot tilaydi!



**Aqlli va til-zabonli, kiyim-boshi ozoda va o‘zicha madaniyatli kimsalar uni urib o‘ldirishga chog‘langan bo‘lsalar, o‘sha – til-zaboni yo‘q, ongsiz hayvon sanalmish ot o‘z do‘stini o‘limdan asrab qoladi.**

Bir so‘z bilan aytganda, odamni o‘zi singari odam zulmidan himoya qilish uchun odam topilmaydi, najot faqat hayvonda qoladi!..

Qissaning bunday oshkora tanqidiy ruhi, adolatparvarlik pafosi o‘z davrining ko‘plab amaldorlari, mafkurachilari g‘ashini keltirgani, natijada yozuvchi nomi atrofida turli g‘iybat gaplar tarqatilgani ham ma‘lum. Biroq yozuvchi bu malomatlardan cho‘chib o‘tirmadi, aksincha, oradan bir yil o‘tar-o‘tmas yana bir ajoyib asarini – «Oydinda yurgan odamlar» qissasini e‘lon qildi.

Bu qissaning qahramonlari – Qoplonbek va Oymomo ham atrofdagilarga faqat yaxshilik tilaydigan, umrini ezgulikka baxshida etgan oliyanob qalb egalaridir. Qissada buyuk muhabbat tuyg‘usi bilan bir-biriga mangu bog‘langan bu go‘zal insonlarning butun hayot yo‘li oydinda aytilgan qo‘shiqday tarannum etiladi. Qoplonbekka cheksiz kuch-quvvat, mardlik va shijoat, Oymomoga behad xushro‘ylikni ato etgan ona tabiat, afsuski, ularni farzand ne‘matidan bebahra qilgandi. Ular umrbod mana shu ne‘mat ilinjida yashashadi, ne-ne gap-so‘zlarga, g‘iybat-pichinglarga chidashadi. O‘zlarini ko‘rsatmagan tabib-u do‘xtirlar, najot izlab bormagan joy qolmaydi. Farzand sog‘inchi shu qadar kuchli ediki, yoshi o‘tib, keksayib qolgan Oymomo qo‘shni kelinning beshikdagi bolasini ovutib o‘tirganda, qup-quruq ko‘k-siga birdan sut keladi. U so‘nggi nafasidagina onalik baxtidan bir lahza totinadi-yu, dunyodan ko‘z yumadi...

Har qancha og‘ir bo‘lmasin, oraga tushgan qarindosh-urug‘lar ularni ajralishib, boshqa oila qurishga zo‘rlashmasin, Qoplonbek va Oymomo bir-birlaridan voz kechishmaydi. Qissa so‘ngida, hatto, bu dunyodan ketganlaridan keyin ham ular oppoq oydin tunlari oydek sokin va unsiz suhbat quradilar. Bu ikki qalbning muhabbat qissasi eng pokiza insoniy hislar kuylangan abadiyat qo‘shig‘i bo‘lib qoladi.



**Qissa janrida yetarli tajriba orttirgan Tog‘ay Murod 1993-yilda «Otamdan qolgan dalalar» nomli yirik romanni yozib tugatadi. Bu roman o‘zbek xalqining chor Rossiyasi va sho‘ro bosqini ostida o‘tgan hayotini – yuz yildan ortiqroq tarixni o‘zida mujassam etgan.**

Asarda bir oilaning uch avlodi hayoti misolida butun millatning taqdiri juda ta'sirchan bo'yoqlarda ifoda etiladi. Oqposhoning asl niyatini anglamay, bosqinchilarning uyatli qiliqlaridan orlanib, tug'ilib o'sgan yerini tashlab ketgan Jamoliddin ketmon XIX asrning oxiri – XX asrning boshlaridagi xalq vakili edi. Nima qilib bo'lsa-da, yurt tuprog'ini bosqinchilardan tozalash niyatida qo'liga qurol olgan Aqrab (Chayon) XX asrning 20-yillarida milliy istiqlol yo'lida kurashgan bobolarimiz timsoli sifatida ko'rinadi. Ularning avlodi Dehqonqul esa o'sha paytdagi hukmron Moskvaning «paxta mustaqilligini ta'minlash» siyosati qurboni – millionlab huquqsiz kolxozchilarning umumlashma obrazidir.

«Otamdan qolgan dalalar» romani uchun Tog'ay Murod Abdulla Qodiriy nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlangan. Aynan shu roman e'lon qilingach, adibga O'zbekiston xalq yozuvchisi unvoni berilgan. Bu asar asosida taniqli kinorejissor Shuhrat Abbosov ikki qismli badiiy filmni suratga olgan.

Yuqorida Tog'ay Murodning xorijiy adiblar kitoblarini chanqoqlik bilan mutolaa qilganini aytgandik. U o'zi bahramand bo'lgan noyob asarlarga boshqalarni ham oshno etish umidida bir qancha tarjimalar ustida ish olib bordi. Jumladan, E. Seton-Tompsonning «Yovvoyi yo'rg'a» asarini zo'r muvaffaqiyat bilan ona tilimizga o'girdi.

Afsuski, iste'dodli yozuvchi Tog'ay Murod ayni ijodiy kuchga to'lgan paytda – 55 yoshida hayotdan ko'z yumdi. Uning ijod stoli ustida tugallanmagan qator asarlarning, tarjimalarning qo'lyozmalari qoldi. Shunday bo'lsa-da, yozuvchi yaratib, xalqiga yetkazishga ulgurgan ajoyib asarlari bois uning nomi va ishi kelgusi avlodlar qalbida ham aks sado berishi shubhasizdir.

## YULDUZLAR MANGU YONADI

(qissadan boblar)

### XVIII

Bo‘ri polvon davradan xursand: janjal-araz yo‘q. Polvonlar sen-menga bormay olishyapti... O‘zini taroziga solmay olishyapti.

Ana, xo‘jasoatlik Sadir polvon sho‘rchilik Ro‘zi polvonni yelkasidan oshirib urdi.

Ro‘zi polvon origa Maksim polvon degani chiqdi.

Sadir polvon:

– E, u sport masteri, chiqmayman, – deya turib ketdi.

Maksim polvon sambo kurashi bo‘yicha sport ustasi ekani chin bo‘ldi. Bakovul ro‘parasida talab qilib o‘tirib-o‘tirib ketdi.

Bo‘ri polvon xo‘jasoatliklarga og‘iz soldi:

– Chiqinglar-da endi! – dedi.

U yoqdan Amir polvon:

– Polvon bova, Sadirning qo‘li lat yebdi! – dedi.

Bu shunchaki bahona bo‘ldi.

Sho‘rchiliklar piching qildi:

– Nimaga bir polvonni yiqita solib qochasizlar!.. Sig‘sa, davraga chiqingizlar-da! – dedi.

Ilkis piching Sadir polvon bahona butun davra egalariga qarata aytili.

Bo‘ri polvon yalt etib sho‘rchiliklar davrasiga qaradi.

Keyin Amir polvonga yuzlandi.

– Unday bo‘lsa, boshqasini chiqar! – dedi.

Amir polvon:

– E, polvon bova, master sportga teng kep bo‘ladimi? – dedi.

Bo‘ri polvon mehmonlar oldida izza bo‘ldi. Xivich uchi bilan chiroqda yiltiramish somonlarni titkiladi. Shunda davraga yoshi o‘tib qolgan Normurod polvon chiqib keldi. U duch kelmish odam ro‘parasiga cho‘kdi. Qo‘llarini ketiga tiradi. Orqasiga chalqayib, oyog‘ini uzatdi.



– Mahsini tort, tort mahsini! – dedi.

Torta bermagach Normurod polvonning o‘zi mahsilarini tortib-tortib sug‘urdi. Paytavalarni chuvalatib-chuvalatib tashladi.

Joyidan sapchib turdi. O‘z polvonlariga qahr bilan qo‘lini shop qildi.

– Chiqmaysanmi-a, chiqmaysanmi? Elga eshittirib ayt! Chiqmayman, de! Qo‘lingni ko‘tarib ayt! Unda mana men chiqaman!

Normurod polvon bakovul ro‘parasiga borib cho‘kkaladi. Sho‘rchiliklarga qo‘lini silkib aytdi:

– Qani, master sportingni berman yubor! – dedi.

Ammo sho‘rchiliklar Maksim polvonni davraga tushirmadi. Boisi, Normurod polvonning soqoli oppoq edi...

Sho‘rchiliklar to‘pidan ovoz keldi:

– Sizga qoyil bo‘ldik, Normurod polvon, bizga anavi polvonlaringizni chiqaring!

Normurod polvon davra aylana berdi:

– Bizda polvon yo‘q, bo‘lsa chiqardi! – dedi.

Bo‘ri polvon domangir bo‘ldi:

– Polvon, ko‘tarilma, ko‘p ko‘tarilma! – dedi.

Normurod polvon Bo‘ri polvon qo‘lidan yulqinib chiqdi. Yana davra aylandi.

– E, master sport tugul, dev bo‘lsayam chiqaman! – dedi.

Bo‘ri polvon Normurod polvon tirsagidan mahkam ushladi, davradan yetaklab chiqdi.

Normurod polvon tag‘in davraga talpindi:

– Normurod polvonning ko‘zi ochiq bo‘p turib, uning eli yerga qaraydimi? – dedi. – Ushlamang meni, polvon bova, ushla-mang! E, yerga kirgizib yuborsayam chiqaman!

Bo‘ri polvon qalbini-da ayni shunday tuyg‘ular tirnadi. Ammo keksalarga xos vazminlik bilan o‘zini bosib turdi.

Davraga kirib, xo‘jasoatliklarga ovoz berdi:

– Amir, Tilovberdini berman yubor! Tilovberdi, munda ke! – dedi.

Shunda davraga Bo‘ri polvonning o‘g‘li Tilovberdi chiqib keldi. Bo‘ri polvon o‘g‘lini tirsagidan yetaklab, bakovul ro‘parasiga o‘tirg‘izdi.

Sho‘rchiliklar ko‘nishga ko‘ndi-yu, Maksim polvon rozi bo‘lmadi.

– Tilovberdining vazni og‘ir, chiqmayman, – dedi.

Bo‘ri polvonning zardasi qaynadi.

– Nima, endi davraga taroziga tortib chiqaraylikmi? – dedi. – Ko‘rib turibsan, bo‘y-basti sendan ziyod emas, chiqa ber-da! Chiq-e, ota-bovamız tarozisiz olishgan!

– E, chiq-e, Maksim-e, yiqilsang, yer ko‘taradi-da! – dedi sho‘rchiliklar.

Polvonlar fotiha olib ketdi.

## XIX

Bo‘ri polvon ich-ichidan zil ketdi. O‘zi bilan o‘zi gapirishdi.

«Biz polvonlik maktabida o‘qimadik. Polvonlik bizga ota meros. Pushtdan pushtga, qondan qonga o‘tib kelyapti.

Polvonlikning ko‘zga ko‘rinmas, til bilan tushuntirib bo‘lmas shunday sirlari borki, uni faqat tomirida polvonlik qoni borlargina biladi. Biz bilamiz.

Bu sirlar hech bir kitobda yo‘q.

Mana, mening o‘zim. Surxon vohasida mendan yiqilmagan polvonning o‘zi yo‘q! O‘sha maktab ko‘rgan sport masterlariyam yag‘rinimdan oshib ketdi!

Xalq nimasi bilan xalq?

O‘zining urf-odatlarini bilan xalq! Ko‘p urf-odatlarimizni birovlar... birovlar o‘ziniki qilib oldi! Biz qo‘limizni burnimizga tiqib qoldik.

Shunday keta bersak, hademay... o‘zimizni-da boy berib qo‘yamiz!

Bu yog‘i kamday, ne-ne nimalarimizni eskilik sarqiti deb yo‘q qildik. Xiyol bo‘lmasa, xalqning o‘zini-da... eskilik sarqitiga chiqarib yuborayin, dedik!

Bugun buni yo‘qota bersak, ertaga uni yo‘qota bersak... podadan nima farqimiz qoladi?..

Biz hademay bu dunyodan ketamiz. O‘zimiz ketsak-ku, go‘rga-ya. O‘zimiz bilan... Buni rais biladimi?...»

Bo‘ri polvon raisga qarab-qarab qo‘ydi.

Tag‘in nimalardir... nimalardir yo‘qolib boryapti...

Bo‘ri polvon o‘yladi-o‘yladi... O‘ylab o‘yiga yetdi...

«Avlodlar almashgan sayin... yo, pirim-e, tuf-tuf-tuf... avlodlar almashgan sayin... yurak yo‘qolib boryapti!

Jasad bor! Aql bor!

Yurak yo‘q!

To‘rt mucha bor! Kuch-quvvat bor!

Yurak yo‘q!

Ko‘krakda jon bor!

Yurak yo‘q, yurak!..

Farzandlar hayotga beparvo qaraydi. Musibat bilan xursandchilik farqiga bormaydi.

Farzandlar o‘zlari minayotgan mashinaga o‘xshaydi! Odam kim, mashina kim, bilib bo‘lmay qolyapti...»

## XX

### 4

...Sariosiyodagi o‘sha davrada Bo‘ri polvonga teng topilishi qiyin bo‘ldi.

Davra egalari talvasada qoldi.

Bordi-yu, Bo‘ri polvonga talabgor bo‘lmasa, sariosiyoliklar denovliklardan qoyil bo‘ldi bo‘ladi. O‘z uyida qoyil bo‘lish mag‘lub bo‘lishdan-da yomon bo‘ladi!

Shunda davraga yoshgina bir yigit chiqib keldi. Bo‘ri polvonga talabgor bo‘ldi.

Davra egalari shundagina yengil nafas oldi.

Bo‘ri polvon yosh polvonga mensimay-mensimay qaradi.

«Laylakning yurishini qilaman deb, chumchuqning puti yirtilgan ekan! – deb o‘yladi Bo‘ri polvon. – Bu yosh bola-ku! O‘ylab ish qilyaptimi? Yo kayfi bormi?»

Bir yosh bola Bo‘ri polvon shon-shavkatini nazarga ilmay qurga<sup>1</sup> yugurib chiqishi Bo‘ri polvon izzat-nafsiga tegdi.

Bo‘ri polvon darg‘azab bo‘lib davraga kirdi.

Bosh bakovul oldiga g‘oz yurish qilib bordi. Davra odati bo‘yicha talabgor yosh polvon qabatiga borib o‘tirishi lozim bo‘ldi.

Ammo Bo‘ri polvon davra qoq o‘rtasiga borib cho‘k tushdi. Bo‘ri polvon bu bilan o‘zini anavi yosh bola yonida yonma-yon o‘tirishga or qilganini bildirdi.

Anavi yosh bolaga, ko‘rpachaga qarab oyoq uzatsang-chi, degan qarash qildi.

Bo‘ri polvon bilan Ismoil otli bu yosh polvonga bir g‘unajin, yana bir qancha mayda zotlar qo‘yildi.

Bo‘ri polvon Ismoilni ko‘zga ilmay-ko‘zga ilmay davra aylandi. «Tayyor osh-ku...», – deya o‘zidan ketdi.

Oqibat... Bo‘ri polvon... Polvon nomini olgandan buyon umrida birinchi marta yelkasi yer ko‘rdi!

Qanday yiqildi – o‘zi-da bilmadi!..

Ko‘zlarini ochsa... osmon to‘la yulduz bo‘ldi!..

Ohista-ohista joyidan turdi. Bosh egib-bosh egib davradan chiqdi.

Hamrohlari hamdard bo‘lish uchun qo‘ltig‘idan ushladi.

Bo‘ri polvon hamrohlari qo‘lini zarda bilan siltab-siltab tashladi.

Choponiga cho‘nqayib o‘tirdi. Tizzalarini quchoqladi. Peshonasini bilaklari ustiga qo‘ydi...

Ho‘ng-ho‘ng yig‘lab qo‘ya berdi!

Hamrohlariga javdirab-javdirab qaradi.

– Chiniminan yiqildimmi-a, chiniminanmi-a?.. – dedi.

Sel-sebor yig‘lab qo‘ya berdi...

## 5

Bo‘ri polvonning yelkasi yerga tekkani elga yoyildi.

Bo‘ri polvon nomi bilan g‘ururlanib yurmishlar ichi achiy-achiy bosh chayqadi.

---

<sup>1</sup> **Qurga** – davraga, o‘rtaga.

– Yomon bo‘pti-da... – dedi.

Davralarda Bo‘ri polvon dastidan ro‘shnolik ko‘rolmay yurmishlar xushvaqt-xushvaqt bosh irg‘adi.

– Bo‘ri polvon-da tamom bo‘pti... – dedi.

Bo‘ri polvon el orasida bosh ko‘tarolmay qoldi. Uyidan ko‘chaga chiqmay qoldi.

Keyin o‘sha yosh polvonni ta‘qib eta boshladi. Qayerda to‘y bo‘lsa, poylab bordi.

Ammo yosh polvon Bo‘ri polvon nomini eshitiboq, rad qila berdi.

Ismoil otli bu yosh polvon dovrug‘i butun vohaga yoyildi.

Kimsan – Bo‘ri polvon yelkasini yerga tekkizgan Ismoil polvon!

Ismoil polvon bu nomni umrbod saqlab qolmoqchi bo‘ldi. Shu bois Bo‘ri polvon davraga kelibdi, desa bo‘ldi, indamay ketib qola berdi.

## 10

Bo‘ri polvon Ismoilni tinmay ta‘qib eta berdi...

U endi mug‘ombirlik yo‘liga o‘tdi.

Termizda bo‘lmish bir to‘yga juda kech bordi. Mashina kabinasida davraga qarab o‘tirdi.

Davra oxirida bakovullar boshqa katta polvon yo‘q deyishib, kimsan Bo‘ri polvonday polvon yelkasini yerga tekkizgan Ismoil polvonga jar soldi.

Ismoil polvon davrani bir aylanib, o‘zini ko‘rsatdi.

Xuddi shu vaziyatni ikki oydan beri angg‘ib<sup>1</sup> yurmish Bo‘ri polvon kabinadan sakrab tushib, davraga kirdi.

Bo‘ri polvonning xuddi osmondan tushganday favqulodda paydo bo‘lishi barcha-barchani hayron qoldirdi.

O‘zaro shivir-shivir bo‘lib, davra gap nimada ekanini bildi.

Ismoil polvon arosatda qoldi.

Chiqayin desa – Bo‘ri polvon, chiqmayin desa – bakovul jar solib bo‘ldi.

---

<sup>1</sup> Angg‘ib – kutib, poylab.

Ismoil polvon chiqishga majbur bo'ldi.  
Bo'ri polvon vajohati barcha-barchani seskantirib yubordi.  
Bo'ri polvon g'alabaga tashna bo'ldi!  
G'alaba qozonish esa hamisha qiyin! Ayniqsa, bugun!  
Negaki, Bo'ri polvon faqat zafar qozonish uchun olishadi!  
Faqat, faqat g'alaba uchun kurashilsa, g'alabaga yetish juda  
mushkul bo'ladi! Ba'zan, yetib bo'lmaydi!  
Yo'q, polvon zafarni emas, zafar polvonni qidirsin! Zafar pol-  
vonni topsin!  
Polvon xohish-iroda bilan olishsa, o'zining nimalarga qodirli-  
gini namoyish etsa, san'atini namoyish etsa, zafar o'z-o'zidan  
keladi!  
Polvon o'z kurashidan o'zi zavqlansa, zafar o'z-o'zidan yor  
bo'ladi!

### 13

Bo'ri polvon davraga kirdi.  
Ismoil polvon-da sakrab davraga tushdi.  
Ismoil polvon yurish-turishi, avzoyidan osonlikcha jon bera-  
diganga o'xshamasdi!  
Bo'ri polvon Ismoilga yeguday-yeguday bo'lib xo'mrayib  
qaradi.  
Ismoil polvon kurashni iloji boricha cho'zish payida bo'ldi.  
Shunda, Bo'ri polvon nafasi qaytadi. Bo'ri polvon holdan  
toyadi. Yosh – yoshligini, qari – qariligini qiladi...  
Bo'ri polvon nimaki qilmoqchi bo'lsa, Ismoil polvon xuddi  
bilib turganday, niyatlarini chippakka chiqara berdi. Bo'ri polvon  
ana shunda ko'zga yaqin, yagona zo'rga juda-juda qiyin  
ekanligini bildi. Boisi, zo'rga hamma havas bilan qaraydi.  
Zo'rning san'atini, o'ngi-chapini miridan sirigacha sinchiklab  
o'rganadi. Zo'rga taqlid qilib, o'shanday zo'r bo'lgilari keladi!  
Zo'r-chi? Zo'r o'zgalarni bilmaydi. Ayniqsa, o'zidan kuch-  
sizlarni bilmaydi!  
Bilgisi-da kelmaydi! Boisi, ko'zga ilmaydi!

Zoʻrning tagʻin bir fojiasi – zoʻr magʻlubiyat alamini kam totadi.

Zafar ketidan zafar... Zoʻr – zafar ogʻushida yashaydi!

Yoʻq, zoʻr magʻlubiyatlar alamini-da totib turishi lozim!

Ana shunda u oʻzi haqida oʻylab koʻradi! Ana shunda sergaklik bilan yashaydi!

Zoʻr uchun magʻlubiyat zafar qatori bab-baravar zarur!

## 15

...«Xoʻsh, kuchi-ku kamayib qolibdi, – umid bilan oʻyladi Boʻri polvon. – Nahotki, quruq kuchiga ishonayotgan shu yosh bolaning biron korini qilib boʻlmasa?»

Xayoliga oʻziga maʼqul bir fikr keldi...

Qoʻllarini sermab, Ismoil polvonga qarab yurdi.

Ismoil ketiga tislandi. Oʻzini goh chapga olib qochdi, goh oʻngga olib qochdi. Boʻri polvon moʻljaliga bormadi.

«Faqat qoʻyib yubor deguncha qiladigan ishni qilish kerak, – oʻyladi Boʻri polvon, – boʻlmasa, gʻirrom boʻladi».

Boʻri polvon Ismoilga qaradi.

Ismoil polvon yelkasidan nafas ola-ola davra aylandi. Demak, Ismoil polvon-da charchadi!

Ana, Ismoil polvon mashʼala yaqiniga borib qoldi.

Boʻri polvon boʻlsa, davra bu chetida boryapti. U oʻzicha moʻljal qildi: «Hozir olishmoqchi boʻlib oʻgiriladi. Ismoil-da olishmoqchi boʻlib oʻgiriladi».

Boʻri polvon oʻrtaga qarab yurdi.

Ismoil polvon bir-ikki qadam tashlab, olov oldida toʻxtadi. Yoniga oʻgirildi. Oʻrtada Boʻri polvonga qarab yurdi.

Ismoil polvon yelkalari uzra mashʼala lovullab-lovullab turdi. Mashʼalaga teskariligi sababli yuzlari qorayib-qorayib turdi.

Polvonlar bir-biriga quloch otib kela berdi!

Boʻri polvon Ismoil polvon yoqasidan ushlab, ichidan chil berdi. Jon-jahdi bilan ketiga burdi. Shunday shiddat bilan surdiki, Ismoil polvon oʻzini oʻngga-da, chapga-da ololmadi. Tikka mashʼala ustiga seltanglab-seltanglab bordi.

– E-e-e, olov, olov! Olov bor! – dedi ovozlari.

Ismoil polvon olov taftini oldi. Taqqa to‘xtadi. Ketiga chalqaydi. Olovga yiqilmaslik uchun gavdasini oldinga tashladi.

Ya‘ni... ya‘ni gavdasini Bo‘ri polvonga berib qo‘ydi!

Bo‘ri polvon g‘oyatda tezlik bilan chilini chiqarib oldi. Chap oyog‘ini yoniga to‘shadi. Ismoil polvonni davra o‘rtasiga sermab yubordi.

– Yo, otam! – deya ayqirdi.

Ismoil Bo‘ri polvon to‘g‘onoq oyog‘i ustidan oshib, davra o‘rtasiga chalqancha tushdi!

Ismoil polvon yulduz sanadi!..

Hay-hay-hay! Yoshlik – yoshligini, ko‘pni ko‘rganlik – ko‘pni ko‘rganligini qildi! Tajriba! Tajriba zafar qozondi!

Bo‘ri polvon qo‘llarini ko‘tarib, davrani aylanib chopdi. Oyoqlarini osmon qilib dorboz bo‘ldi. Dorboz bo‘lib-dorboz bo‘lib davra aylandi.

Davradan chopib chiqib, hamrohlarini bitta-bittalab bag‘riga bosdi. Hamrohlarini quchoqlab-quchoqlab oldi.

– Ko‘rdingmi meni? Ko‘rib qo‘y!.. – dedi.

Kulayotgan yonoqlaridan munchoq-munchoq yoshlar oqdi.

## 16

Ertasi uyda ho‘kiz so‘ydi. Gapga yetar odamlarni chaqirdi.

Davrani tark etajagini aytdi. Uylanajagini aytdi.

– Hali-hozir uylanmay turing endi, Bo‘ri polvon, – dedi gapga yetarlar. – Har yurtning o‘z ko‘zga surtar polvoni bo‘ladi. Bizning ko‘zga surtar polvonimiz sizsiz...

– Yo‘q, bo‘ldi! – cho‘rt kesdi Bo‘ri polvon.

Gap yetarlar nasihat qildi. Nasihatlar zoye ketdi.

Bo‘ri polvon o‘z bilganidan qolmadi.

Brigadasida Suluv degich qiz bo‘ldi.

Bo‘ri polvon ana shu qizni ko‘z ostiga oldi.

Suluv Bo‘ri polvon ko‘ngliga o‘tirib qoldi.

Ko‘ngliga o‘tirgani – Suluv erkak zoti ko‘ziga tik qaramasdi.



...Bo‘ri polvonsiz davralar fayzsiz bo‘lib qoldi.

Bo‘ri polvon o‘rni juda-juda bilindi.

El Bo‘ri polvon kurashini qo‘msadi...

Bo‘ri polvon-da davralarga intiq bo‘lib qaradi. Bo‘ri polvon o‘zini izladi!

Yo‘q, Bo‘ri polvon yo‘q! Aksiga olib ayoli topgani-da qiz bo‘ldi! To‘rtinchi farzand ko‘rdi – tag‘in qiz bo‘ldi!

Yaratganning o‘zidan davralarni gursillatib-gursillatib olishadigan o‘g‘il tiladi.

Hartugul, beshinchi farzandi o‘g‘il bo‘ldi!

Tilab-tilab topganim deya otini Tilovberdi qo‘ydi.

Bo‘ri polvon endi orzu bilan ovundi: o‘g‘li Tilovberdi balog‘atga yetyapti – ot o‘rnini toy bosadi...

Yolg‘iz o‘g‘il Tilovberdi tez yetildi. Uni kuyov qiladiganlar ko‘paydi. Ayrimlar tilga borib aytdi.

Ammo Bo‘ri polvon rozi bo‘lmadi. Kampiri qistasa-da, ko‘nmadi.

Bo‘ri polvon o‘g‘lini tarbiya qila berdi.

O‘g‘lini nahorda uyqudan uyg‘otdi. Tuxum yuttirdi...

## XXIX

Shunday qilib, Tilovberdi polvon bilan sho‘rchilik Abray polvon olishadigan bo‘ldi.

«Menga daryoning naryog‘iyam bir, beryog‘iyam bir. Baribir o‘g‘limdan zo‘ri yo‘q», – dedi o‘zicha Bo‘ri polvon. Lekin Sho‘rchida Abray degan bunday katta polvon yo‘q edi-ku? Bu kim bo‘ldi ekan? Yo sho‘rchiliklar alamlarini olish uchun boshqa yoqdan polvon yollab keldilarmikin? Bunday voqealar ko‘p bo‘ladi...

Bo‘ri polvon sho‘rchiliklar to‘pi ro‘parasiga o‘tirdi. Past ovozda so‘radi:

– Inim, bu Abray polvonlaringni eshitmagan ekanman, u kimlardan?

– Abraymi? Nasim polvonning uli bo‘ladi. Yaqinda armiyadan keldi.

Bo‘ri polvon birdan sergak tortdi. Javob bermish odamga tikildi-tikildi, ohista joyidan turdi.

Ajabtovur hislar og‘ushida qoldi. Xivich ushlagan barmoqlari qaltiradi. Xivich siquvida qahr bo‘ldi, nimadir qilishga chog‘lanish bo‘ldi. Titroq chap qo‘li, lablariga o‘tdi.

Davradan qanday chiqdi, bilmadi. Amir polvon yelkasiga qo‘lini qo‘ydi. Og‘ir entikdi. Nimadir demoqchi bo‘ldi. Deyolmadi, tomog‘i qurib qoldi.

Amir polvon Bo‘ri polvon holini bildi. Darrov qo‘ltiqlari ostidan oldi.

– Polvon bova, nima bo‘ldi? Tilovberdi, suv opke! – dedi.

Bo‘ri polvon sovugan choy ichdi. Entikdi. Lablarini yaladi. Jilmaydi.

– Qaridik, ukam, qaridik. Yurak yaramay qolyapti! – dedi. – Amir, sen berman ke.

Bo‘ri polvon Amirni qorong‘iga ergashtirib ketdi.

– Amir, menga qara, shu Abray deganiga bizning Tilovberdini chiqar, xo‘pmi?

– E, polvon bova, davra bilib qoldi-da!

Bo‘ri polvon davra sirtida turib qoldi. O‘zini o‘nglab oldi.

Tag‘in davraga kirdi. Siniq ovozda jar soldi:

– Xaloyiq, eshitmadim demanglar! Ho‘kiz toboqni ko‘targan Abray polvonga Tilovberdi polvon chiqadigan bo‘pti! Gilam toboqni esa Jonibek ko‘taradigan bo‘pti! A? Endi u yog‘ini bilmadim, xaloyiq! O‘zlari shunday fikrga kelibdi, bir bilganlari bordir-da!

### XXX

– Qani, endi davraga ho‘kiz toboqni ko‘targanlar chiqsin!

Bo‘ri polvon shunday deya davra aylandi. Ko‘z ostidan Nasim polvonga tikildi.

«Nasim oshna, o‘g‘lingga bir og‘izgina chiqma, u Bo‘ri bobongning o‘g‘li ekan, demading-a, – deya, ich-ichidan o‘pkaladi.

– Demaysan, deyolmaysan. Chunki sen o‘sha Nasimsan... Sendan bunday gap chiqmaydi. Mana hozir bilasan, sening farzanding kim-u, mening farzandim kim...»

Nasim polvon to‘g‘risiga oyoq ildi<sup>1</sup>. Soqolini siladi. Tomo-  
g‘ini qirdi.

«Meni bir umr mag‘lub etdim, qoyil qildim, deb yurib eding-  
mi? Oshna, adashasan... Hozir ko‘rasan, mening kim ekanimni.  
Oldingdan salom berib o‘taman...»

### XXXI

Nasim polvon tarafdin Abray, ro‘baro‘ tarafdin Tilovberdi polvon davraga tushdi.

Tilovberdi polvon qo‘lini ko‘ksiga qo‘ydi. Abray polvonni oldinga taklif etdi.

– Qani polvon, torting! – dedi.

Abray polvon Tilovberdi polvonga qo‘l berdi.

– Yo‘g‘-e, yo‘l boshi sizdan, polvon! – dedi.

Tilovberdi polvon oldinga yurdi. Abray ketidan ergashdi.

Bo‘ri polvon shuni, aynan shuni kutdi. Yuzlarida tabassum o‘ynadi. Olisroqda bo‘lsa-da, Nasim polvonga tag‘in qaradi.

«Ko‘rdingmi, Nasim oshna? O‘g‘ling mening o‘g‘limdan oldinda yurishga yuragi dov bermadi. Mening o‘g‘lim hamisha birinchi...»

Bo‘ri polvon o‘g‘illarni bir-biriga qiyosladi. Ayniqsa, Abray polvonning sumbatiga sinchiklab-sinchiklab tikildi.

«Momoqizning o‘g‘li xushsurat yigit bo‘pti. Ammo Momoqizga o‘xshamaydi. Otasiga tortibdi. Nasimning o‘ziyam husndor edi-da. Faqat burnining puchuqligi Momoqizga kelbat beradi...»

Bo‘ri polvon soqoli uchini buklab tishladi. Sezilar-sezilmas bosh irg‘adi.

Abray polvonga suqim kirmasin deya nazarini quvdi, yon-  
veriga tufladi:

– Tuf-tuf-tuf!..

---

<sup>1</sup> Oyoq ildi – to‘xtadi.



## XXXII

Polvonlar qo‘l berib ko‘rishdi.

Tilovberdi polvon jelaklari o‘ngirini ketiga surdi. Yenglarini xiyol tortdi. Barmoqlarini tili bilan ho‘lladi. O‘ynab-o‘ynab Abray polvonga qarab bora berdi.

Abray polvon ko‘zlari qarshisida mardona o‘ynayotgan barmoqlar orasida hech nimani ko‘rolmadi. Ko‘zlari pirpiradi. Keyiniga tisarildi.

Tilovberdi polvon Abray polvon ko‘zlariga tikildi: Abray polvon ko‘zlari hayiqdi! Ana endi hamlaga o‘tsa bo‘ladi!

Tilovberdi polvon o‘ng qo‘li bilan Abrayning yoqasidan ushladi. Ichidan chil berdi. Shiddat bilan ketiga surdi.

Abray polvon ketiga seltanglab-seltanglab bordi. Kimningdir fonusiga qoqilib ketdi. Odamlar ustiga chalqancha tushdi.

Tilovberdi polvon yiqitdim deya qo‘llarini ko‘tardi.

Nasim polvon qabatidagilardan tashvishli ovozda so‘radi:

– Nima bo‘ldi-a, nima bo‘ldi?

Nasim polvonning ovozi juda xasta bo‘ldi, faqat ko‘zi ojizlarga xos ovoz bo‘ldi.

Xo‘jasoatliklar Tilovberdi polvonni olqishlab qichqirdi:

– Halo-o-ol!

– Tilovberdi polvonning haqi berilsin!

– Xayriyat, odamlar ustiga tushdi, agar shu zarb bilan yerga tushganda, ichagi uzilardi!

Tilovberdi polvon bakovul qoshiga cho‘kkaladi.

Bo‘ri polvon yuzlarida quvonch ifodasi ko‘rinmadi. Vag‘irvag‘ir qilayotgan hamqishloqlariga amirona qo‘l siltadi.

– Xaloyiq, jim! – dedi. – Ko‘p javramang, jim bo‘ling! Xaloyiq, davradagi Bo‘ri polvon so‘zim: Tilovberdi polvon Abray polvonni yiqitilmadi!

Qoni tez xo‘jasoatliklar bidillab ketdi:

– E, qo‘ying-e, polvon bova, chalqayramon<sup>1</sup> tashladi-yu!

---

<sup>1</sup> **Chalqayramon** – chalqancha.

– Bundan ziyod qanday yiqitib bo‘ladi?!

– Xaloyiq, so‘zlab bo‘ldingizmi? – dedi Bo‘ri polvon. – Qaytarib aytaman, Tilovberdi polvonning yiqitgani bekor!

– Nimaga bekor bo‘lar ekan?

– Chunki u odamlar ustiga yiqitdi! – dedi Bo‘ri polvon.

– Sizga baribir emasmi qayerga yiqitgani?!

– Yo‘q! Polvon polvonni osmonning ko‘kiga otsayam bekor! Polvonmisan – yerning ustiga yiqit! Qani, boshqatdan olishinglar!

Tilovberdi polvon otasiga o‘qraydi. Qobog‘ini uydi. Tag‘in davra aylandi.

Bo‘ri polvon bildi, o‘g‘li undan norozi bo‘ldi.

«Oh, qaniydi, o‘g‘li hozir yiqitgan bo‘lsa! O‘g‘li buni bilmaydi-da! Bilmagani yaxshi...»

## XXXVI

Tilovberdi polvon g‘olibona yurishda davom etdi. O‘ng oyog‘ini lapanglatib-lapanglatib olg‘a tashladi. Ba‘zan haddan ziyod olg‘a tashlab yubordi. Shunda gavdasi orqada qolib-qolib ketdi.

Abray polvon sezdi! Ammo Tilovberdi oyog‘iga atayin qaramadi! Ko‘zlariga tik boqib bora berdi! Bor diqqat-e‘tibori esa oyog‘ida bo‘ldi. Bo‘lajak vaziyat to‘lishib kelajak sayin ko‘zlari yanada besaranjom boqdi, bejo boqdi.

Xo‘jasoatliklar Tilovberdi polvon beparvoligi oqibatida ro‘y berayotgan nozik vaziyatni ko‘rib turdi. Ammo Tilovberdi polvonni ogoh qilishga jur‘at etolmadi. Ehtimol, ko‘zlari tik boqayotgan Abray polvon bu vaziyatni payqamayotgandir? Bordi-yu, ovoz bersalar, Abray polvon bilib qolmaydimi?

Xo‘jasoatliklar ana shu tashvishda miq etmay o‘tirdi.

Qaltis vaziyat bo‘ldi!

Davra nafasini yutdi.

Tevarak suv sepganday jimjit bo‘ldi.

Faqat Tilovberdi polvon bilan Abray polvon nafasi eshitildi. Polvonlar bir-birini ruhan arbadi<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> **Arbadi** – avradi, chalg‘itdi.

## XXXVII

Bo'ri polvon davra chetida chordana qurdi. O'zini, jamiki olamni unutdi...

Qo'ynidan tasbehini oldi. Donalab-donalab tasbeh ag'dardi.  
Shiq!

Ichida kalima qaytardi! O'ng kaftini yuziga tortdi. Boshi chapga xiyol qiyshaydi. O'g'lining lapanglayotgan oyog'idan ko'z uzmadi. «O'g'lim, oyog'ingni ol!»

Shiq!

Bo'ri polvonni zo'r hadik bosdi. Qaddi tobora cho'kib bordi. Tomog'ini qirdi. Ovozini yolg'iz o'zi eshitdi. Og'zini angraygannamo ochdi.

«O'g'lim, senga aytaman!»

Shiq!

Yo'q, zafarli yurishlarga o'rganib qolgan otasining o'g'li oyog'ini olmadi. Aksincha, xuruj qilib bora berdi.

Shiq!

Abray polvon Tilovberdi polvon ko'zlaridan ko'z olmadi. Ko'z ayirmadi.

Tilovberdi polvonni oyog'i yerga tekkuncha zarb bilan qoqib yubordi.

– Xap-a-a-a! – deya ayqirdi.

Hayqiriq nihoyasiga yetmayoq, Tilovberdi polvon ikki yag'rini bilan gupillab tushdi!

## XXXIX

Shiq!

Bo'ri polvon qo'lidagi tasbeh yerga tushdi.

Ko'zlari yumildi, boshi orqaga xiyol chalqaydi.

Keyin o'zini o'nglab oldi. Nasim polvonga qaradi. Mung'ayib-mun-g'ayib qaradi.

Nasim polvon iljaydi, Nasim polvon tantana qildi!

Bo'ri polvon boshini xam qildi. Yerda kulcha bo'lib yotmish tasbehini oldi. Ohista qo'zg'aldi. Davradan enkayib-enkayib chiqib ketdi. Davra sirtida kiyinajak o'g'li ovozini eshitdi.

O'g'il yig'lab-yig'lab aytdi:

– Men yiqitganda g'irrom dedi, mana oqibati! Otamiz niyatiga yetdi! Otamiz bor ekan, bizga g'animning keragi yo'q!..

Bo'ri polvon oyoq ildi. Nimadir demoqchi bo'ldi. Ammo so'zlashga madori yetmadi.

Ohista-ohista odimladi. Qorong'ilikka kirib ketdi. Duch kel-mish g'o'zapoya uyumiga chiqdi. Yelkasidan nafas oldi. «Qoron-g'i qanday yaxshi, odamlar ko'rmaydi...» – cho'nqayib o'tirdi. Keyin yonboshladi. Telpagini ketiga surdi. Titrayotgan barmoqlari tasbeh donalarini sur'at bilan sanadi: shiq, shiq, shiq...

## XLII

Bo'ri polvon ko'ngli to'lib-to'lib ketdi.

Ko'ngli to'ridan nimalardir o'ksib-o'ksib kela berdi. O'ksik zarbidan yelkaları silkina berdi. Yonoqlaridan marjon-marjon yoshlar oqdi. Ohlar – yurakdan, yoshlar – ko'zdan bo'la berdi...

«Nasim oshna, ko'zimga ko'rinib, yaramni yangilading. Yana tag'in o'g'limni-da yiqitding.

Bilib qo'y, oshna... izingdan surganim surgan! Qayerda davra bo'lsa, izingdan quvib boraman!

Tilovberdini o'g'ling bilan uch safargacha olishtiraman! Bordiyu uch martasida-da o'g'ling o'ktam kelsa... unda, nailoj, uchdan keyin puch.

Baribir qo'ymayman! Ana, nevaralarim bor! Nasib bo'lsa, nevaramni nevarang bilan olishtiraman!

Ishonchim komilki, nevaram bobosining orini oladi!

Sen ko'rmayapsan, oshna, oy botib, yulduzlar so'nib-so'nib boryapti.

O'g'lim o'ktamligida yulduzlar yongani-yongan bo'ladi. O'g'lim mag'lubligida yulduzlar so'ngani-so'ngan bo'ladi.

Yo'q, oshna, yo'q!

Yulduzim hali yonadi! Davralarim hali davom etadi! Nevaralarim davralarda:

– Yo, bobomning piri, deb olisha beradi!

Yulduzim mangu yonadi!»



## «YULDUZLAR MANGU YONADI» QISSASI HAQIDA

«Yulduzlar mangu yonadi» qissasini o‘qir ekanmiz, bu asar biz mutolaa qilgan boshqa asarlardan juda ko‘p jihati bilan farq qilishini anglaymiz. Bu farq, avvalo, muallifning hikoya tarzida ko‘rinadi. Guvohi bo‘lganingizdek, asar tili va yozuvchi uslubi muallif unib-o‘sgan Surxon vohasida yashaydigan xalq tili va muomala usuli bilan chambarchas bog‘liqdir. Tog‘ay Murod go‘yo qishloqdoshlariga qiziqarli bir rivoyat so‘zlab berayotganday tutadi o‘zini. U shu tinglovchilariga tushunarli, sodda tilda so‘zlaydi, qisqa-qisqa gaplar tuzadi. Shunisi qiziqki, bu hikoya usuli yurtimizning istagan hududidagi o‘quvchini ham darrov o‘ziga tortadi, uni jon qulog‘ini berib eshitishga undaydi.

Nega?

Nega o‘rtada anglashmovchilik paydo bo‘lmaydi, tushunarsiz holatlar yuzaga kelmaydi? Axir, Siz bilan biz o‘rganib qolgan nasriy asarlarning voqea-hodisalarni bayon qilish usuliga Tog‘ay Murod hikoya tarzi hecham o‘xshamaydi-ku! Yozuvchi bilan bizni yaqinlashtirayotgan narsa nima o‘zi? Nimaga biz ham muallif bilan birga suyunib, birga yuragimiz achishib boradi?

Tog‘ay Murod hayoti va ijodi haqida gapirganimizda, uning asarlarida favqulodda qahramonlar, o‘ta aqlli odamlar uchramasligini eslatgandik. U tanlagan qahramonlar oddiy – Siz bilan biz deyarli har kuni ko‘cha-ko‘yda uchratadigan, ko‘pincha ahamiyat ham bermay o‘tib ketadigan kishilardir.



**Demak, Tog‘ay Murod qahramonlari bilan bizni qalban yaqinlashtirayotgan narsa – xalqimizga xos bo‘lgan soddalik, samimiylilik, to‘g‘rilik, ochiq ko‘ngillik xislatlaridir.**

Millatning bu bebaho fazilatlari «Yulduzlar mangu yonadi» qissasida ortiqcha jimjimaga o‘ralmay, alohida bo‘rttirilmay, atayin ta’kidlanmay aks ettiriladi. Surxondaryoning olis qishloqlarida yashaydigan oddiy insonlar uchun OR, NOMUS, G‘URUR, UYAT, ANDISHA, KAMTARLIK, HALOLLIK, MARDLIK

singari hislar alohida qahramonlik belgisi emas. Bu hislar har bir kishining tabiiy yo‘ldoshi bo‘lishi lozimligini qissaning ko‘plab ta‘sirchan voqealaridan bilib olamiz.

Eslang, bu asar 1976-yilda yozilgandi.



**U yillari o‘zbek xalqi miyasiga «Sizlar o‘tmishda savodsiz, madaniyatsiz, aqliy va jismoniy imkoniyatlari cheklangan xalq bo‘lgansizlar. Faqat yurtningizda sho‘ro hukumati o‘rnatilgandan keyingina madaniyatli millatlar qatoriga qo‘shilish imkoniyatiga ega bo‘ldingiz» qabildagi tushunchalar g‘oyat ayyorlik bilan singdirilardi.**

Ikki-uch yillik harbiy xizmatga olib ketilgan yigitlarimiz aksariyat qurilish batalyonlariga tashlanar, ularning kuchidan suvtekin foydalanilardi. Respublikada sportni rivojlantirish, bolalarni sog‘lomlashtirish masalalariga kam e‘tibor berilar, bolalar umri paxta dalalarida, xavfli kimyoviy dorilar ostida zaharlanib o‘tardi. O‘z intilishi bilan ko‘pchilikni qoyil qoldirgan iste‘dodli sportchilar ham xorijiy davlatlarda bo‘ladigan xalqaro musobaqalarga jo‘natilmas, natijada, dunyo ahli o‘zbeklar kim, O‘zbekiston qanday yurt ekanidan bexabar qolaverardi.

Boshqa yoqdan esa turli bahonalar bilan bizning milliy an‘analrimiz, urf-odatlarimizga davlat miqyosida hujumlar uyushtirilardi. Dinimiz, e‘tiqodimiz ustidan ochiqdan ochiq kulishar, nene asrlar osha zavol ko‘rmay kelgan ko‘plab muqaddas qadamjolarimiz buzib tashlanardi. Ona tilimiz butun rasmiy idoralar, hujjatlar, aksariyat ta‘lim dargohlaridan siqib chiqarilgan, bu tilda gaplashish esa madaniyatsizlik belgisi sifatida qaralardi...

Tog‘ay Murod mana shunday sharoitda o‘z qahramoni Bo‘ri polvonga qo‘shilib og‘ir-og‘ir, ayni choqda yozuvchi uchun xavfli-xavfli o‘ylarga cho‘madi. Bu o‘ylarini el oldiga, boyagi makkor hukumat oldiga olib chiqishdan cho‘chib o‘tirmaydi:

«Xalq nimasi bilan xalq?

O‘zining urf-odatlari bilan xalq! Ko‘p urf-odatlarimizni birovlar... birovlar o‘ziniki qilib oldi! Biz qo‘limizni burnimizga tiqib qoldik.

Shunday keta bersak, hademay... o‘zimizni-da boy berib qo‘yamiz!

Bu yog‘i kamday, ne-ne nimalarimizni eskilik sarqiti deb yo‘q qildik. Xiyol bo‘lmasa xalqning o‘zini-da... eskilik sarqitiga chiqarib yuborayin, dedik!

Bugun buni yo‘qota bersak, ertaga uni yo‘qota bersak... podadan nima farqimiz qoladi?..»

Bo‘ri polvonning bu o‘ylari «Buni rais biladimi?..» degan savol bilan tugayotganiga e‘tibor bering. Xo‘p, rais biladi ham deylik, nima qila oladi? Undan kattaroq raislar, vazir-u noiblar nima qila olyaptiki, kichik bir kolxoz raisi bir narsa qila olsin! Aslida ularning biror narsa qilishi, nimanidir o‘zgartirishi – keyingi masala. O‘zi ular bu haqida jiddiyroq o‘ylaydimi? Shu muammolarni o‘ylab hech uyqulari qochganmi?

Agar jiddiyroq o‘ylaganlarida, ozgina ixlos qo‘yib harakat qilganlarida bu masalalarni ham yoritish yozuvchiga qolmas ediku! Shunday emasmi?

Xuddi Bo‘ri polvondek yozuvchi ham noyob urflarimiz, ko‘h-na ma’naviy boyliklarimiz sekin-asta unutilishi, borib-borib esa yo‘q bo‘lib ketishidan jiddiy xavotirga tushadi. Agar e‘tibor qilgan bo‘lsangiz, bu qissada qadimiy xalq musobaqasi – kurash san’atining butun qonun-qoidalari eng mayda jihatlarigacha batafsil tasvirlanadi. Ikkinchi qissa – «Ot kishnagan oqshom»da chavandozlik, otlar bilan bog‘liq o‘yinlar, otlarning zoti, parvarishi singari mavzular yoritiladi. «Otamdan qolgan dalalar» romanida bo‘lsa, qadim o‘zbekning paxtakorlik faoliyati sirsinoatlari to‘liq qog‘ozga tushiriladi. Tog‘ay Murod bu ishni ongli ravishda, ezgu maqsad yo‘lida qilgani shubhasizdir.



**Zero, chinakam yozuvchilar ajdodlarni avlodlarga, zamonlarni zamonlarga ulovchi, xalq madaniyatining jonkuyar targ‘ibotchilari sifatida ham tarixiy vazifalarni ado etadilar!**

Xalqona ibora bilan aytsak, «Yulduzlar mangu yonadi» qissasi muallifi Tog‘ay Murodning Xudoga aytgani bor ekan. Yurtimiz

mustaqilligi qo‘lga kiritilgach, juda ko‘p xalq an‘analari singari o‘zbek kurashini keng targ‘ib etish, yoshlarni unga jalb qilish, bu sport turini har tomonlama ommalashtirish borasida ulkan ijobiy ishlar amalga oshirildi. Birinchi Prezidentimiz tomonidan kurashga alohida e‘tibor qaratilib, bugungi kunda bu sport turi bilan nafaqat mamlakatimizda, balki ko‘plab xorijiy yurtlarda ham minglab odamlar shug‘ullanmoqda. O‘zbek kurashi bo‘yicha xalqaro turnirlar bugunga kelib Yer yuzining barcha qit‘alarida o‘tkazilayotgani bu mardlar musobaqasining qanchalar halol, gumanistik xarakterga ega ekanini yana bir bor isbotlamoqda.



### *Savol va topshiriqlar*

1. Tog‘ay Murod va unga tengdosh yozuvchilar ijodiga xos bo‘lgan asosiy xususiyatlarni biror asar misolida ko‘rsatishga harakat qiling.
2. Tog‘ay Murodning darslikda keltirilgan qissasidan boshqa yana qanday asarlarini o‘qigansiz?
3. «Yulduzlar mangu yonadi» qissasi Siz hozirga qadar o‘qigan boshqa yozuvchilar asarlaridan ko‘proq nimasi bilan farq qiladi?
4. Bo‘ri polvon tabiatan qanaqa odam? Nega u o‘ttizga kirguncha uylanmay yurdi?
5. Nasim polvon bilan Bo‘ri polvon o‘rtasida qanday ziddiyat yuz berganini qissani to‘liq o‘qish orqali bilib olishga harakat qiling.
6. Bo‘ri polvonning hech qachon o‘z manfaatini ko‘zlab ish qilmasligi qaysi harakatlarida namoyon bo‘ladi?
7. Bo‘ri polvon nega o‘g‘li Tilovberdining g‘alabasini tan olishni istamadi va uni qaytadan kurashga tushishga majbur qildi?
8. Tilovberdining Abray polvondan yengilganidan keyingi holatini qanday izohlaysiz? Bu otaga hurmatsizlik belgisimidi yoki boshqa narsami?
9. Tog‘ay Murod qissasini mutolaa qilib, o‘zingiz uchun o‘zlash-tirgan eng muhim ma‘naviy boylik nima bo‘ldi?
10. «Yulduzlar mangu yonadi» qissasi asosida ijodiy insho yozing va sinfdoshlaringizga o‘qib bering.

## *Ibroyim YUSUPOV*

*(1929–2008)*



O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq shoiri Ibroyim Yusupov qardosh Qoraqalpog‘istonning Chimboy tumani hududidagi Azot ovulida 1929-yilning 5-may kuni tavallud topgan. O‘rta maktabni tugallab, Qoraqalpog‘iston pedagogika institutiga o‘qishga kirgan va uni 1949-yilda muvaffaqiyatli bitirgan. Talabalik yillarida yaqqol namoyon bo‘lgan uning izlanuvchanligi, ijodga moyilligidan xabardor institut rahbariyati Ibroyimni shu dargohda o‘qituvchi sifatida ishga olib qoladi. I. Yusupov 1961-yilgacha mazkur institutda talabalarga til va adabiyot ilmidan saboq beradi.

1961–1962-yillarda u Qoraqalpog‘istonning markaziy adabiy nashri bo‘lmish «Amudaryo» jurnalining bosh muharriri vazifasini bajaradi. 1962–1965-yillarda esa respublikaning Tarix, til va adabiyot ilmiy-tekshirish institutida avval ilmiy xodim, keyin sektor mudiri bo‘lib ishlaydi.

Ibroyim Yusupov respublika adabiy jamoatchiligi o‘rtasida qozongan obro‘-e‘tibori tufayli uzoq yillar davomida (1965–1980) Qoraqalpog‘iston Yozuvchilar uyushmasiga raislik qiladi. Ayni shu yillari qoraqalpoq milliy adabiyotining barcha yo‘nalishlarida diqqatga loyiq asarlar yaratiladi, yozuvchilar safiga yosh, umidli ijodkorlar kelib qo‘shiladi.

I. Yusupov 1980–1985-yillarda respublikaning markaziy gazetasida bosh muharrir vazifasini bajargan bo‘lsa, mamlakatimiz

mustaqillikka erishganidan to 2000-yilgacha Qoraqalpog‘iston Ma’naviyat va ma’rifat markazining raisi lavozimida fidokorona xizmat qildi.

ibroyim Yusupovning dastlabki she’rlari o‘tgan asrning 40-yillari o‘rtalaridan – u institutda o‘qib yurgan kezlariyoq e‘lon qilina boshlagan. Shundan buyon ijodkorning 30 dan ortiq she’riy va nasriy kitoblari o‘quvchilar qo‘liga yetib bordi.



**Shoirning «Kun chiqish yo‘lovchisiga», «Qoraqalpoqni ko‘p maqtamang ko‘zimcha», «Qora tol», «Turnalar», «Mening yigit vaqtim...» singari o‘nlab she’rlari, «Akatsiya gullagan joyda», «Gilamchi xotin haqida haqiqat», «Dala armonlari», «Mangu buloq» kabi dostonlari zamonaviy qoraqalpoq adabiyotining salmoqli yutuqlari bo‘lib qoldi.**

Serqirra ijodkor ibroyim Yusupov qoraqalpoq milliy dramaturgiya va sahna san’ati rivojiga ham sezilarli hissa qo‘shgan. Uning «Qirq qiz» (1965), «Aktrisaning iqboli» (1967), «Umirbek laqqi» (1971) dramalari, «Ajiniyoz» librettosi uzoq yillar davomida tomoshabinlar olqishiga sazovor bo‘lgan.

ibroyim Yusupov jahon mumtoz she’riyati vakillarining eng sara asarlarini o‘z ona tiliga mohirlik bilan o‘g‘irgan tarjimon hisoblanadi. Uning tarjimalari 1986-yilda «Mangu buloqlar» nomi bilan chop etilgan.

Shoirning ko‘plab asarlari ham, o‘z navbatida, qator tillarga, jumladan, o‘zbek tiliga o‘girilgandir. Hozirga qadar shoirning «Buloqlar qaynaydi» (1960), «Oltin qirg‘oq» (1962), «Dala armonlari» (1967), «Cho‘l to‘rg‘ayi» (1972), «Qora tol» (1988) singari kitoblari o‘zbek tilida nashr etilgan.

ibroyim Yusupov 1974-yilda Berdaq nomidagi Qoraqalpog‘iston Davlat mukofoti sohibi bo‘lgan.

Ko‘p yillik samarali ijodiy faoliyati, qoraqalpoq va o‘zbek xalqlari o‘rtasidagi do‘stlik va qardoshlik munosabatlarining rivojlanishiga qo‘shgan ulkan hissasi, davlat va jamoat ishlari-

dagi ibratli faoliyati uchun Ibroyim Yusupov 2004-yilda «O‘zbekiston Qahramoni» degan yuksak unvonga sazovor bo‘ldi.

Taniqli ijodkor, qoraqalpoq va o‘zbek xalqining fidoyi farzandi Ibroyim Yusupov 2008-yilda 79 yoshida olamdan o‘tdi.

\* \* \*

## QADRDON SO‘QMOQLAR

Har kimning tug‘ilgan yeri – Misr shahri.

*(Maqol)*

Qizil kendir bilan shivirlashar tol,  
Turna uchib borar olis yoqlarga.  
Talay yo‘llar bosib misoli shamol  
Yana qaytib keldim bu so‘qmoqlarga.

Ushbu tor so‘qmoqqa qadam qo‘yganda,  
Qaytadan men bola bo‘lib ketaman.  
Intiqqan yuragim kengayib shunda,  
Chamamda qush bo‘lib parvoz etaman.

Mosh paykalda gala chumchuq chug‘urlar,  
She‘r o‘qishib turgan yosh shoirlarday.  
Burilishda tanish qo‘shig‘in kuylab,  
Qo‘shni qiz oldimdan chiqib qolarday.

Biroq u bunda yo‘q, u yiroqlarda...  
Bizning joylar o‘rni hozir paxtazor.  
Nechog‘lik monandsiz bizning yoqlarda,  
Deb doim maqtayman, so‘rashsa agar.

Gul terib, kapalak quvgan sho‘x vaqtim,  
Anov bedazorda yurgan toy dersan.  
Yo tavba, shu bitta qiyshiq so‘qmoqning  
Dilga yaqinligin qanday aytarsan!

\* \* \*

Cholga salom bersam o'sha so'qmoqda,  
«Kimsan?» deb tanimay menga qaradi.

Bir bola uchrasa sal nariroqda:

– Kimning o'g'lisan? – deb men ham so'radim.

\* \* \*

– Ota, narvon bo'pti anov qo'sh terak!

– Bolam, terak emas, bu umr-ku, bu!

– Inim, bog'ga nega bog'lading eshak?

– E, anov chiriy deb qolgan olma-ku!

## IBROYIM YUSUPOV SHE'RLARI HAQIDA

Bolalar, inson umrini oqar daryoga o'xshatishlarini ko'p eshitgansiz. Nega umr aynan daryoga o'xshatiladi? Chunki daryo suvi bir oqib o'tgan joydan yana qayta oqmaydi. Odam ham o'z umrining biror daqiqasini ortga qaytara olmaydi. Umr xuddi daryo singari oqib o'tib ketadi. Yana bir gap borki, odam bir marta tushgan daryo suviga boshqa tusha olmaydi. Ya'ni o'sha daryoda boshqa safar ham cho'milishi mumkin, biroq u tushgan daryoda bu safar boshqa suvlar oqadi. Shunday ekan, insonning o'z o'tgan umrini, ayniqsa, bolaligi – beboshligi kechgan davrlarni sog'inishi, qo'msashi tabiiy tuyg'u hisoblanadi.

Yana bir savol ustida o'ylanib ko'rish mumkin. Ya'ni nima uchun odam aynan bolaligini ko'proq qo'msaydi, uni tushlarida ko'radi, unga sari talpinaveradi? Gap shundaki, bolalik – umrning eng betashvish, eng beg'ubor, eng shavqli pallasi hisoblanadi. Bu paytda butun borliq bola ko'zi, bola tasavvuri bilan idrok etiladi. Atrofdagi barcha narsalar birinchi bor ko'rilayotgani, eshitilayotgani, his qilinayotgani tufayli ham nihoyatda qiziq, sirli va go'zal ko'rinadi. Aksariyat odamlar bolaga shafqat nazari bilan qaraydi, uni erkalaydi, suyadi. Bola kattalardan



g'amxo'rlik, e'tibor ko'radi, atrof tabiatdagi har bir narsa unga qadrdon bo'lib qoladi. O'zi tug'ilib o'sayotgan hovli, ko'cha va mahallasi dunyodagi eng issiq go'sha, ota-onasi olamdagi eng mehribon insonlar bo'lib xotirasiga muhrlanadi...

Afsuski, umr, yuqorida aytilganidek, bir joyda to'xtab turmaydi, xuddi daryo suvi misol oldinga oqaveradi. Inson ulg'aya borgani sari uni turmush ehtiyojlari turli yo'llarga yetaklab olib ketadi. Endi bolaligidagi beg'ubor sho'xliklari, bir-biridan quvnoq o'yinlari, tashvishsiz kunlari ortda qoladi. U endi hamma joyda ham, hamma odamlardan ham faqat yaxshilik, ezgulik ko'ravermaydi. Turfa xil vaziyatlarda turli tabiatli kishilar bilan muomala-muloqotga kirishadi, bir kun xursand bo'lsa, boshqa kun dili og'rib uyga qaytadi...

Shunday odamlar borki, taqdir ularni tug'ilgan yerlaridan olislariga olib ketadi. Yaqinlari, qarindosh-urug'lari, xesh-u birodarlaridan ancha muddat uzoqda yashashga, turli davralarda bo'lishiga to'g'ri keladi. Ish, bola-chaqa tashvishi, tirikchilik sabab tug'ilgan joylarga tez-tez borib turishning imkoni bo'lmaydi. Oradan yillar o'tib, umr bir joyga borganda qadrdon go'shalarga yana qadam bosar ekan, insonni g'alati hislar chulg'ab oladi. Ibroyim Yusupovning «Qadrdon so'qmoqlar» she'ri aynan mana shu holatni boshdan kechirayotgan kishi tuyg'ularini badiiy aks ettirishi bilan o'quvchi ko'ngliga birdan ta'sir etadi.



**She'rga epigraf qilib olingan maqolga e'tibor bering: «Har kimning tug'ilgan yeri – Misr shahri». Ma'lumki, Misr mamlakatida dunyoning eng qadimiy va go'zal shaharlari joylashgan. Odamlar bu shaharlarni bir bora ko'rish, ular bag'riga sayohatga borishni orzu qilishadi. Lekin shoir o'zining tug'ilgan ovulini Misrdagi muazzam shaharlardan kam ko'rmaydiki, she'rini ham xalqning shu ibratli maqoli bilan boshlaydi.**

She'rning birinchi bandidagi «qizil kendir» Sizga notanish bo'lishi mumkin. Xalq tilida uni qizilquray deyishadi. U ko'p

yillik tolali o‘simlikdir. Ildizpoyasi ko‘p yillik, yer usti poyalari bir yillik, silliq bo‘ladi. Barglari nashtarsimon uchli, gullari mayda, pushti rangdadir. Poyasining po‘stlog‘idan olingan toladan arqon eshish mumkin.

Demak, shoirning ovulida hammamizga tanish tol bilan yonma-yon qizil kendir ham shivirlashib o‘sib yotadi. Olis yoqlarga uchib ketayotgan turnalar esa lirik qahramon yodiga uzoqlashib ketgan bolaligini soladi. Tor, biroq qadrdon so‘qmoqqa qadam bosar ekan, uning «intiqqan yuragi» birdan kengayadi. Shu o‘rinda «intiqqan» so‘ziga jamlangan bir necha ma‘nolarga diqqat qarataylik. Albatta, yuqorida ta‘kidlanganidek, uzoq yillar tug‘ilgan makonidan olislarda yurgan lirik qahramonning bolalik sog‘inchi bilan to‘lgan yuragi bu kunlarni nihoyatda intiqib kutgan. Biroq nihoyat bu yerlarga kelib maqsadga erishgan yurakka nisbatan nega «kengayib» degan so‘z ishlatilyapti? Demak, bu yurakning intiqishi ichida «siqilish», «torayish», «diqqinapas bo‘lish» ma‘nolari ham bor ekan-da!



**Demak, qadrdon so‘qmoqlar ayriliq yillari siqilgan, diqqinapas bo‘lgan bu yurakka kenglikni, erkinlikni, qushdek yengil parvoz etish baxtini hadya etarkan-da!**

She‘rning uchinchi bandi bu lirik qahramon aynan ijod kishisi ekaniga nozik ishora qiladi. Shoir o‘smirlikdagi pokiza tuyg‘ularini ilk bora she‘rga solishdek baxt ato etgan kunlarni, birga mushoira qilgan do‘stlarini xuddi kechagiday tiniq ko‘radi, qalbiga birinchi muhabbat hissini hadya etgan qo‘shni qiz qo‘shig‘i quloqlari ostida jaranglaydi:

Mosh paykalda gala chumchuq chug‘urlar,  
She‘r o‘qishib turgan yosh shoirlarday.  
Burilishda tanish qo‘shig‘in kuylab,  
Qo‘shni qiz oldimdan chiqib qolarday.

Lekin yillar suroni juda ko‘p narsani, juda ko‘p hislarni o‘zi bilan birga olib ketgan. Uzoq yoz kechalari shoirga sho‘xchan

qo‘shiq kuylab berib shodlantirgan qo‘shni qiz ham «bunda yo‘q, u yiroqlarda...» Qolaversa, «Bizning joylar o‘rni hozir paxtazor...»

«Qadrdon so‘qmoqlar» asari shoirning sobiq sho‘ro davridagi ijod mahsuli hisoblanadi. Shunga ko‘ra, mazkur she‘rda lirik tuyg‘ular bilan birga o‘z davri bilan bog‘liq ijtimoiy kayfiyat ham aks etgandir. Gap shundaki, sho‘ro davrida yurtimizning, xususan, Qoraqalpog‘iston hududining ham aksariyat sug‘oriladigan yerlariga paxta ekish siyosati olib borilgan edi. Ko‘plab mevazor bog‘lar, poliz mahsulotlari, sholi va boshqa dehqonchilik ekinlari yetishtiriladigan yerlarni yoppasiga paxta bosib ketgandi. Xuddi shu siyosat natijasini aks ettirar ekan, shoir «Bizning joylar o‘rni hozir paxtazor» deydi.

Ayni misradagi «bizning joylar» so‘zlariga alohida diqqat qaratishimiz kerak. E‘tibor bersak, bu misra «Biroq u bunda yo‘q, u yiroqlarda» degan misradan keyin kelyapti. «Bizning joylar» bugungi kunda yiroqlarda bo‘lgan «u» bilan chambarchas bog‘liq. «U» esa «burilishda tanish qo‘shig‘in kuylab» chiqib keladigan qo‘shni qizdir! Demak, shoir «bizning joylar» deganda, shu qo‘shni qiz bilan sayr qilgan, u bilan baxtli damlarni boshdan kechirgan dilga yaqin joylarni nazarda tutmoqda.

She‘rga alohida ikkita to‘rtlik ham ilova qilingan. Ularning maxsus ajratilishining sababi bor, albatta. Agar she‘rning asosiy qismi bir-biriga bog‘lanib ketadigan yaxlit lirik kechinmalarni o‘zida mujassam etgan bo‘lsa, bu to‘rtliklarning har birida shoirning hayot tajribalari, kuzatishlaridan kelib chiqadigan falsafiy qarashlari ifodalangandir.

Hozirning o‘zida Siz ham bir narsani kuzatishingiz mumkin. Ya‘ni Siz o‘zingizdan katta, ulug‘ yoshdagi odamlarni ko‘proq bilasiz, ularga havas va hatto, taqlid ham qilasiz. Tanishlaringizning aksariyatini tengdoshlaringiz, yoshi katta aka-opalaringiz tashkil qiladi, to‘g‘rimi? Ko‘chada uchrab qoladigan, Sizni yaxshi ko‘rganidan, hatto, chuchuk tili bilan salom berib o‘tadi-

gan yoshi kichikroq bolajonlarning esa hammasini ham taniyver-maysiz, ismlarini-da aniq ayta olmaysiz. Nega? Chunki, odam-ning tabiati shunaqa. Odam doimo oldinga qarab oyoq bosadi, oldinda turgan narsalarni ko‘proq ko‘radi, oldindagilarga intilib yashaydi. Natijada

Cholga salom bersam o‘sha so‘qmoqda,  
«Kimsan?» deb tanimay menga qaradi.  
Bir bola uchrasa sal nariroqda:  
– Kimning o‘g‘lisan? – deb men ham so‘radim.



**Mazkur to‘rtlikda, biz yuqorida aytganimiz inson tabiatidagi qonuniyatdan tashqari, lirik qahramonning o‘zi tug‘ilib o‘sgan joylardan ketganiga juda uzoq yillar bo‘lgani, uni bilgan keksalar endi uni unutayozgani, u yo‘q yillar tug‘ilgan bolalarni esa o‘zi tanimasligidek holat ham aks etgan, albatta.**

Keyingi to‘rtlikda hayotning bundan ham achchiqroq haqiqat-lari ixcham badiiy shaklda ifoda etiladi. Uni ikkiga ajratib tahlil etgan ma’qul.

– Ota, narvon bo‘pti anov qo‘sh terak!  
– Bolam, terak emas, bu umr-ku, bu!

Otaning ovuldan uzoq yil uloqib ketgan o‘g‘lining sodda hay-qirig‘iga bildirgan javobida qancha haqiqat, qancha hikmat ja-muljamdir. Avvalo, bir paytlar yashnab turgan terakning oxir-oqibat yog‘ochga – narvonga aylanishi umrning o‘tkinchiligidan, hech narsa boqiy yashamasligidan ogoh etadi. Undan keyin, bu yerda yolg‘iz terak emas, balki qo‘sh terak haqida so‘z bormoq-da. Buni farzandlarini oq yuvib-oq tarab voyaga yetkazish uchun aziz umrini fido aylaydigan ikki jafokash inson – ota va ona timsoli deb tushunsak, to‘g‘ri bo‘ladimi, bolalar?

Qolaversa, bu «qo‘sh terak» nega aynan «narvon bo‘pti»?

Narvon nima uchun xizmat qiladi? Insonni tepalikka, bandlikka, yuksaklikka olib chiqish uchun. «Qo‘sh terak»ning – ota va onaning umri esa farzandlarini shu yuksakliklarga yo‘llash tashvishida kechadi. Ular o‘z yelkalarida kelajakni ko‘tarib turadilar!

Ajoyib shoir Ibroyim Yusupovning hayoti va ijodi, «Qadrdon so‘qmoqlar» she‘rining boshqa xususiyatlarini esa quyidagi savol va topshiriqlarga javob topish asnosida o‘zimiz uchun kashf qilamiz.



### Savol va topshiriqlar

1. O‘zbek va qoraqalpoq xalqlarining qadimdan bir oila farzandlari kabi ahil va inoq yashab kelayotganiga hayotdan misollar keltiring.
2. Ibroyim Yusupovning mehnat faoliyati uning hayoti davomida qaysi sohalar rivojiga ko‘proq hissa qo‘shganini anglatadi?
3. «Qadrdon so‘qmoqlar» she‘rining yozilishiga nimalar sabab bo‘lgan, deb o‘ylaysiz?
4. She‘rning beshinchi bandini batafsil tahlil etishga harakat qiling.
5. «– *Inim, bog‘ga nega bog‘lading eshak?*  
– *E, anov chiriy deb qolgan olma-ku!*» misralarida hayotning qanday haqiqati ifoda etilyapti? Buni o‘qituvchingiz va sinfdoshlaringiz bilan birgalikda muhokama qiling.
6. «Qadrdon so‘qmoqlar» she‘ridan olgan taassurotlaringizni yozma bayon etishga harakat qiling.

## MUNDARIJA

Said Ahmad .....	3
Musa Jalil .....	14

### *SO‘ZDA HIKMAT BOR*

Xalq qo‘shiqlari .....	23
<i>Nazariy ma‘lumot. Xalq qo‘shiqlari haqida tushuncha</i> .....	27
Alisher Navoiy .....	31
Muhammadsharif Gulxaniy .....	47
Avaz O‘tar .....	63
Abay .....	69

### *RANGIN TUYG‘ULAR*

Zulfiya .....	79
Pirimqul Qodirov .....	94
Tog‘ay Murod .....	123
Ibroyim Yusupov .....	149

SUNNAT AHMEDOV,  
RAHMON QO‘CHQOROV,  
SHUHRAT RIZAYEV

## ADABIYOT

### Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik-majmua

#### II qism

Qayta ishlangan 4-nashri

*Toshkent «Ma’naviyat» 2017*

Muharrir *D. Ismoilova*  
Rassomlar: *A. Mamajonov, R. Zufarov*  
Musahhah *S. Toshqulova*  
Kompyuter dizayni *Sh. Sohibov*

© «Ma’naviyat» nashriyoti. Litsenziya AI №189, 10.05.2011-yilda berilgan.  
Bosishga 26.04.2017-y.da ruxsat etildi. Bichimi 70x90<sup>1/16</sup>. Tayms garniturası.  
Ofset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog‘i 11,70. Nashr tabog‘i 8,01.  
474 300 nusxa. Buyurtma № 17-241.

Original maket «Ma’naviyat» nashriyotida tayyorlandi.  
Toshkent, Taraqqiyot 2-berkko‘cha, 2-uy. Shartnoma № 05–17.

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligining «O‘zbekiston» nashriyot-matbaa  
ijodiy uyida chop etildi. Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30-uy, 2017.

### Ijaraga berilgan darslik holatini ko'rsatuvchi jadval

T/r	O'quvchining ismi va familiyasi	O'quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgan-dagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						

### Darslik ijaraga berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo'q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta ta'mirlangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqova chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi.